

O'ZBEKISTON

TALABASI

2023.10. № 8(9)

TALABALARNI
ISHGA
QABUL QILISHDAGI
IMTIYOZ VA
CHEKLOVLAR



TOR
DOIRANING
QAYG'USI

LOQAYDLIKDAN
ASRAGAN
KUCH



MEROS QOLAYOTGAN "KISHAN"

Biz qachonki, tanlov huquqi atalmish ne'matni yoshlarning o'ziga bersakgina, ulardan katta o'zgarishlarni kutishimiz mumkin.

SEVGISIZLIK FOJIASI

Filmda hamma baxtsiz. Bu baxtsizlik ularni asabiy qilgan, toliqtirgan, o'zi uchun kurashishi kerakligi odamlarni izdan chiqarib yuborgan.

UNUTILGAN QAHRAMON

Maqsad Vatanga katta ilm bilan qaytish edi. Biroq bizga nisbatan tazyiqni kun sayin kuchaytirib borishdi.

TA'TILNI QULLIKDA O'TKAZGAN YIGIT

Ular bu yerdan qutilish uchun hamma narsaga rozi edi. Ammo boshliq pinagini ham buzmasdi.

"YOLG'ON DUNYONING YARMINI AYLANIB CHIQQANDA..."

O'sha kunlarda u hozirgidan ko'ra dono edi – tez-tez mening maslahatlarimga quloq solardi.

TOG' BOSHIGA QOR TUSHIBDI, QOR...

Dovulli, bo'ronli bir kechada zanjir-u g'ullarini uzguday bo'layotgan bandi tulporning holi ko'z oldimga keladi.

GIGANT ODAMLARNING "IZ" LARI

Odamlarda bir necha yuz tonnali xarsanglardan tarkib topgan bunday ulkan binolarni qurishga qanday ehtiyoj bor edi?

Bosh axborot hamkorimiz
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

Jamoat kengashi
Shahlo TURDIQULOVA
Isajon SULTON
Alisher SHODMONOV
Ravshan ERMATOV
Olim TOSHOYEV
Sherzodxon QUDRATXO'JA
Dilorom KARIMOVA
Nodir JONUZOQ
Nazokat AZIM
Abduvali XOLIQOV
Kamoliddin O'RINBOYEV
Gulmira MUSAJONOVA
Ayub SHAHOIDDINOV
Iqbol QO'SHSHAYEVA
Bahrom IRZAYEV
Shahobiddin SHARIPOV

Muassis
"INTEGRATION CENTR UMID" MCHJ

Direktor
Chorshanbi XOLMATOV

Bosh muharrir
Sirojiddin IBROHIM

Navbatchi muharrirlar
Maqsad OBIDJON
E'zozbek HAMID

Jurnal tahririyat kompyuter markazida
terildi va sahifalandi

Sahifalovchi-dizayner
Rahmatjon YUNUSOV

Bir yilda 10 son o'zbek, qisman ingliz va rus tillarida chop etiladi. 2022-yil 11-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 1590-raqam bilan ro'yxatga olingan. Obuna indeksi: 1393. Adadi: 3000 nusxa.

Jurnalda e'lon qilingan materiallardagi dalil va raqamlarga mualliflar javobgar. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahri Chilonzor tumani
Novza ko'chasi 14-uy.
"Invest Book" bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Uchtepa tumani Foziltepa ko'chasi
12-B uy.

25.10.2023-yilda chop etishga ruxsat berildi.
Jurnal obunasi, sotuvi hamda reklama xizmati yuzasidan
+99891 077 75 75
raqami orqali ma'lumot olishingiz mumkin.



MUNDARIJA

MEROS QOLAYOTGAN “KISHAN”.....	02	STUDENT MOTIVATION: WHY IT MATTERS AND HOW TO KEEP STUDENTS MOTIVATED?.....	33	GERI GEDAN.....	68
XALQ ONGIDAGI MAHRUMIYAT.....	06	LOQAYDLIKDAN ASRAGAN KUCH.....	36	MUHAMMADALI G’AFFOR: “YOG’DUGA BURKANIB KO’Z YORAR OLAM...”.....	76
NAFOSATVA HAYOTSEVARLIK IFODASI.....	09	GIGANT ODAMLARNING “IZ”LARI.....	38	NILUFAR ERGASHEVA: “TURNALAR TORTQILAR KIPRIKLARIMDAN...”.....	78
UNUTILGAN QAHRAMON.....	12	SETORA LATIPOVA: “ILM MUSHKULNI OSONLASHTIRADI...”.....	42	CHOY ICHASIZMI?.....	80
REKTOR MUHSIN HOJIYEV: “ENG MUHIM “START” CHIZIG’IDASIZ!”.....	18	TOG’ BOSHIGA QOR TUSHIBDI, QOR.....	48	O’LMAS TEMUR: “SOHANING KASALIMAN, DARMONIM – TEATR”.....	22
TOR DOIRANING QAYG’USI.....	24	ALFRAGANUS: OLIY TA’LIMNING SAMARALI KO’RINISHI.....	60	IBTIDO INTIHODAN BOSHLANGANDA.....	88
OZOD SHUKRULLOYEV: “G’OYALARIMIZ QIYMATIDAN YUKSALISHIMIZNI ORZU QILAMAN...”.....	26	NIMKOSA.....	64	SEVGISIZLIK FOJIASI.....	91
TA’TILNI QULLIKDA O’TKAZGAN YIGIT.....	30	USTOZLARNING YAXSHILARI.....	66	TALABALARNI ISHGA QABUL QILISHDAGI IMTIYOZVA CHEKLOVLAR.....	94

MEROS QOLAYOTGAN "KISHAN"



O'zbek xalqini to'y balosidan qutqaring!
Abdulla AVLONIY

Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy bundan I asr ilgari aytgan gapi hali ham o'z dolzarbligini yo'qotmasdan kelmoqda. Tarixdan ayonki, bundan yuz yillar ilgari bizning hududimizda kambag'allik darajasi yuqori va pul topish juda qiyin bo'lgan. Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" dramasi ham to'ylar, turli marosimlar bilan bog'liq isrofgar-

chilik va dilxiraliklar asosiy muammo sifatida tasvirlanadi. Asarning bosh qahramoni Solih dabdabali to'y qilishni istamasa-da, atrofdagilarning qalbiga kirib borayotgan hashamdor to'ylar muhabbati sababli, jamoaviy bosim ostida uyini garovga qo'yib, katta qarz oladi. To'ydan keyin qarzini to'lay olmay kelin-kuyov joniga qasd qiladi.



- Bir kosa suv bilan shunday nikoh o‘qib yuborsa bo‘ldi edi. Agar ko‘ngildagidek odam topilsa, to‘yni qanday o‘tishi u qadar ham ahamiyatli emas, menimcha. (qiz)
- Sunnatga muvofiq o‘tkazaman. (yigit)
- Kamtarona. Hamma bir xil kiyinishi, bir xil mashina qilishi menga erish tuyuladi. Bitta to‘yga keladigan mashshoqlarning narxiga 20 oilaga ko‘mak ko‘rsatib, quvonch ulashsa bo‘ladi. (qiz)
- Bilmayman, o‘zim istagan odamlar kelsa, o‘zim ham raqsga tusha olsam, ko‘p shovqin bo‘lmasa, yeguliklar bo‘lmasa, nari borsa 1,5 soat davom etsa... (qiz)

Hozir ham bunday dabdababozlikka qarshi targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borilmoqda. Zangori qutidan tortib, pillachi va uzumchilarga foydasi tegayotgan matbuotgacha. Bu mavzu shunchalik ko‘p gapirildiki, aytarga so‘z ham qolmagandek. Men esa eski aravani g‘ichirlatib, sizlarga o‘sha yo‘lda va‘z o‘qimoqchi emasman. Shunchaki, havodan olinib, havoda muallaq qolayotgan gaplarni muhokama qilmoqchiman.

Xo‘sh, nega bu jimjimador gaplar foyda bermayapti, axir bu aytilganlar qalbni larzaga solishi kerak-ku. Balki, endi targ‘ibot ishlarining boshqa usullaridan foydalanish vaqti kelgandir. Bir do‘stimning Telegram tarmog‘ida shaxsiy kanali bor, obunachilarining aksariyatini yoshlar tashkil qiladi. Shu kanalda “To‘yingizni qanday qilish o‘zingizning ixtiyoringizda bo‘lsa, qay shaklda o‘tkazgan bo‘lardingiz?” mazmunida so‘rov o‘tkazildi. Unda ishtirok etganlardan ayrimlarining fikrlariga e‘tibor qaratamiz:

“Odamlar nima deydi?” degan gap tafakkurimizga o‘rnashib qoldi



– Hech ham o'ylab ko'rmagan ekanman, biroq menga to'ydagi shovqin-suron yoqmaydi. Imkon boricha tashvishsiz o'tkazishga harakat qilardim. (yigit)

Bu kabi so'rovlar oldin ham bo'lgandir. Lekin qancha gapirilmasin, muammo hamon o'sha-o'shaligicha qolyapti. So'rov natijasiga qaraydigan bo'lsak, biror yosh yo'qki, men to'yimning dabdabali bo'lishini xohlayman deydigan. Natijalarga qarab aytish mumkinki, 100 foiz yoshlar dabdabali to'y tarafdori emaslar. Biz bu fikrlar barcha yoshlarga tegishli degan qarashdan yiroqmiz. To'yini dabdabali qilishni xohlaydigan yoshlar ham bor va ularga qarshiligimiz yo'q. Biz shunchaki hashamatli to'y qilishni farzanddan farzandga meros qilib qoldirayotganidan afsusdamiz. Bu haqida qanchalik ko'p gapirsak ham, muammo barham topmayapti. “Odamlar nima deydi?” degan gap tafakkurimizga o'rnashib qoldi. “Faloncha shunday to'y qildi, biz undan o'tkazamiz” deb yillar davomida misqollab yiqqan bor-budimizni sarflab, yetmaganiga qarz olib bo'lsa-da, dabdabali to'y qilishga urinadigan millatga aylandik. To'ydan so'ng esa “qara, hammasini sen uchun qildik va shuncha qarzga botdik”, deb jahl ham qiladigan oilalar borligini eshityapmiz.

Avvalo, bir narsani bilib olaylik, hashamatli to'yni kim xohlayapti, kim ukamning yoki akamning qudasini aytmasam uyat bo'ladi deyapti? Men sizlarga o'zim bilgan yaxshi misolni keltirib o'taman: karantin tugadi va menga bir necha tanishlarim “eh, karantinda to'y o'tkazish 30 kishilik bo'lgan vaqtda to'yimni qilib yubormadim-da, osongina qutilib qo'yardim”, kabi gaplarni aytishdi. Dabdaba bilan o'tadigan to'yni kamxarj qilib ham o'tkazsa bo'lishini ko'pchilik tushundi.

Kun bo'yi ishlagan odam
o'qishni emas, uxlashni
xohlaydi

“Odamlar nima deydi?” degan gap bizni qanday ahvolga solib qo'ydi? Biz kimni aldayapmiz, faqat va faqat o'zimizni emasmi? Hamma xohlaydi kamchiqimgina to'y qilib o'tkazishni, biroq hamma bir-biridan u nima deydi, bu nima deydi, deb qo'rqishdan nariga o'tmaydi. Bunday ko'zbo'yamachilikni, topganimizni kimo'zarga sarf qilishni yo'qotish uchun 10-20 yil karantin bo'lishi kerakmi?

Shunday ekan yechim qanday?

Avvalo, farzandning o'zidan to'yini qanday qilishni xohlashini so'rash kerak. Axir bu katta hayotga mustaqil qadamlaridan biri. Bu qadamni qanday tashlashni o'zi hal qilmog'i lozim. Biz qachonki, tanlov huquqi atalmish ne'matni yoshlarning o'ziga bersakkina, ulardan katta o'zgarishlarni kutishimiz mumkin. Shundaygina bir-birimizni ayblashdan qutulamiz.





Endi sen katta hayotga tayyorsan, ortga qaraganingda afsuslanadigan ish qilma

Menga bir tanish akam aytgandi:

- Necha yoshsan?
- 23 yoshman.
- Xo‘sh, sen birlamchi ehtiyojlarini qondirgan-misan?
- Nimalarni aytayapsiz?
- Mashina, uy va shunga o‘xshash narsalarni?
- Menda hali ularning hech biri yo‘q.
- 23 yoshsan, hozir sen hamma birlamchi ehtiyojlarini qondirib, karyera qilish haqida bosh qotirishing kerak vaqtda, hamon birlamchi ehtiyoj uchun harakat qilayapsan. Men ham birinchi mashinamni 31 yoshimda olganman, undan keyin yana boshqalariga erishganman. Senga bitta narsani aytaman: kun bo‘yi ishlagan odam o‘qishni emas, uxlashni xohlaydi...

Biz shunday qilib orzularimizni o‘ldirayapmiz. Shu o‘rinda, yoshi katta insonlardan so‘ragan bo‘lardimki, dabdabali to‘y qilishga yillab vaqtni va pulni sarflamang. Siz farzandigiz 20 yoshga yetguncha unda birlamchi ehtiyojlarni qoldirmaslikka harakat qiling, qolganini o‘z tortib ketadi.

Xulosa o‘rnida aytamiz, aziz talabalar, kelajakda hali oila qurasiz va farzandli ham bo‘lasiz. Farzandlarigizga: “Men seni birlamchi ehtiyojlarining hammasini qondirishga qo‘limdan kelganicha harakat qildim. Endi sen katta hayotga tayyorsan, ortga qaraganingda afsuslanadigan ish qilma, to‘y qilayotganingda qanday o‘tkazishni xohlasang shunday qil, o‘zingga munosib juft top va baxtli yasha”, deng. Shu tarzda dabdabali to‘ydek asriy “kishan”dan avlodingizni xalos eting!

✍ E‘zozbek HAMIDOV

XALQ ONGIDAGI MAHRUMIYAT

Shango.ru saytining “NOP World” xalqaro reyting agentligi o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra, dunyoda odamlar haftasiga 16 soat vaqtini televizor ko'rishga sarflasa, 8-9 soatni kompyuter, 6,5 soatni esa kitob o'qish uchun ajratadi. 2023-yilda haftasiga eng ko'p kitob o'qiydigan mamlakatlar ro'yxatida Hindiston – 10,7, Tailand – 9,4, Xitoy – 8, Filippin – 7,6, Chexiya – 7,4, Shvetsiya – 6,9, Fransiya – 6,9 va Vengriya – 6,8 soat bilan yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Darajamizni kitobxonlik rivojlangan xalqlar bilan taqqoslasak, bu borada eng quyi o'rinlardamiz. Ochig'ini aytish kerak, biz kitobxon millat emasmiz, bolalar, yoshlar, kattalar ham ko'p o'qimaydi. Nega shunday? Nega kitob o'qimaymiz?



Dori turli kasalliklaringizga shifo bo'lsa, kitob ruhingizni davolaydi

Buning birinchi sababi sifatida kitoblarning qimmat narxini keltirish mumkin. To'g'ri, inson uchun moddiy birinchi o'rinda turadi. O'zimdandan misol, kitob o'qishni yoqtiraman. Qo'limga pul tushishi bilan kitob do'konlariga boraman. Yaxshi, arziqli kitoblardan bir nechtasini olaman-u, sotuvchi qizga hisoblataman. Sotuvchi qiz ham zumda salkam bir oylik maoshimga teng summa aks etgan chekni qo'limga tutqazadi. Hafsalam pir bo'ladi. Kitoblarni bir-ikki varaqlab, o'rniga qo'yaman va quruq qo'l bilan chiqib ketaman. Aslida, kitob bebaho, lekin istaymizmi-yo'qmi, har qanday balandparvoz gap ham moddiy quvvat bilan o'lchanadi. Yaqinda bir do'stim bilan shu mavzu yuzasidan fikrlashdik. U qiziq bir gap aytdi: dorixonalarda dorilar narxi juda qimmat. Bir dorini turli dorixonalarga kirib surishtirsangiz, har-xil narx aytishadi. Misol uchun "Oson apteka" degan ilova bor. Shu ilovada bir dori narxi poytaxtdagi dorixonalarda 1 million 700 ming so'mdan sotuvda turibdi. Xuddi shu ilovaga kirib, Toshkentdan bir necha km naridagi Yangiyo'l tumanidagi aptekadan o'sha dorini 600 ming so'mga ham topishingiz mumkin. Ya'ni bu soha (farmatsevtika) katta biznesga aylangan. Kitob savdosi ham shundan kam emas. Bitta kitobning narxini to'rt-besh kitob do'konidan so'rasangiz, bilasiz. Dori inson hayoti uchun qanchalik zarur bo'lsa, kitob ham shunchalik zarur.



Dori turli kasalliklaringizga shifo bo'lsa, kitob ruhingizni davolaydi. Agar biz kitob o'qimay qo'ysak, kunimiz faqat virtual olamdan bo'shamay qolsa, buyoqda kitoblarning narxi osmon bo'lib tursa, ommaviy ongsizlik avj olaversa nima bo'ladi? Millatimiz tobora jarlikka tomon yaqinlashmayaptimi?

Rivojlangan davlatlarda kitoblarning narxi olinayotgan maoshga qarab belgilanadi. To'g'ri, bizda kitoblarning narxi dunyo bo'yicha olib qaraganda arzon bo'lishi mumkin, ammo uni to'lanayotgan maoshga solishtirangiz, ancha qimmat.

Bugungi kunda jahon bestsellerlarini tarjima qilish va nashr etish bilan shug'ullanayotgan "Asaxiy books" nashriyoti bosh marketologi Miraziz Mirtolibov dan ushbu mavzu bo'yicha fikrlarini olishga harakat qildim:

– Narx hamma uchun har xil. Bu nisbiy narsa. Misol uchun kimgadir 30 ming so'mlik kitob arzon, kimgadir esa qimmat tuyulishi mumkin. "Asaxiy Books" kitoblar sifatini yuqori, narxni arzonroq qilishga harakat qiladi. Kitoblar boshqalarnikiga qaraganda qimmatroq sotilsa ham biz zararga ishlaymiz. O'ylashimizcha, boshqa kitob do'konlarida ham shunday. Unda nega kitoblarni sotishda davom etaverasiz, deyingiz mumkin. Bizning asosiy maqsadimiz, kitobdan foyda ko'rish emas, O'zbekistonning istalgan hududidagi har bir odamga jahon bestsellerlarini qulay yetkazib berish va ular kitobni o'z ona tilida mutolaa qila olishi. "Asaxiy books" loyihasining qadriyati shundan iborat. Agar yoshlar orasidagi kitobga qiziqishni 10 ballik shkalada baholaydigan bo'lsam, bu qiziqishni 8-9 ball degan bo'lardim. Umid qilamizki, yaqin kelajakda bu 10 balga ko'tariladi".




Bu borada tengdosh do'stim Diyorbekning ham fikrlarini tingladim:

– Kitob o'qishga qiziqaman. Ijara puli, kontrakt va boshqa ko'plab xarajatlar tufayli ba'zida o'zim istagan kitoblarni sotib olishga qiynalaman. Yaqinda 4 ta kitobni sotib olmoqchi bo'lganimda ularning narxi 400 ming so'mdan oshib ketdi. Oladigan stipendiyamiz 500 ming so'm ekanini hisobga olsak, bu men uchun biroz qimmatlik qildi. Maktab o'quvchisi yoki talaba uchun kitoblar qimmatlik qilishini tan olish kerak. O'qishga ishtiyoqi baland, ammo doim sotib olishga imkoniyati bo'lmaydigan yoshlar ko'p, – deydi u.

Xo'sh, bu muammoni qanday bartaraf qilish mumkin? Menimcha, jamiyatimizda kitobxon avlod paydo bo'lishi uchun ikki xil yo'l bor: Birinchisi, yoshlarning puli nihoyatda ko'p bo'lishi kerak, ikkinchisi, "kitob biznesi" sal epaqaqa kelishi kerak. Mutasaddi tashkilotlar bu haqida bosh qotirib ko'rishlari shart. Eng qizig'i, xabardor kishi sifatida ayta olamanki, kitobni kitob holiga keltirgan muharrir-

Siz nima deysiz?

Kitobxonlik darajasi qanday ekani bilan har qanday jamiyatning siyosiy, iqtisodiy ahvolini bilish mumkin



lar, muharrirlar, hatto muallif, yozuvchilarga ham yaxshi haq to'lanmaydi. Axir qachongacha qimmatli vaqtini sarflab o'sha kitobni yozgan odamning kosasi oqarishi o'rniga olg'ir tujjorlar manfaat ko'radi? Bunday holatlarga chek qo'yish vaqti kelmadimikan? Kitob savdosi bilan shug'ullanuvchilar sal insofqa kelsalar yomon bo'lmas edi. Ayniqsa diniy kitoblarga talab kuchiligini bilgan uddaburon tadbirkorlar shu turdagi nashrlarning narxini osmon qilib olishgan. Diniy kitoblarni chiqarish va sotishdan asosiy maqsad ilm tarqatishmi yoki mo'maygina daromad olishmi? Mayli, imkoniyati borlar sotib olar, lekin ilmga chanqoq talabalarchi? Ular qanday qilib bunday qimmat kitoblarni sotib oladilar? Savollar ko'p, eshitguvchi yo'q.

Kitobxonlik darajasi qanday ekani bilan har qanday jamiyatning siyosiy, iqtisodiy ahvolini bilish mumkin. Tarixdan olib qaraydigan bo'lsak, bir millat boshqa bir millatni bosib olganda birinchi navbatda kutubxonasiga o't qo'yan. Sababi, kitob millatni birlashtiradigan, dunyoqarashini shakllantiradigan va ma'naviyatini yuksaltiradigan kuchga ega. Kitob o'qimagan millat tanazzulga uchraydi. Kim qayoqqa yetaklasa, o'sha yoqqa ketaveradi. Gapning indallosi, xalqimiz kitob o'qib, ma'naviy ozuqa olish va kitobga pul sarflashni o'rganishi zarur.



Sirojiddin NAJMIDDINOV

O'ZJDTU xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi





NAFOSAT
VA HAYOTSEVARLIK
IFODASI

Egizaklar. Xitoyda egizaklarning tug'ilishi oilaga baxt va omad olib keladi degan tasavvur mavjud. Menimcha, bizning bolajon o'zbek xalqida ham egiz farzandlarga qut-baraka va baxt timsoli sifatida qaraladi. Olimlarning fikricha, ko'pchilik insonlar egizaklarni ko'rganda ularga havas va mehr ko'zi bilan qarar ekan. Nima uchun bu mavzuda gap boshlading, deysizmi? Chunki bu galgi qahramonlarimiz, aynan, egizaklar bo'ladi.

Sabrina va Mohinur Baxtiyorovalar 2004-yilning 7-sentabr kuni Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi ziyoli oilada dunyoga kelgan. Uyidagi muhit bolalikdan ular qalbida sportga nisbatan muhabbatning uyg'onishiga sababchi bo'ladi. Bu haqida Sabrining o'zi shunday eslaydi:

“Oilamizda hamma sportga qiziqadi. Otam, onam, ukam... Otam yoshliklarida sportning futbol va boks turlari bilan, onam esa taekvando bilan shug'ullangan. Bizdagi sportga bo'lgan qiziqishning uyg'onishiga ham, aynan, onam sababchi. Biz 4 yoshimizdan buyon badiiy gimnastika bilan mashg'ulmiz. Onam esa bolaligimizdan bizni mashg'ulotlarga o'zlari olib borib kelganlar. Hatto uyda ham biz bilan birga mashqlarni bajarar edi”.

Bu qizlarning nafaqat chehralari o'xshash, balki qiziqishlari, orzu-maqсадlari ham mushtarak. Shu sababdanmi, ikkisinining qo'lga kiritgan yutuqlarida ham tenglik yuzaga kelgandek. Sabrina ham, Mohinur ham gimnastika bo'yicha sport ustasi, ushbu sport turi bo'yicha respublika chempionatining kumush, respublika kubogining esa bronza medali sovrindorlari. Qolaversa, suzish bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolari hisoblanishadi. Hozir aerostretching va fitness bilan muntazam shug'ullanishadi.

Ular sport bilan bo'lib, o'qishni ham tashlab qo'yishgan emas. Ikkovlari ham hozirda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qo'shma innovatsion pedagogika fakultetining amaliy psixologiya yo'nalishida tahsil olishadi. O'qishni tamomlagandan so'ng Mohinur oila psixologiyasi yo'nalishida, Sabrina esa sport psixologiyasi yo'nalishida faoliyatlarini davom ettirish niyatida. Ularning ustozlari, fakultet dekani o'rinbosari Barno Umarova shogirdlari haqidagi fikrlari bilan o'rtoqlashdi:



– Ikki ham xuddi qizlarimdek bo'lib qolgan. Sport bilan birga o'qishni ham o'z o'rniga qo'yishadi. Sabrining sportga qiziqishi juda kuchli, mashg'ulotlar uning jon-u dili. Mohinur ham sportni sevadi. Ba'zida jismonan zo'riqishlar toliqtirganda, to'xtataman, degan vaqtlari bo'ldi. Ammo har gal o'zida kuch topib, davom etgan. Biz ular bilan faxrlanamiz.

Bu ikki egizak opa-singil hozirdan o'zining sport sohasidagi bilimlarini bolajonlar bilan bo'lishishni boshlab yuborishgan. Sabrina 3 yildan buyon "Smart school" xususiy maktabi hamda O'zbekiston gimnastika federatsiyasida murabbiy sifatida ishlamoqda. Mohinur "Nur education" xususiy maktabida bolalarga gimnastika bo'yicha saboq berib kelayotganiga ikki yil bo'ldi.

– Sport bizning hayotimiz. U bilan shug'ullanish odamga zavq beradi, tanani chiniqtiradi, sog'lomlashtiradi. Ba'zan dieta saqlab, kam ovqat yeganimiz tufayli sportni davom ettirishimizga buvim, amakilarim tomonidan e'tirozlar bo'lgan, lekin to'xtatmaganmiz va ular ham bizni qo'llab-quvvatlashda davom etishgan. Sabrina bilan har doim bir-birimizni qo'llab kelganmiz, ammo ko'pincha musobaqalarda bir-birimizga raqib bo'lamiz... – deya kulib qo'yadi Mohinur.



Ulardan kelajakdagi maqsadlari haqida so'raganimda, sportni davom ettirish bilan birga badiiy gimnastikada shogirdlari orqali O'zbekistonni jahonga tanitish va psixologik yo'nalishda maslahatchi bo'lish ekanligini ta'kidlashdi. Bu hayotsevar, o'ziga ishongan, yuksak maqsadli qizlar atrofida ilgarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yorug' muhit yaratishiga ishonamiz.

Otabek SAIDAHMADOV




UNUTILGAN QAHRAMON

**O'ZBEKNING
BIRINCHI
AGRONOMI
ABDUVAHHOB
MURODIY
HAQIDA**



Abdulahob Murodiy 1901-yilda Toshkentning Egarchi mahallasida dunyoga kelgan. Qashshoq oilada tug'ilgan Abdulahob bolaligidanoq o'zidagi cheksiz g'ayrat va iqtidori bilan Toshkent taraqqiyparvarlarining yetakchisi Munavvar qori Abdurashidxonovning nazariga tushdi. Shundan so'ng uning ta'lim va tarbiya olishiga Munavvar qori to'liq homiylik qildi. U 1913-yili Eshonxo'ja Xoniyning "Xoniy" maktabini, 1914-yili Munavvar qorining "Namuna" maktabini bitirgan. 1915-yili Munavvar qori tavsiyasi bilan Namangan shahridagi jadid maktabiga o'qituvchi sifatida yo'llanib, bir yil u yerda ishladi. 1916-1917-yillari Toshkentdagi "Hayot" maktabida dars berdi. 1917-1919-yillari Ozarboyjonning Boku shahridagi ziroat bilim yurtida o'qidi. So'ng Toshkentga qaytib 1919-1920-yillari "Mashrab" maktabida dars berdi, mudirlik qildi. Ayni paytda Said Ahroriyning "Izchilar to'dasi", Fitratning "Chig'atoy gurungi" tashkilotlari tadbirlarida faol ishtirok etdi.



Abduvahbob Murodiy Turkistonga kelgan taniqli turk generali Jamol poshoning maslahati bilan Germaniyada o'qishga qaror qiladi.

Unga Akmal Ikromov "Muallimlar jamiyati" xazinasidan ma'lum miqdorda pul ajratadi. 1920-1921-yillari Afg'onistonda bo'lib, 1921-yil iyulida Germaniyaga yetib keladi. Berlindagi qishloq xo'jaligi akademiyasiga o'qishga kiradi. Shundan so'ng Vatanga maktub yo'llab, bu xatlar "Qizil bayroq" gazetasida "Germaniyadan xat" rukni ostida chop etiladi. Berlin ziroat akademiyasi talabasi Abduvahbob Murodiy ilk maktubida Toshkentda ochilgan "Ko'mak" jamiyatini qutlab: "Toshkentdan olingan bir xatda Ovrupoga talabalar yubormoq uchun sizlarning bir uyushma tuzganingizni o'qidim va terimga sig'maydirgan darajada suyundim. Bir yildirkim Ovrupoda yashamoqdaman. Ilm-maorifda Ovrupoda birinchi bo'lgan Germaniya dorulfununlarida butun dunyodan, hatto tatarlardan o'nlab, turklardan esa minglab talabalar bo'lgani holda, bizning Turkistondan mendan boshqa talabaning bo'lmasligi yuragimni parchalamoqda. Boshqalarga

hasad sezgisini uyg'otmoqda edi. Mana, sizlarning bu xayrlik muborak tashabbusingiz bir yildan beri kulmagan ko'nglimni kuldirdi va ruhimga jon berdi", deb yozadi. Gazetaning keyingi sonida Ovrupo mamlakatlari orasida tahsil uchun har jihatdan ma'quli Germaniya ekanligini ta'kidlab: "...nemislar o'zlarining hisobsiz dushmanlarini yengmak uchun Sharqning uyg'onmoqligini istaydirlar. Bu kungacha Sharq to'g'risida yozgan kitoblari butun betaraflik bilan yozilmishdir. Faqat ilm, maorifda bular Ovrupoda ustoz sanaladirlar. Nemislarning oliy maktablarida yuzlab amriqolik, fransuz, inglizlarning bo'lishi va bu yerda muhandis to'plamoq uchun bir muncha hay'atlarning kelishi mening bu da'vomni isbot etadir", deydi. So'nggi maktubi "Germaniyada o'qish va o'qitish" sarlavhasi ostida bo'lib, "...Germaniyada 21 dorulfunun va boshqa sonsiz yuqori va o'rta darajalik maktablar bor. Germaniya dorulfununlari maktab bo'lishdan boshqa yana bir koshiflar, ixtiro qilg'uchilar yotog'idir. Germaniya dorulfununlaridagi o'rgatish usuli hech bir yerda yo'qdir... Darsni eshitmak bilan qolmas. Balki, dars-

1927-yilda Vatanga qaytgan Murodiy sovet hukumati idoralari tomonidan ishonchsiz deb topildi



ning ruhiga kirib ketar. Fanni o'zidan yiroq emas, o'z ichida his etar. Mana shu surat bilan uning miyasida fan tug'ilur va yashar. Ixtiro fikri uyg'onur. Katta imtihon bo'lganda ana shul darsdan ham so'z, ham yozuv bilan imtihon berur. So'ngra shul fan to'g'risida bir kitob yozar. Ul kitob mudarrislar orasida o'qilur. Ular tanqid etarlar. Talaba isbot qilur. Shul yo'l bilan talaba fanning har nuqtasiga yetishganligi bilingach qo'lga shahodatnoma berilur. Bu shahodatnomani olgan talabaga har qanday ish topshirilur. Talaba bir nazariyotchi bo'lib emas, balki haqiqiy bir fan olimi bo'lib yetishar", deydi.

1922-yil kuzidan Germaniya tuprog'iga yuzga yaqin turkistonlik yoshlar qadam qo'ydi. Abdurahob ularning iqtidoriga ko'ra ta'lim sohasini tanlash va yoshlarni olmon xonadonlariga joylashtirish ishlariga bosh-qosh bo'ldi. Munavvarqori va Fitrat maslahati bilan Ovrupoga yo'l olayotgan yoshlarning har biriga uchtadan daftar taqdim etilgan edi. 1-daftarga egallayotgan sohasiga oid chuqur ilmiy ma'lumotlar, kitoblar va eng yirik olimlarini yozish; 2-daftarga o'sha soha pedagogikasi, ta'lim dargohlari, kadrlar qayerda va qay tartibda o'rgati-

Ular yosh o'zbek agronomining ish jarayoniga turli bo'hton bilan qarshilik ko'rsatdilar

lishi; 3-daftarga sohaning asosiy tushuncha va terminlarini yozish, qaysi tildan olingani, qanaqa ma'noni anglatishini o'zbek tilidan qaysi so'zga mos tushishini yozish topshiriladi. Jadidlarning fikricha, biror fan biror millatda ildiz otishining asosiy sharti millat o'sha fan terminlarini o'z tilida shakllantirmog'i lozim. Aks holda, fan ham tili hukmron bo'lgan millatga tobe bo'lib

Germaniyada o'rgangan ilmlarini ishga solib, juda boy jamoa xo'jaligini yuzaga keltiradi

qoladi. Shuning uchun, yoshlarning bir qismi avtomobil, elektr, velosiped, poyafzal, dorishunoslik korxonalariga joylashtirildi. Ular ham 3 daftarni yuritishar, sohadagi asosiy uskunalar, detallar, ularning material tarkibi, yasaliush usullari, asosiy adabiyotlarini Vatanga yo'llardi. Shanba, yakshanba kunlari ilmiy sayohatlar uyushtirib, shaharlardagi asosiy korxonalar, ularning tuzilishi va ish usullari, iqtisodiyotdagi ahamiyatini muhokama etishardi. Har o'n besh kun, bir oyda Fayzulla Xo'jayev tomonidan sovg'a qilingan Berlindagi Maorif uyida jamlanib, talabalar o'zlari o'rganayotgan soha va amalga oshirayotgan ishlari haqida ma'ruzalar qilardi. Tadbir so'nggi adabiy kechaga aylanib, kichik teatr tomoshasi sahnalashtirishar, mushoiralar uyushtirishardi.

1926-yili Abduvahob Murodiy to'rt oy davomida Misrda paxtachilik sohasida amaliyot o'tab, Yevropa ta'lim muassasasida oliy ma'lumot olgan birinchi o'zbek agronomiga aylandi. "Yer yuzi" jurnalining 1926-yil 11-sonida "Birinchi diplomli agronom" maqolasida muallif o'quvchilarga Murodiy haqida xabar beradi va keyingi yillarda "...yuzlarcha muhandis, kimyogar, do'xtir, sotsiolog mutaxassislarga ega bo'lur-miz" deb umidlanadi.

1927-yilda Vatanga qaytgan Murodiy sovet hukumati idoralari tomonidan ishonchsiz deb topildi. Bir muddat ishsiz qoldi. Bu vaqtda u o'zining Germaniyadan keltirgan kitoblari asosida bolalar uchun olmon adabiyotidan tarjimalar qildi, qator darslik va o'quv qo'llanmalari yaratdi. Jumladan, "Botanika", "Paxta yetishtirish usullari" kabi kitoblari chop etildi, vaqtli matbuotda ko'plab maqolalari bosildi.

Abduvahob Murodiy 1927-yil so'nggida Shreder nomidagi bog'dorchilik ilmiy-tekshirish institutida direktor muovini bo'ldi, O'rta Osiyo davlat universiteti qishloq xo'jaligi fakultetida o'qituvchi vazifasida ishlay boshladi. Shuningdek, u mashhur qozoq adibi Muxtor Avezov, akademik Borovkovlar bilan sharq fakultetining turkiyshunoslik bo'limida ham ilmiy xodim sifatida yoshlarga ta'lim bergan. Abduvahob Murodiy tinimsiz ilmiy va amaliy mehnat faoliyati bilan bir paytda matbuot sahifalarida sharqshunoslik va o'zbek imlosi masalasiga oid maqolalari bilan ham qatnashib turdi.

80

Germaniyada o'rgangan ilmlarini ishga solib, juda boy jamoa xo'jaligini yuzaga keltiradi

Yer yuzi



Fayzulla Xo'jayev (1889-1955) — agronomik fanlarning asoschisi va o'zbek agronomiyasining tashakkul topishida muhim rol o'ynagan. U Germaniyada o'qib qolgan vaqtda ilmiy adabiyotlarni o'rganib, ularni o'zbek tiliga tarjima qilib, xalqqa yozib borgan. Uning ishlari o'zbek agronomiyasini rivojlantirishga muhim hissa qo'shgan.

1926-yil Misrdagi paxtachilik amaliyoti



1926-yil Misrdagi paxtachilik amaliyoti. Paxtachilik amaliyoti o'zbek xalqining tarixiy amaliyotidir. Uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Misrda paxtachilik amaliyoti o'zbek xalqining tarixiy amaliyotidir. Uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Yer yuzi



Yer yuzi — agronomik fanlarning asoschisi va o'zbek agronomiyasining tashakkul topishida muhim rol o'ynagan. U Germaniyada o'qib qolgan vaqtda ilmiy adabiyotlarni o'rganib, ularni o'zbek tiliga tarjima qilib, xalqqa yozib borgan. Uning ishlari o'zbek agronomiyasini rivojlantirishga muhim hissa qo'shgan.

Yer yuzi



Yer yuzi — agronomik fanlarning asoschisi va o'zbek agronomiyasining tashakkul topishida muhim rol o'ynagan. U Germaniyada o'qib qolgan vaqtda ilmiy adabiyotlarni o'rganib, ularni o'zbek tiliga tarjima qilib, xalqqa yozib borgan. Uning ishlari o'zbek agronomiyasini rivojlantirishga muhim hissa qo'shgan.



Hatto, bir qism yoshlar mamlakatga qaytib borish fikridan qaytish darajasida qo'rqib qoldilar

O'zbekiston hukumati rahbarlari Fayzulla Xo'jayev va Akmal Ikromov uning nomzodini bir necha marta Yer ishlari komissari lavozimiga tavsiya etadi. Bu esa ayrim "qizil imperiya"cha siyosat tarafdori bo'lgan kimsalarga yoqmadi. Ular yosh o'zbek agronomining ish jarayoniga turli bo'hton bilan qarshilik ko'rsatdilar. Shunga qaramay, u qisqa muddatda O'zbekiston qishloq xo'jaligi tajriba stantsiyasida ko'pgina iqtidorli shogirdlarni yetishtirib berdi. Toshkent tumani Achchi ovulida o'z tashabbusi bilan tuzilgan "Qizil namuna" jamoa xo'jaligida Germaniyada o'rgangan ilmlarini ishga solib, juda boy jamoa xo'jaligini yuzaga keltiradi va o'z davri uchun misli ko'rilma-gan iqtisodiy yutuqlarni qo'lg'a kiritadi.

Abduvahhob Murodiy 1930-yil 25-aprel kuni Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarligidagi "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi sifatida OGPU tomonidan qamoqqa olindi. U bir yildan ortiq vaqt davom etgan qiynoq va tahqirlar ostida so'roq qilindi. Bu tergov materiallari mazmuni bugun Murodiyning jinoyatchi emas, aksincha haqiqiy millat qahramoni ekanligini isbotlovchi dalillardir. Jumladan, u tergovchining Germaniyada tahsil olgan Turkiston yoshlarining maqsadi haqidagi savoliga: "...Biz Germaniyada faqat bir narsa haqida o'ylar edik. Avvalo xorijiy tillarni o'rganib, Ovrupo ilm-fani yutuqlarini mamlakatimizga olib kiramiz der edik. Shu maqsadda til kurslarini tugatish bilan tezdan eng iqtidorli yigitlarni imkon qadar turli-tuman sanoat va ilm-fan jabhalariga kengroq taqsimladik. Shu bilan birga o'sha ilmlarning asoslarini mukammal egalash, turkiy tilda ularning terminologik lug'atlarini tayyorlash, kerak bo'lganida o'zimizda yangi avlodni yetishtirish uchun o'sha fan va hunarlarni o'qitish usullarini o'zlashtirdik. Kitoblarini to'plab kengroq ma'lumotlarni o'zlashtirishga, tarjimalar qilishga intildik. Maqsad Vatanga katta ilm bilan qaytish edi. Biroq bizga nisbatan tazyiqni kun sayin kuchaytirib borishdi. Hatto, bir qism yoshlar mamlakatga qaytib borish fikridan qaytish darajasida qo'rqib qoldilar...

**“Tirik qolsam,
Vatanimda yashayman,
aks holda, unga xizmat
qilib o‘laman”**

Men Turkiyada ko‘plab tanish orttirganman, menga u mamlakatning pasporti ham berilgan edi. Biroq Ovrupoga Vatanim ravnaqi uchun xizmat qilaman deb yo‘l olgan edim. Meni Vatanga faqat unga foydam tegadi degan maqsad yetaklab keldi. Vatanimda oson bo‘lmasligini bilganim holda qaytdim. Tirik qolsam, Vatanimda yashayman, aks holda, unga xizmat qilib o‘laman...” deb javob beradi. Albatta, vatanparvarlikka bundan ulug‘ misolni keltirishning boshqa imkoni bo‘lmasa kerak.

1931-yil 25-aprel kuni OGPU (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi) kollegiyasi qarori bilan Abduvahhob Murodiyga chiqarilgan otuv hukmi 10 yillik konslager bilan almashtirildi. Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, u jazoni dahshatli Solovka lagerida o‘tgan va shu joyda halok bo‘lgan. 1932-yili uni intizorlik bilan kutayotgan va allaqachon o‘zbek tilini o‘rganib olgan turmush o‘rtog‘i, olmon qizi Martava xonim va qizalog‘i Pote (o‘zbekcha ismi Maryam) sho‘rolar mamlakatidan chiqarib yuborildi. Xullas, mustabid tuzum hech biri isbot topmagan bo‘htonlar bilan endigina 30 yoshni qarshilagan yetuk mutaxassisning hayotiga zomin bo‘ldi...

Bugun Abduvahhob Murodiydek millatimiz oydinining so‘nggi kunlari haqida hech qanday ma‘lumotga ega emasmiz. Ming afsuski, uning nomi O‘zbekiston milliy ensiklopediyasidan ham joy olmagan. To‘g‘ri, u o‘tgan asrning 80-yillari so‘nggida Munavvarqori Abdurashidxonov bilan bir paytda oqlangan. Biroq shundan so‘ng ham uning ulkan ilmiy merosi va ijtimoiy faoliyati jiddiy tadqiq etilmadi. Turmush o‘rtog‘i Martava xonim, qizi Potening ham keyingi taqdiri noma‘lumligicha qolmoqda.

✦ Bahrom IRZAYEV
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori



18

O'ZBEKISTON TALABASI

Rektor huzurida

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



rektor Muhsin HOJIYEV:

**“ENG MUHIM
“START” CHIZIG‘IDASIZ!”**

- GULISTON DAVLAT UNIVERSITETIDAGI TA'LIM JARAYONLARI, KECHAGI VA BUGUNGI FARQLAR HAQIDA NIMA DEYOLASIZ?

– Bugun universitetimizda bakalavriat bosqichida 53 ta, magistratura bosqichida esa 18 ta ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlanadi. Ushbu raqamlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi 3 yil ichida universitetimizda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari soni 2 marta, magistratura mutaxassisliklari soni 4 marta ko'paygan. Albatta bu ta'lim maskanimizga bo'lgan talabning ortganidan dalolat hamda mana shu talabni qondira olayotganimiz ham bizning yutug'imizdir.

Hozirda universitetda 32 ta tayanch-doktorantura ixtisosliklari bo'yicha ilmiy kadrlar tayyorlaymiz. Ulardan 24 tasi yoki foizlarda aytadigan bo'lsak, 75 foizi so'nggi 3 yil ichida tashkil etilgan.

Keyingi yillarda universitetda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklariga mos ravishda talabalar kontingenti ham sezilari darajada oshib, 2018-yil ko'rsatkichidan 4


martaga, 2020-yil ko'rsatkichidan 2 marta ko'payishi kuzatildi.

Universitet tarkibida 9 ta fakultet, 30 ta kafedrada 479 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat olib borishadi. So'nggi 3 yilda universitetimizda fan doktori va professorlari soni 1,6 marta, fan nomzodi hamda dotsentlar 2,2 marta ortdi. Bu natijalar bizni xursand qilish barobarida, professor-o'qituvchilari-mizning o'z ustida tinimsiz ishlayotganliklarini ham ko'rsatib beradi.

- JORIY ETILGAN O'QUV DASTURIDAN TASHQARI, O'ZINGIZ HAM REKTOR SIFATIDA TA'LIM DASTURLARIGA YANGILIKLAR KIRITGANMISIZ?

– Prezidentimiz qaroriga asosan, davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qator samarali rejalar faoliyatga tadbiiq qilindi. 2022-2023 – o'quv yilidan boshlab, ayrim oliy ta'lim muassasalari moliyaviy mustaqillikka erishdi. Xususan, OTMLar o'quv rejalariga o'zgartirishlar kiritish, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, oliy ta'lim muassasalari uchun o'z grifi asosida darsliklar, o'quv yoki ilmiy adabiyotlarni yaratish hamda nashr etish kabi vakolatlariga ham ega bo'ldi. Shunga asosan, o'tgan o'quv yilidan boshlab, ta'lim dasturlarini o'zimiz tayyorladik. Shaxsan o'zim ta'lim dasturiga yangilik kiritish maqsadida universitet grifi asosida darslik yaratib, nashr ettirdim.





– KORRUPSIYA TARAQQIYOTGA ENG KATTA TO'SIQ BO'LGUVCHI ILLAT. TAN OLISH KERAK, YAQIN YILLARGACHA UNIVERSITETLARDA HAM BU "DARD"NING ZABTI BALAND EDI. OTMLARDA KORRUPSION HOLATLAR KESKIN QISQARGANI ROST. LEKIN HAR EHTIMOLGA QARSHI, SIZ RAHBARLIK QILAYOTGAN MUASSASADA BU ILLAT BILAN KURASHISH UCHUN QANDAY TIZIMLI CHORALAR AMALGA OSHIRILMOQDA?

– Universitetimizda korrupsion huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashishning “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo'limi ish boshlagan. Ushbu bo'lim tomonidan universitetda faoliyat ko'rsatib kelayotgan professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar o'rtasida doimiy ravishda umumiy profilaktik tadbirlar tashkillashtirilib, me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirib borilmoqda.

Hozirgacha “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo'limi tomonidan korrupsiyaga qarshi murosasizlik madaniyatini shakllantirish maqsadida xodimlar orasida 30 dan ortiq targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi. Professor-o'qituvchilar va xodimlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha yillik deklaratsiyalar olinmoqda va tahlil qilib borilmoqda. Shu bilan birga, korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar tahlil qilinib, ro'yxati shakllantirilib, ushbu yo'nalishlarda kor-

rupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha choratadbirlar ishlab chiqildi.

Semestr yakunlari bo'yicha universitetda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bilan jamoatchilikni jalb qilgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ikki marta (6000 nafar) talabalar orasida anonim so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalari tahlil qilinganida, hech qanday salbiy holatlar aniqlanmadi. Qolaversa, xodimlarni ishga qabul qilishda ham shaffoflikni ta'minlash maqsadida bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar shahar bandlikka ko'maklashish markaziga taqdim etiladi. Shu bilan birga, “ish.mehnat.uz” ochiq saytlarida hamda “Sirdaryo haqiqati” viloyat gazetasida e'lonlar berib boriladi.

Universitetimizda tahsil olayotgan va ishlash istagida bo'lgan talabalar uchun bo'sh ish o'rinlari to'g'risida ma'lumotlar GulDU.uz telegram kanalida yoritib boriladi.

Oliy ta'lim tizimida xususiy sektor ulushining ortib borishi sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirmoqda



- UNIVERSITETNING XALQARO HAMKORLIKLARI VA YUTUQLARIGA HAM TO'XTALIB O'TSANGIZ.

– Guliston davlat universitetida bu borada ham keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, universitet tomonidan xorijdagi yetakchi turdosh ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilyapti. Hozirgi kunda universitet 20 ta davlatning (Rossiya, Belorussiya, AQSH, Janubiy Koreya, Turkiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va MDHning boshqa bir qator davlatlari) 50 dan ortiq oliy ta'lim muassasalarining tadqiqot markazlari va tashkilotlari bilan samarali aloqalar o'rnatgan. Qolaversa, hamkorlikni rivojlantirish, material yig'ish, ilmiy masalalarini muhokama etish uchun universitetimiz professor-o'qituvchilaridan tashkil topgan delegatsiyalarimiz doimiy safarlarda bo'lishadi.



Bundan 5-6 yil oldingi nazariy bilimlar hozir eskirib qolmoqda

- SHAROITLAR YAXSHILANISHI, MODDIY-TEXNIK BAZA MUSTAHKAMLANISHI ORTIDAN BU IMKONIYATLARDAN OQILONA FOYDALANAYOTGAN YOSHLAR SAFI HAM KENGAYAYOTGAN BO'LSA KERAK. MUMKIN BO'LSA, MUVAFFAQIYATGA ERISHAYOTGAN TALABALARINGIZ HAQIDA HAM GAPIRIB BERSANGIZ.

– Yutuqlarga erishayotgan talabalarimiz talaygina. Xususan, o'tgan yili 6 nafar talaba Alisher Navoiy nomli davlat stipendiyasi, 2 nafar talaba I.Karimov nomli davlat stipendiyasi, 1 nafar talaba M.Ulug'bek nomli davlat stipendiyasi, 1 nafar talaba akademik Toshmuhammad Sarimsoqov stipendiyasi, 1 nafar talaba Prezident stipendiyasi, 1 nafar talaba Kamoliddin Behzod nomli davlat stipendiyasi sohiblari bo'lishdi. Bu yil uchun ham stipendiantlar ro'yxati shakllantirib kelinmoqda. Joriy yilda hukumatimiz tomonidan Bobur hamda Pahlavon Mahmud nomli davlat stipendiyalari ham tashkil etildi. Ushbu stipendiyalar bo'yicha ham belgilangan nizom asosida talabalar ro'yxati saralab borilmoqda.

Qolaversa, universitetimizda maktab o'quvchilari o'rtasida fan olimpiadalari o'tkazildi. G'olib bo'lgan o'quvchilar orasida o'zlarining fanlariga mos ravishda universitetimizga hujjat topshirib, talabalikka erishganlari ham bo'ldi.



2022-2023 – yillarda xorijiy oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlarining jami 10 nafar professori bevosita o'quv jarayoniga jalb etilgan. Jumladan, Rossiyaning Qozon federal universitetidan 6 nafar, Ural davlat universitetidan 2 nafar, AQSH va Malayziyadan 1 nafardan mutaxassis olib keldik. Shu o'rinda universitetimizning 10 dan ziyod professor-o'qituvchilari ham yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida malaka oshirib qaytishmoqda.

– XUSUSIY TA'LIM MASKANLARI SONI ORTIB BORMOQDA. TABIIYKI, BU DAVLAT OTMLARI VA XUSUSIY OTMLAR O'RTASIDA RAQOBATNI YUZAGA KELTIRADI. SIZ USHBU RAQOBATGA QANDAY QARAYSIZ?

– Yangi O'zbekistonda kadrlar tayyorlash masalasiga jiddiy yondashilmoqda. Bunda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, xorij tajribasiga tayangan holda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga davlat xususiy sherikchilik tizimini jalb qilish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Jumladan, oliy ta'lim tizimida xususiy sektor ulushining ortib borishi sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirmoqda. Albatta, bu ta'lim jarayonlarining rivojlanishiga ulkan sharoit yaratib beradi. Masalaning yana bir muhim jihati shuki, oliy ta'limda xususiy sektorning ortib borishi tanlov imkoniyatini ham oshiradi. Bu ham pedagoglarga qo'yiladigan talablarni, ham oliy ta'lim muassasalariga qo'yiladigan talabni kuchaytirib, pirovardida, butun boshli oliy ta'lim tizimi uchun nihoyatda manfaatli ahamiyat kasb etadi.

O'zim oliy ta'limda xususiy OTmlar sonining ko'payishi tarafdoriman, chunki bu holat o'qitish jarayonlariga chinakam innovatsiyalarni jalb qilish zaruratini to'ldirib boradi. Agarda bugun xususiy OTmlar davlat oliy ta'lim muassasalariga uchun chinakamiga raqobat paydo qilayotgan ekan, demak, bundan faqatgina ta'lim tizimi manfaat ko'radi.

– Bugungi kun talabalardan, avvalo, tezkorlikni, mobillik va kreativlikni talab qilmoqda

Rektor huzurida



– SHAXS SIFATIDA BUGUNGI DAVRGA QANDAY BAHO BERGAN BO'LARDINGIZ? YA'NI TINIMSIZ O'ZGARIB BORAYOTGAN DUNYO HAQIDA MULOHAZALARINGIZ...

– Bugun jahonda integratsiyalashuv jarayonlari shiddatli tus oldi. Globallashuv yer yuzining asosiy qismiga o'z ta'sirini o'tkazaypti va bu ta'sir kuchlari borgan sari ortib bormoqda. Albatta, bu jarayonning ijobiy jihatlari ham bor. Masalan, innovatsiyalarni, nou-xaularni joriy qilishda bu jarayonlardan unumli foydalanish mumkin. Ammo tanganing ikkinchi tarafi ham mavjud. Mana shu jadal rivojlanib borayotgan jarayonlarga tayyor turish, ularning talabiga javob bera olish ham kerak. Bu esa biz ta'lim tizimi vakillarining oldiga yangi vazifalarni belgilaydi. Sababi kadrlarni tayyorlashda mana shu tendesiyalarni ham hisobga olish shart. Bundan 5-6 yil oldingi nazariy bilimlar hozir eskirib qolmoqda.

Yana bir narsaga e'tibor qaratmoqchi edimki, tinimsiz o'zgarib borayotgan bugungi dunyoda shaxsning erkinligi turlicha talqin qilinmoqda. Bizning yurtimizda avlodlarni qadriyatlarimizga asoslangan holda tarbiyalash urfga aylangan bo'lsa, g'arb davlatlarida "individualizm" ko'rinishida boshqacharoq odatlar urfga aylangan. Afsuski, mazkur g'arbona odatlarning ta'siri bizning yoshlarda ham sezilmoqda. Sabab esa o'sha globallashuv. Bu masalalar ta'lim tizimi vakillariga yana qo'shimcha mas'uliyat yuklaydi.

Kelajakdagi marralaringiz uchun kuchni ham, bilimni ham shu davrda egallashingiz mumkin



– SUHBATIMIZ PIROVARDIDA BUGUNGI KUN TALABALARIGA NIMA DEGAN BO'LARDINGIZ?

– Bugungi kun talabalardan, avvalo, tezkorlikni, mobillik va kreativlikni talab qilmoqda. Ya'ni bu omillarga ega bo'lmasak, bizga yuklatilgan vazifalarni bajarish og'irlashib boraveradi. Yangi g'oyalar ustida ishlash kerak. Bir g'oya oldida to'xtab qolish mumkin emas.

So'zimni yakunlar ekanman, aziz talaba-farzandlarimga birgina istagim – davr bilan hamnafas bo'ling, deyman. Zamonaviy bilimlarni egallashda erinchoqlik qilmang, mutaxassislik fanlaringizni qunt bilan o'zlashtiring, xorijiy tillarni o'rganing. Siz talaba bo'ldingizmi, demak, eng muhim "start" chizig'idasiz. Kelajakdagi marralaringiz uchun kuchni ham, bilimni ham shu davrda egallashingiz mumkin. Shu sababli yana takrorlayman, ilm olishga erinchoqlik qilmang! Shiddat bilan o'zgarib, turli ko'rinishlarda namoyon bo'layotgan bugungi zamon talabalariga mos kadrlar bo'lib yetishishga harakat qiling. Ishonamanki, shunda ota-onangiz orzu qilgan, o'zingiz esa maqsad qilgan marralarni aniq zabt eta olasiz!

✦ Rektor huzurida Maqsad OBIDJON bo'ldi



TOR

DOIRANING QAYG'USI



Shahrizodabonu TOJIMATOVA, talaba:

– O'zbekiston Respublikasida davlat tilining ahamiyati va uning xalqimiz hayotidagi o'рни benihoya katta. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Ayni muvaffaqiyat xalqimizning mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgan. Bu o'z-o'zidan tilning millat taqdiridagi o'rnini belgilab beradi. Jamiyatimizda o'zbek tilining mavqeyi xususida so'z borar ekan, avvalo, kelajak haqida fikryuritishga to'g'ri keladi.

Bugun dunyo bo'ylab o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni 50 milliondan oshib ketgani ham tilimizning yirik tillar sirasiga kirishidan dalolat. Yurtimizda ham o'zbek tilining keng takomillashuviga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning o'zbek tilini yana-da rivojlantirish va takomillashtirish borasidagi qarorlari ham ona tilimizning nufuzini oshirishga davlat siyosati darajasida qaralayotganidan darak. Bularning hammasi jamiyatimizda o'zbek tilining mavqeyi yuqori ekanining isboti, menimcha.



SAVOL: O'ZBEK TILINING JAMIYATIMIZDAGI BUGUNGI MAVQEYI SIZNI QANOATLANTIRADIMI?



Sarvarbek SA'DULLAYEV, talaba:

– Fikrimcha, bugungi kunda jamiyatimizning aksar a'zolari o'zbek tilining sotsial faolligi, kelgusi taqdiri masalasida anchayin loqaydlar. Umuuman olganda, u ko'pchilik uchun shunchaki so'zlashuv vositasi xolos. Agar muayyan til kishilik jamiyatida qadriyat darajasiga ko'tarilmas ekan, uning yashovchanligi, rivojlanishi so'roq ostida qolaveradi. Bundan tashqari, til huquqiy dastakka ham muhtoj. Binobarin, til haqidagi qonunlarning qat'iy ijrosi ta'minlanishi kerak. Tilning boyitilishi ham juda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Albatta, dialektlar tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiradi, ammo bugungi globallashuv, ya'ni betinim hamda ulkan ma'lumotlar ummonida markazdan uzoqlashgan har qanday she'vaning taqdiri xavf ostida. Shunday ekan, tilshunoslar xalqimizga mohiyatni yetkazib berishi lozim. Tilimizning millat hayotidagi to'ldirib bo'lmas o'рни tushuntirilishi, tushunilishi kerak. OAVda adabiy tilda ish yuritishning tartibga solinishi juda muhim hisoblanadi. Aytishimiz kerak, odamlar orasida shundaylari ham borki, ular o'zlarini bu masalaga daxldor biladilar. Masalan, bir kuni taksida ketarkanman, suhbat asnosida o'zbek filologiyasida o'qishimdan xabar topgan haydovchi unga ba'zi joy nomlarimizning xorijiy tildagi fonetik transkripsiyasi g'aliz tuyulishini aytdi. Bu ishning tildagi kamchilik ekanligini, uni tuzatish bizning, talabalarning vazifamiz ekanligini ta'kidladilar. Bu meni xursand qildi, albatta. Muhimi, tilimizdagi kemtiklar xalqimizning ma'lum guruhlarini o'ylantirmoqda...



Kumush Odina QARSHIBOYEVA, talaba:

– Mavqeni kim, qanday baholashiga bog‘liq. Shaxsan, men o‘zbek tilining mavqeyi ancha past deb o‘ylayman. Davlat-ku tilning ahamiyatini oshirish uchun nimadir qilmoqda, lekin odamlarda o‘z ona tiliga hurmat, mehr yo‘q. Katta yoshdagilarni aytib o‘tirmayman, ularning orasida o‘zbek tilini hurmat qiladiganlar uyoqda tursin, bilmaydiganlari, chala rusiyazonlari ko‘p. O‘rta yoshlilar, tengqurlarim ham o‘z tillariga e‘tibor berishmaydi. O‘qimaganlar yoki boshqa soha vakillari-ku mayli, hatto o‘zimning kursdoshlarim, sohadoshlarim orasida sof o‘zbek tilida gapirmaydigan, yozmaydiganlari ko‘p (Men o‘zbek tili filologiyasida o‘qiyman). Og‘zaki nutqda bolalikdan shevaga o‘rgangan deylilik, lekin yozish savodxonligi ham haddan tashqari past. O‘zbek tili qoidalari, me‘yorlarini bilishmaydi, amal qilishmaydi aksari. Til qoidalari faqat ilmiy davralar uchun deb o‘ylash bilan birga, o‘z tilini hurmat qilishni baland-parvoqlik deb qarashgani alamli. Agar shu jihatlar til mavqeyini belgilasa, ming afsuski, jamiyatimizda o‘zbek tilining mavqeyi juda ham past!



Mahliyo IBROHIMOVA, talaba:

– Bugun dunyoning rivojlangan davlatlarida ham o‘zbek tili o‘rgatilayotgani hech kimga sir emas. Bu, avvalo, tilimizning xalqaro maydondagi mavqeyini belgilaydi. Bunga juda ham ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Yurtimizda ham tilimizga bo‘lgan e‘tiborning kuchaygani insonni quvontiradi, albatta. Prezidentimiz BMT minbaridan turib, 2 marta o‘zbek tilida nutq so‘zladilar. Ushbu davrga qadar bunday voqea bo‘lmagan. Vaholanki, bu tashkilotda 180 dan ortiq davlatlar bor va muzokaralar 5 tilda olib borilishi belgilangan. Shunday xalqaro minbardan turib o‘zbek tilida nutq so‘zlanishining o‘zi alohida bir voqelik. Menimcha, bugun nafaqat o‘zimizda, balki butun dunyoda ham tilimizning mavqeyi yuqorilayapti. Ehtimol, kun kelib o‘zbek tili ham xalqaro tillar singari butun dunyo miqyosida tan olinsa, so‘zlashuv tiliga aylansa, ajab emas.



Nozima ABDUJABBAROVA, talaba:

– Rivojlanib borayotgan jamiyatlarda ijtimoiy aloqalar juda muhim rol o‘ynaydi. Bu ijtimoiy jarayonda esa tilning o‘rni katta. Jumladan, har bir millatning o‘z tili bor va o‘sha til orqali o‘zini namoyon etadi. BMT minbaridan turib o‘zbek tilida nutq so‘zlanganini alohida ta‘kidlash lozim.

Chindan ham tilimizga e‘tibor qaratilyapti. Uning o‘lik tillar kabi yo‘q bo‘lib ketmasligi uchun islohotlar qilinmoqda. Misol qilib alifbomizdagi o‘zgarishlarni ham keltirish mumkin. Lekin guruch kurmaksiz bo‘lmaydi. Albatta, oramizda tilning ahamiyatini tushunib yetmaganlar va qadrsizlantirayotganlar ham topiladi. Aytaylik, do‘konlar va turli joylardagi peshlavhalarda yozilgan nomlarning ajnabiy tilda ekaniga yoki tilni buzuvchi unsurlar bilan e‘lon qilinganiga ko‘zimiz tushadi. Bu ham tilning qadrsizlanishiga va yo‘qolib

borishiga olib keladi deb o‘ylayman. Misol uchun, lotin tili kam iste‘molda bo‘lgani sababli hozirda o‘lik tilga aylangan. Jamiyatda faol bo‘lgan va ko‘p insonlar foydalanadigan tillar esa dunyoni egallamoqda. Shunday ekan, tilimizning jamiyatdagi mavqeyini belgilab berish o‘zimizning qo‘limizda.



OZOD SHUKRULLOYEV:

**“G‘OYALARIMIZ
QIYMATIDAN
YUKSALISHIMIZNI
ORZU QILAMAN...”**

**O‘zim haqimda**

Navoiy viloyati Zarafshon shahrida tug‘ilganman. Zarafshon oltin koni oldida qurilgan shahar bo‘lgani uchun asosiy aholisi “zavod”da ishlaydi. Shu sababli u yerda tabaqalanish unchalik kuchli emas. Deyarli hammaning topish-tutishi bir xil. Zarafshonda o‘ta boylarni yoki o‘ta kambag‘allarni kam uchratasiz. Shaharning yana bir o‘ziga xosligi – u yerda turli millat vakillarining istiqomat qilayotganini ko‘rishingiz mumkin. Masalan, qo‘shni, qardosh xalqlardan tashqari, Kavkaz-u Amerikadan kelganlarni ham uchratasiz. Men mana shunday shaharda tug‘ilganman va bu mening shakllanishimga ta‘sir qilgan. O‘tam muhandis, onam o‘qituvchi. Oddiy bir ziyoli oilada dunyoga kelganman.



“Mehribon” sardor bo‘lganman

Talabalik davrimni bitta suhbatga sig‘dirish qiyin. Chunki Tibbiyot institutida 11 yil tahsil olganman. O‘qiganda ham dong taratib emas, hamma kabi 4-5 baholarga o‘qigan oddiy talaba bo‘lganman. 1-kursda guruh sardori qilib saylashgan. O‘shanda dekan o‘rinbosari “Zakovat” klubi vakili Jobir Ahmedov edi. Dekanat har doim sardorlar orqali talabalarga qanaqadir topshiriqlar aytardi. Ammo men juda ham “mehribon” sardor bo‘lganim uchun bu topshiriqlarni guruhdoshlarimga yetkazmasdim, dekanatga ham ko‘p bormasdim. Olti oy o‘qiganimizdan keyin dekanatga borsam, Jobir Ahmedov “102-guruhning sardori kim?” deb so‘rab qoldi. “Men edim” desam, “Iye, senmiding, nega biror marta dekanatga kelmagansan” deb hayron qolgandi. Men shunaqa dekanatga bormaydigan, topshiriqlarni guruhdoshlariga yetkazmaydigan “mehribon” sardor bo‘lganman.

Ko‘pchilik talabalikni oltin davrga qiyoslaydi, biz ham shularning safidamiz. Chunki o‘sha davrda yaqin do‘stlaringizni topasiz, ular bilan birga turli xil qiyinchiliklarni boshdan kechirasiz. Keyinchalik hayotingizda kerak bo‘ladigan jamiyatdagi fe‘l-atvor normalari paydo bo‘ladi sizda. Shu bilan birga faoliyatingiz davomida ishlatadigan bilimlarni ham ayni o‘sha davrda olasiz. Shuning uchun talabalik, albatta, oltin davr. Qolaversa, men viloyatdan kelganman va Toshkentda o‘tayotgan talabalik men uchun hayotimdagi ajoyib hodisalardan biri bo‘lgan.

Stand Up

Birinchi bor Stand Up janrida 2015-yil chiqish qilganman. O‘shanda Rossiyada Stand Up paydo bo‘lib, rivojlanib kelayotgandi, ammo O‘zbekistonda yo‘q edi. Bir kuni Facebookda “Stan Up yo‘nalishida chiqish qilishni istaganlar uchun ochiq mikrofon” degan e‘lon ko‘rib qolib, qiziqqanman va “Ochiq mikrofon”ga kelganman. Mirshakar Fayzullayev bilan ham ilk bor o‘sha yerda tanishganman. U menga “Istasang rus tilida chiqish qilishing mumkin” degan taklifni bergan. Chunki u paytlar Toshkentda ruscha Stand Up rivojlanganroq edi. Shunday qilib ilk chiqishimni rus tilida boshlab, bir yoki bir yarim yil shu yo‘sinda davom etganman.

Muhim ahamiyat kasb etadigan, izlanish talab qiladigan sohalarini ham shunchaki telefondagi yuzaki tayyorlangan kontentlardan o‘rganmoqdamiz



Hayotimdan xursandman

Agar o'n yil avvalgi o'zimni ko'rish imkoni bo'lganida, men unga hech narsani o'rgatmasdim, hech narsani o'zgartirmasdim. Chunki hayotimdan xursandman. Uning o'tgan va o'tayotgan har bir lahzasini, daqiqasini men uchun qadrli. Shu narsani buzib qo'ymaslik uchun uning ravishiga aralashmasdim. Lekin o'sha 10 yil oldingi hayotimni uzoqdan turib kuzatishni, o'sha davrlarni qaytib ko'rishni istardim, ammo buning iloji yo'qligini bilaman-ku.



Eng katta kamchiligimiz...

Bugun biz hamma narsani telefondan o'rganayotganimiz jamiyatimizning eng katta kamchiliklaridan biri. Hatto muhim ahamiyat kasb etadigan, izlanish talab qiladigan sohalarini ham shunchaki telefondagi yuzaki tayyorlangan kontentlardan o'rganmoqdamiz. Bularning orasida oilaviy, kasbiy, hatto diniy bilimlar ham bor. Bu juda ayanchli holat. Chunki telefondagi videoni istalgan odam tayyorlashi mumkin, lekin bu odamning o'sha kontent qilinayotgan sohadagi bilimchi? Bu haqida hech kim o'ylamayapti. Nazarimda, eng katta kamchiligimiz – bilimni kitobdan emas, telefondan olayotganimiz.

Men ideal O'zbekistonni asosiy eksporti ilm bo'ladigan davlat sifatida tasavvur etaman

Biz dunyoga nima beramiz?

Menimcha, kelajak har doim ayni davrga nisbatan buyukroq bo'lib boraveradi. Ertangi kun bugungi kundan yaxshi. Men ideal O'zbekistonni asosiy eksporti ilm bo'ladigan davlat sifatida tasavvur etaman. Biz mehnat muhojirlarimiz keltiradigan daromad yoki tabiiy resurslarimizni sotish evaziga emas, fikr va g'oyalarni qiymatidan yuksalishimizni orzu qilaman. Albatta, o'zbekni o'zining kosmik stansiyalari, jahon miqyosidagi tadqiqot laboratoriyalari bor, dunyo tan olgan san'atiga ega millat sifatida ko'rishni xohlardim. Bunga erishishning eng qisqa va samarali yo'li esa bolalarimizda kichkinaligidan kitobga, ilmga nisbatan mehr uyg'otish deb o'ylayman. Bizning ellar azal-azaldan o'zining ma'rifati, kuchli bilimi bilan butun dunyoga mashhur bo'lgan. Lekin biz bu narsadan biroz yiroqlashdik. O'ylaymanki, faqatgina ilm bizni buyuk qila oladi!





Otaning o'ylari

Kelajakdagi maqsadlarimning asosiylaridan biri – o'zimdagi keyin aqlli, mehnatkash, yaxshi xulq-atvoriga ega bo'lgan farzandlar qoldirish. Chunki bizdan keyin uylarimiz, mashinalarimiz, boyliklarimiz yoki boshqa maishiy narsalarimiz bizga tegishli bo'lmay qolganda ham farzandlarimiz bizning nomimiz bilan qolishadi. Shu sababli moddiy boyliklardan ko'ra, farzandlarimni ma'naviy boyroq qilishni ko'proq istayman.

Davr tezlashgan

Talaba ukalarimga asosiy maslahatim – o'zlari uchun ma'lum bir yo'nalishni belgilab olishi kerak. Ilm hech qachon amaliyotsiz to'liq bo'lmaydi. 30 yoshga kirib shuni angladimki, ilmni qanchalik chuqur o'rgansang ham uni amalda qo'llab yurmasang, u sayozlashib boraveradi. Hozir davr tezlashgan. Bugun hech kim sizni 25-30 yoshga kirishingizni kutmaydi. Shuning uchun yoshlar talaba bo'lganidan boshlab, olgan bilimlarini amaliyotda mustahkamlab boraverishi kerak.

Kitob o'qishni yaxshi ko'raman...

Afsuski, hozir kam kitob o'qiyapman. Lekin yo'nalishimga mos adabiyotlar, deylik, tibbiyotga, komediyaga oid kitoblarni o'qishni yaxshi ko'raman. Masalan, ingliz tilida "Comic tour box", "The comedy Bible" singari kitoblarni o'qib turaman. Chunki har qaysi kasb egasi o'z yo'nalishidagi kitoblarni o'qimasa, izlanmasa, bilimlari sayozlashib boraveradi. Yoshlarga esa quyidagi kitoblarni mutolaa qilishlarini maslahat berardim:

1. Jorj Samuel Kleysonning "Vavilonlik eng boy odam" kitobi. Pul bilan muomala qilish va pul nima ekanini tushunishlari uchun.
2. Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asari. Bashariyatni anglash va hayratdan mosuvo bo'lib qolmasliklari uchun.
3. Daniyel Keyesning "Algernon uchun gullar" romani. Aql va ruhiyat o'rtasidagi muvozanatni, umuman, odamning ruhiyatini tushunishlari uchun.

Bularning ichida o'zimga eng yoqqani esa "Algernon uchun gullar" romani bo'lgan.

✍ Maqsad OBIDJON yozib oldi





TA'TILNI QULLIKDA

O'TKAZGAN YIGIT

Ming dollarlik ish

Men Buxorodagi universitetlardan birida to'lov-shartnoma asosida o'qib kelmoqdaman. Shu sababli har yili yozgi ta'tilda kontraktni to'lash uchun qurilish va shunga o'xshash ishlarda ishlayman. Bu yil ham shu maqsadda ish izlayotganimda bir tanishim menga Qozog'istonda yaxshi ish borligi, oyiga 1000 dollardan topayotganligini aytdi. Undan menga ham ish topib berishini so'radim, u ish tayyorligini, ikkilanmasdan boraverishim kerakligini aytdi.

Ertasi kuni vaqtni ko'p o'tkazmay dedim-da, yo'lga chiqdim. Toshkentdan Qozog'istonning Chimkent viloyati markazigacha taksi gaplashib bordim. Boranimda o'sha yerlik bir kishi kutib oldi.

Yo'lda ketarkanman, begona davlatligi uchunmi, hadiksirab turardim. Bu hissiyot vaqtinchalik, o'tib ketadi deb o'zimga dalda berdim. Shu alfozda kun ham kech bo'lib qoldi. Bir-birimizga hech narsa demasdan jim ketarkanmiz, to'satdan pasportimni berishimni aytdi. Sababini so'raganimda, hujjat ishlari uchun kerakligi, bundan tashqari unga 100 dollar miqdorida pul ham ketishini aytdi. Bu holat men uchun juda shubhali edi va men pasportimni berishdan bosh tortdim. U meni chaqirgan tanishimga qo'ng'iroq qilib, vaziyatni tushuntirdi va telefonni menga tutqizib, gaplash, dedi. Tanishim hech qanday muammo yo'qligini va rostdan ham hujjat tayyorlash uchun kerakligini aytdi. Bu gapdan so'ng shubhalarim tumanday tarqadi va pasportimni qo'shqo'llab topshirdim.



Kuniga 18-20 soat tinmasdik

Borgan joyimiz shahardan ancha uzoqda ekan. Ish sexda "bruschatka" quyishdan iborat.

Hamma g'alva ishga kelganimdan ikki kun o'tib boshlandi: boshliq kuniga 100 kvadrat metrni norma qilib qo'ygan, uni qilish qiyin emasdi, lekin asbob-uskunalar yetishmasligi sababli bir kunda 18 soatlab to'xtamay ishlashga to'g'ri kelardi. Ba'zan esa 20 soatlab ham ishlaganmiz. Bir oyda faqatgina 2 kun dam olishga ruxsat etilgan edi.

Matonatning sinishi

Ish juda og'ir, tinimsiz mehnat esa hammani aqlan ozdirgandi. Bu yerdagilar o'z tashvishlari-yu oilaviy yetishmovchiliklariga barham berish maqsadida hammasiga ko'nib ishlayverardi.

Ba'zilar boshliqdan qilgan mehnatiga va vaqtiga rozi ekanligi, ish haqi kerakmasligi, faqat pasportini bersa yetarliligini so'rashardi. Ular bu yerdan qutilish uchun hamma narsaga rozi edi. Ammo boshliq pinagini ham buzmasdi.

Bir namozxon akamiz bor edi. U hamma narsadan hallollikni ustun qo'yar edi. Insoniy qadr-qimmatning yo'qligi, ishdagi qiyinchiliklar tufayli har kuni ichadigan alkash bo'lib qoldi. Men u kishini iymoni sustlikda ayblamoqchiman, bu yerdagi vaziyat har qanday odamni tushkunlikka tushirib qo'yardi.

**Ichimga qo'rquv oraladi,
nima qilib bo'lsa ham bu
yerdan qutilib chiqib
ketish yo'llarini izlay
boshladim**





Korrupsioner migratsiya agentligi

Bir kuni biz ishlaydigan joyga migratsiya agentligidan bir guruh odamlar kelib, qayerdan ekanligimizni va hujjatlarimizni so'rashdi. Hujjatlarimiz sex boshlig'idaligini aytganimizda, bizga qarab "senlar qulmisanlar" deyishdi. Biz bu savolni eshitib bir-birimizga angraygancha qoldik. So'ng yollanma ishchi bo'lib kelganimizni aytdik. Ularning javobi shunday bo'ldi: "Hujjatlaring o'zinglarda emasmi, demak, senlar qulsanlar!".

Kelganlar migratsiya agentligidan ekanligini bilib, ichimda qandaydir xursandchilik uyg'ondi. Endi bizning hujjatlarimizni olib, bu yerdan ketishimizga yordam beradi deb o'yladim va bu o'y menga biroz bo'lsa-da taskin berardi. Biroq xo'jayin kelganidan keyin vaziyat men kutgandan boshqa tarafga o'zgarib ketdi.

Ular boshliq bilan gaplashib bo'lgach, go'yo hammasi risoladagidek indamay chiqib ketishdi. Hammaning umidi bir lahzada "bruschatka" qorishmasiga qorildi, hammasi tamom degan kabi.

Bu o'zbeklar nega buncha ko'p ovqat yeydi?

Yeyish-ichishning tayini yo'q. Har kunlik ovqatimiz o't-o'lan va makarondan iborat. Va shu ham juda minnatli bo'lardi. "Sen, o'zbeklar, muncha ko'p ovqat yeysanlar, ishlashga kelding, itday ishla-da endi, otangning uyida emassan-ku", deb aytishlari jondan o'tib ketardi.

O'qish boshlanyapti, ketish kerak

Sentabr oyi ham yaqinlashib qoldi, aka, ketmoqchiman, pasportimni bering, yaqinda o'qishlarim boshlanadi, desam, hujjatlarini to'g'rilashimga senga bergan pullarimni qaytarishing uchun sentabr oyi ham ishlab berishing kerak, deb aytdi.

Ichimga qo'rquv oraladi, nima qilib bo'lsa ham bu yerdan qutilib chiqib ketish yo'llarini izlay boshladim. Shunda xayolimga abituriyentlik vaqtimdagi bir tanishim keldi, u o'zimizdagi OTMlarga o'qishga kirolmay, Qozog'istondagi qaysidir universitetga hujjat topshirib, o'qigan edi. Uni ijtimoiy tarmoqlar orqali topib, muammoni tushuntirdim va yordam so'radim. Uning bir do'sti borligi va iloji boricha yordam berishini aytdi.


Ko'p o'tmasdan do'stim aytgan odam menga qo'ng'iroq qildi va manzilni so'radi. U ertasi kuni yetib kelib, boshliqdan hujjatlarni berishini talab qildi.

Xayrlashuv

Mashina qo'zg'aldi. Nihoyat uyga ketyapman. Ich-ichimda shu qadar xursand edimki, hamma qiyinchiliklar ortda qolayotganidan o'zimni qo'yarga joy topolmasdim. Lekin ko'nglimda bir g'ashlik uyg'ondi. Men bilan birga ishlagan insonlarni tashlab ketish... qaniydi ularni ham olib ketishning iloji bo'lganida. Lekin imkonsiz edi.

Qalbimda sevinch va g'ashlik qorishgan holda uyga qaytarkanman, ular haqida o'ylayman. Qutildimikan?

✍ Voqea qahramoni tilidan yozib olindi



STUDENT MOTIVATION: WHY IT MATTERS AND HOW TO KEEP STUDENTS MOTIVATED?





In today's competitive world, it is more important than ever for students to be motivated to succeed in their studies. However, a growing trend is emerging of students losing their motivation after entering higher education institutions. This is evident in the high dropout rates and the increasing number of students failing to complete their coursework on time.

The transition from high school to higher education can be a challenging one, and many students find their motivation to study decline. There are a number of factors that can contribute to this, including:

Increased workload and difficulty of coursework: Higher education courses are typically more challenging and time-consuming than high school courses. This can be overwhelming for some students, and it can lead to demotivation. In Uzbekistan, the teaching systems in higher education institutions and schools are also extremely different, which can add to the challenge for students.

When students study in fields that they are not interested in, they are more likely to become unmotivated and underperform

Personal problems: Many students have to deal with personal problems such as financial difficulties, mental health problems, and personal life relationship problems when they become students of universities and institutes far from their homes. These problems can make it difficult to keep students focused on their studies.

Lack of support: Students in Uzbekistan often feel that they do not have the support they need from their universities and institutes. Student unions are limited to organizing events, and students often have to deal with a number of problems on their own, such as getting their degrees on time and finding housing. The abolition of the position of group leaders and their replacement with tutors who are not specialized in legal and social support has also left students feeling unsupported.

What are the consequences of Declining Student Motivation? Students who are not motivated to succeed are less likely to succeed in their studies. Unmotivated students are less likely to learn and retain information. They may not put in the effort to study effectively or to complete their assignments. This can lead to lower grades and academic failure.

In addition to the negative academic consequences, declining student motivation can also have a negative impact on students' mental and emotional well-being. Students who are not motivated may feel discouraged, frustrated, and anxious. They may also withdraw from their peers and social activities.

Declining student motivation is not just a problem for individual students. It is also a problem for society as a whole. A well-educated workforce is essential for economic growth and prosperity. When students do not succeed in school, they are less likely to be employed and to contribute to the economy.

How to Keep Students Motivated? There are a number of things that can be done to keep students motivated.

First, it is important to encourage students to study in fields that they are passionate about. Students who are interested in their studies are more likely to be motivated to succeed. When students study in fields that they are not interested in, they are more likely to become unmotivated and underperform.

Second, universities can help students to stay motivated by creating a positive and supportive learning environment. This includes providing students with opportunities to explore their interests and to develop their talents. Universities can also create student groups and clubs where students can connect with others who share their interests.

Third, universities should reduce the administrative burden on students. This means reducing the amount of paperwork and bureaucracy that students have to deal with. Universities should also focus on assessing student learning in meaningful ways, rather than simply requiring students to complete a large number of assignments. When students feel like they are in control of their learning and that they are making progress, they are more likely to stay motivated.

In conclusion, student motivation is essential for academic success. Students who are motivated to learn are more likely to succeed in their studies and to go on to have successful careers. As Stephen Hawking once said, “The greatest enemy of knowledge is not ignorance, it is the illusion of knowledge.” Students who are eager to acquire knowledge and experience are more likely to be successful in their studies and in their careers. It is important to remember that student motivation is not a fixed trait. It can be influenced by a number of factors, including the learning environment, the teacher’s attitude, and the student’s own personal circumstances. By understanding the factors that contribute to student motivation, we can create strategies to help students stay motivated and succeed in their studies. I would also add that it is important to celebrate student success. When students feel that their hard work is appreciated, they are more likely to stay motivated and to continue to learn.

✍ Sanjar SHOMURODOV prepared



“The greatest enemy of knowledge is not ignorance, it is the illusion of knowledge”

LOQAYDLIKDAN ASRAGAN

KUCH

6 xalqaro universitet talabasiga aylangan vunderkind o'quvchi hikoyasi

Ismim Dilshoda. Hali maktab o'quvchisi bo'lsam-da, muddatidan avval 6 ta xalqaro universitet talabasiga aylandim. Hozirgacha 1 marta xalqaro va 5 marotaba respublika olimpiadalari g'olibasiman. Sizlarga mana shu muvafaqqiyatlarimgacha (agar muvafaqqiyat deb bo'lsa) bosib o'tgan yo'lim haqida biroz hikoya qilib bermoqchiman.

2006-yilda Farg'ona viloyati Beshariq tumanida tug'ilganman. Oilada to'rt qizimiz. Men uchinchisiman. Otam tumani-mizdagi 18-BMSMda bino nazoratchisi bo'lib ishlaydilar. Onam uy bekasi. Oddiy oilada tug'ilganimga qaramasdan otam onam hech kimdan kam qilmay ulg'aytirishdi. O'qishim, bilim olishim uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga qo'llaridan kelganicha harakat qilishdi.

Atrofimdagilar bolalik paytlarimdayoq tengdoshlarimdan zukkoroq bo'lganim haqida ko'p aytishadi. Albatta, buning ham o'z sababi bor. Opamlar o'zlarining o'qishlaridan bo'sh bo'lgan vaqtida menga dastlabki bilimlarni o'rgatishardi. Shu tufayli ham besh yoshga yetmay o'qish va yozishni to'liq o'rganib bo'lgan edim. Keyinchalik yoshim yetgach tumanimizdagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilindim. Bilim olishga qiziqishim ham aynan shu davrdan boshlangan...

Malumki, o'sha paytlar bizdan katta aka-opalarimizga ingliz tili 5-sinf dan o'rgatilardi. Bizga esa bu fan birinchi sinfdanoq o'tila boshlagan. Ingliz tilini o'rganishga qaratilgan e'tibor kuchayotgan yillari bo'lgani uchun biz yangi darsliklar, adabiyotlar, alohida monitor va kompyuterlar bilan jihozlangan xonalarda ta'lim olganmiz. O'sha paytdagi ingliz tili ustozim Zulayho Toshtemirova ham kasbini sevgan edi va bizga darslarni o'zgacha ishtiyoq bilan o'tganlar. Ustozim uyida o'quvchilarga repititorlik ham qilardi. Lekin qiziqishlarimni ko'rib, meni to'lovsiz tarzda o'qitishni boshlaganlar. Keyinchalik Zulayho opa bilan ko'p bor "Bilimlar bellashuvi" musobaqalarida, olimipadalarda faxrli o'rinlarni egalladik. Ingliz tilini o'rganishimda, kitobga muhabbat qo'yishimda ularning roli katta bo'lgan.

OTA-ONAM "PERASHKA" SOTIB BO'LSA HAM O'QISHIM UCHUN KERAKLI KITOBLARNI OLIB BERISHGAN



Dadam bizga, "Men o'qimadim, sizlar o'qishingiz shart", degan gapni ko'p aytardilar. Esimni taniganimdan buyon onam erta tongda turib, "perashka" pishiradilar, otam esa velosipedda yurib, uni sotib keladilar. Bizni shu yo'sinda halol ter to'kib, hech kimdan kam qilmasdan, zoriqtirmay voyaga yetkazishdi. Ular men va opalarimning o'qishiga hech qachon qarshilik qilishmagan. Aksincha, har doim bizni qo'llab-quvvatlaganlar. Onam hattoki, "Sen hali o'qib, yaxshi natijalarga erishishing kerak", deb uy ishlaridan ham ozod qilib qo'yardilar. Ota-onam "perashka" sotib bo'lsa ham o'qishim uchun kerakli kitoblarni olib berishgan. Ularning zahmatlarini loqayd bo'lib qolishdan asragan kuch deb bilaman. Demak, bu yutuqlar mendan ham avval ularnikidir.

Bo'sh vaqtimda badiiy kitoblar o'qishni yaxshi ko'raman. Kitob javonim kitoblar bilan to'la. To'g'risi, ularning hammasini o'qib ulguranimcha yo'q, ammo o'qiganim sari ishtiyoqim ortib bormoqda. O'qiganlarim orasida Sohibjon Hotamovning "Men, onam va qishloq", Malika Mirzo qizining "Umid manzaralari", Jo'ra Fozilning "Oshiq Buxoriy" qissasi, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon"i va Erkin Vohidovning "Kuz saxovati" kitoblari menda yaxshi taassurot qoldirdi.

Menimcha, yaxshi kelajakka olib boruvchi eng tog'ri yo'l ham, yaxshi tarix qoldirish uchun eng tog'ri vosita ham – ilm! Navoiy hazratlari ta'kidlaganidek, "jahondin notamom o'tmak, erur hammomdin nopok chiqmak". Insoniyat fitratidan buyuk ishlar uchun yaratilgan. Dunyodan shunchaki yashab o'tish esa bemaqsad kelib ketmoqdir. Tengdoshlarimga ham ilm yo'lida sobit va tirishqoq bo'lishlarini aytgan bo'ldim. Chunki ilm – yagona najot!

Dilshoda O'KTAMOVA



GIGANT ODAMLARNING “IZ” LARI



Ko'lna ertak va afsonalarda bizdan ko'ra ancha yirik va baland bo'lyli, shafqatsiz jangchi, odamxo'rlar qiyofasidagi bahaybat erkak va ayollar haqida so'z yuritiladi. Ular tog' yoki o'rmonlarda yashovchi maxluqlar sifatida tasvirlangan. Bu ulkan odamlar haqida nafaqat ertaklarda, balki, qadimiy bitiklar va diniy kitoblarda ham keltirib o'tiladi. Masalan, Qadimgi Gretsiya tarixida Gerakl, David, Galiax singari ulkan qahramonlar gavdalandirilgan.

Qiziq, bu ma'lumotlar haqiqatga qanchalar yaqin? Keling, avvalo, farazlarni asliyatdan farqlab olish uchun g'ayrioddiy yirik odamlar mavjudligini tasdiqlovchi hayotiy dalillar bor yoki yo'qligi hamda mazkur yo'nalishda jiddiy tadqiqotlar o'tkazish mumkinligi masalasini ko'rib chiqsak. Gigant odamlar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar bronza davrida hukm surgan shumer madaniyati yodgorliklarida ifodalangan. O'yib ishlangan haykalchalarga qaraganda, shumerlar ulkan odamlarni bemisl jismoniy va aqliy qudratga ega o'z shohlari va xudolari sifatida bilishgan. Vavilon solnomalariga ko'ra, bu shohlar quyosh tizimi haqida chuqur bilim sohibi bo'lganlar. Aynan shu jihatlar bizni bahaybat insonlarning mavjudligi bilan bog'liq savollarning javobi tomon yo'naltiradi.



Qadimiy odamlar bahaybat mavjudotlarni ilohiylashtirgan holda, ularni ulkan toshqindan keyin qayiq va kemalarda quruqlikkacha yetib kelishgan, deb hisoblaydilar. Olimlar fikricha ham ilk odamlar bahaybat bo'lishgan. Sababi ulkan toshqinga qadar yer atmosferasi aynan shunday – bir qadar yirik va uzoq umr ko'ruvchi jonzo'tlar yashashi uchun mos edi. Olim doktor Karl BOB va uning jamoasi o'sha davr atmosferasi va ozon qatlamini yaratish ustida biosferik tadqiqot o'tkazdilar va ular sinab ko'rgan baliq turlari bu muhitda odatdagidan juda katta bo'lib yetildi. Tajriba qadimgi odamlarning bo'ylari baland bo'lganini tasdiqlaydi. Shunday qilib, garchi olimlar yerda odamlar qachon paydo bo'lgani haqida qat'iy bir to'xtamga kelmagan bo'lishsa-da, harqalay ular yirik gavdali bo'lgani xususidagi qarashlar yashashga haqli.

Gigantlar Bibliyada ham qayd etib o'tilgan bo'lib, bu borada yahudiy tarixchi Iosif Flaviyaning mehnatlari alohida diqqatga sazovor. Flaviya uchta asarida bahaybatlar nasli to'g'risida aytib o'tadi. Bibliyaga qaraganda bu mehnatlar ularning mavjudligi masalasida eng ishonarli dalillardir. Mazkur kitoblarda ulkan odamlarning real hayotdagi shaxslar

1970-yilda Ruminiyada uzunligi 5 metr bo'lgan odam qoldiqlari topilishi katta shovshuv keltirib chiqaradi



bilan to'qnashuvi keltirilgan. Flaviya isroilliklarning Xervonga joylashuvi haqida yozar ekan, yahudiylarning tub aholi bilan to'qnashuvi hamda ular esa boshqalarga nisbatan butunlay boshqacha ko'rinishda – uzun bo'lyi, yirik gavdali, qisqa qilib aytganda, qo'rqinchli, dahshatli bo'lganini keltirib o'tadi.


Bugungi kunda ko'plab arxeologlar yer yuzidagi megaetik xarobalar, ya'ni toshdan tiklangan inshootlarga doir sirlarni o'rganishmoqda. Odamlarda bir necha yuz tonnali xarsanglardan tarkib topgan bunday ulkan binolarni qurishga qanday ehtiyoj bor edi? Javoblar oddiy: ular biz bilmagan qandaydir texnologiyalarni o'zlashtirishgan yoki shunchalar bahaybat va kuchli bo'lishganki, katta toshlardan binolar barpo etish ularga qiyinchilik tug'dirmagan. Peruda Inklar davriga oid Saksayoma tosh xarobalari mavjud. Inshootning qurilishida ishlatilgan xarsanglarning vazni 200 tonna atrofida bo'lib, ular bir-birining ustiga shunchalar aniqlik va mohirlik bilan qalangan-ki, qurilma ko'z o'ngingizda xuddi toshli ulkan boshqotirma kabi gavdalanadi. Bino qurilishi kuchli, bahaybat odamlar



tomonidan amalga oshirilganini esa tasavvur qilish qiyin emas. Hatto hozir oradan minglab yillar o'tsa-da, zamona olimlari, muhandislari bir savolga aniq va lo'nda javob bera olmayaptilar: Qadimgi odamzot qanday qilib yer yuzi bo'ylab bunday ulkan tosh yodgorliklarni bunyod qilgan?


Arxeologlar bahaybat odamlarning suyak qoldiqlari yoki faqatgina ular foydalanishi mumkin bo'lgan og'ir, katta qurol-yarog' yoxud boshqa jihozlar topishgani haqida turli xabar va ma'lumotlar ham bor.

Stoun Xench ham gigantlar tomonidan barpo etilgani taxmin qilinadi. Chunki undagi toshlarni ko'tarish va harakatlantirish odatiy bo'y va jismoniy kuchga ega odamlar uchun og'irlik qilishi turgan gap. So'z qadimgi odamlarda mavjud bo'lmagan maxsus ko'tarma kranlar yoki ana shunday og'ir texnikalar yordamidagina qurilishi mumkin bo'lgan inshootlar haqida borar ekan, bu singari misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. To'g'ri, biz Stoun Xench qanday qurilganini bilmaymiz. Lekin, bu borada yetarli bilimga ega emasligimiz, ularni aynan gigantlar tiklagan bo'lishi mumkinligini inkor qilmaydi. 1891-yilda Arizonada yangi bino poydevoriga chuqur qaziyotgan ishchilar ichida uch metrlik skelet bo'lgan tosh tobutga duch kelishadi. Shuningdek, 1883-yilda Kaliforniyada xandaq kovlayotgan askarlar yuqori va pastki jag'larida ikki qator tishi bo'lgan 3 metrlik skeletga ro'para kelganlar. Ulkan suyaklar boshqa mamlakatlarda



ham topilgan. Masalan, yaqin tarixda – 1970-yilda Ruminiyada uzunligi 5 metr bo'lgan odam qoldiqlari topilishi katta shov-shuv keltirib chiqaradi. Topilmaning birgina oyoq suyagi ikki metr bo'lgan. Bular tadqiqotchilar aniqlagan bahaybat odamlarning izlariga taalluqli bir necha misollar, xolos. Lekin, ularning aksariyati juda qadimiy bo'lganligi bois o'rnidan qo'zg'atilishi bilan uvalanib ketgan, kulga aylangan. Xuddi shunday gigantlarning 2 metrdan 4 metrgacha uzunlikdagi mumiyolangan qoldiqlari ham topilgan. Mazkur yo'nalishdagi arxeologik qazishmalar asosan XIX asrda amalga oshirilgan. Bundan tashqari, tadqiqotchi Stiven Koelning ta'kidlashicha, ulkan skeletlar mavjud yerosti inshootlari butun Janubiy Amerika, yaqin Sharq va AQSHning shimoliy g'arbida topilgan.

Kutilmaganda toshqinlar yoki boshqa bahonalar ko'rsatilib, izlanishlar to'xtatib qo'yilgan



Rost, yirik hajmli ko'plab topilmalar muzeylarga qo'yilgan, lekin afsuski, ularning katta qismi to'g'risidagi ma'lumotlar afsona va to'qimalardan iborat. Ayrimlarining haqiqiylikini tekshirish esa imkonsiz.

Ko'plab tadqiqotchilar qidiruv ishlariga hukumatlarning aralashuvi sabab aniq dalillar yo'qolganini ta'kidlashadi. Ular tomonidan kutilmaganda toshqinlar yoki boshqa bahonalar ko'rsatilib, izlanishlar to'xtatib qo'yilgan. Bahaybat odamlarning qirilib ketishi masalasida uyushtirilgan bunday tadqiqotlar to'g'risidagi ma'lumotlar tahliliga qaralganda, doimo rasmiy idoralar aralashgandan so'ng topilgan suyak va skeletlar sirli tarzda g'oyib bo'lavergan.

Qanday bo'lmasin, gigantlar mavjudligi haqidagi savollar hamon javobsiz qolmoqda va ko'plab sirlar yashirib kelinyapti. Bizda esa qaddi-qomati, jismoniy quvvati hozirgilardan butunlay farq qiladigan odamlar bo'lgan yoki bo'lmagani haqida faqat taxmin qilish imkoniyati bor, xolos. Eshitganlarimiz go'zal afsona yoxud fantastik xayollarmi? Qadimiy bitiklardagi yozuvlarga va bahaybat odamlar qoldiqlari topilgan qazishma ishlarining real guvohlari aytgan hikoyalarga ishonsa bo'ladi-mi?

Balki, qachondir olimlar gigantlar mavjudligi haqida shov-shuvli kashfiyotlar qilishar yoki bu farazlarni butunlay inkor etishar! Bizning esa hozircha kutish va taxmin qilishdan boshqa ilojimiz yo'q!

✍ Muhiddin JABBOROV tayyorladi

SETORA
LATIPOVA:

“ILM MUSHKULNI
OSONLASHTIRADI...”



O'zim haqimda

Men Setora Latipova – 2004-yil 1-aprel kuni Andijon tumanida ziyoli oilada tavallud topganman. AQSHning Arizona universitetida iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha bakalavr bosqichida va kichik mutaxassislik sifatida xalqaro biznes, sport boshqaruvi hamda arab tili yo'nalishlarida tahsil olmoqdaman. Xorijiy tillarni o'rganish mening xobbim. O'zbek, ingliz, rus, arab tillarida erkin suhbatlasha olaman va hozirda ispan tilini mukammal o'rganmoqdaman.

Otam – tadbirkor va mening ilmga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lib ulg'ayishimda, aynan, u insonning o'rnini juda ham katta hisoblanadi. Bizning mentalitetimizda aksariyat otalar qizlarining chet elda tahsil olishlariga qarshilik bildiradilar. Mening dadajonim esa dunyoning eng nufuzli universitetlarida tahsil olishimni xohlaganlar va buning uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berganlar.

Onam – uy bekasi. Ular mening bolaligimdan kitob o'qishga bo'lgan muhabbatim oshishiga sababchi bo'lganlar.

Bola kezarimdan ota-onam tomonidan ham dunyoviy, ham diniy bilimlar o'rgatib borilgan. Shuningdek, ko'plab xorijiy tillarni o'zlashtirishimga ham aynan oilamdagi muhit sabab bo'lgan. Maktabda yuqori sinfga o'tishim bilanoq xorijiy tillardan "Bilimlar bellashuvi", fan olimpiadalari hamda xalqaro olimpiadalarda yetti yil mobaynida faxrli birinchi va ikkinchi o'rinlarni egallab kelganman.



Doim eng ezgu maqsadim – insonlarga yaxshilik qilish, oz bo'lsa-da ularning mushkullarini yengillashtirish bo'lgan. Ulg'ayar ekanman, kelajak uchun qilgan rejalarim, aynan, mana shu yoshlikda shakllangan orzum bilan kesisha boshladi. 8-sinfga o'tgach, men o'zimni kelajakda ijtimoiy fanlar yo'nalishida ko'ra olishimni anglab yetdim va oldimga aniq maqsadlar qo'ydim. Iqtisodiyot va biznes yo'nalishida chet elning eng nufuzli universitetlarida tahsil olib, yaxshi bilim, ko'nikmalarga ega bo'lgandan so'ng, O'zbekiston rivoji uchun, xalqimizning bundan-da yaxshi hayot kechirishi uchun hissamni qo'shishga astoydil harakat qila boshladim.



“El-yurt umidi”

Xorijiy universitetlarga hujjat topshirish va qabul qilishgacha bo'lgan jarayonlar O'zbekistonnikidan tubdan farq qiladi. Bu jarayonlar puxta tayyorgarlik va bir qancha bosqichlardan o'tishni talab etadi. Men ham 10-sinfda o'qib yurgan kezlrimdan boshlab ushbu jarayon ichiga tushganman va maktabni bitirgunimcha Malayziya, Buyuk Britaniya hamda AQSHning bir nechta nufuzli OTMLaridan qiymati 300 ming dollarga teng grantlar yutib olganman. Ushbu jarayonlar 2021-yil dunyo hali ham COVID-19 pandemiyasi bilan kurashayotgan davrga to'g'ri kelgani uchun yuqoridagi biron davlatning O'zbekistondagi elchixonasi yoki vakolatxonasi faoliyat olib bormayotgan edi. Hattoki, qachon faoliyatini davom ettirish haqida ham xabarlar yo'q edi.



Bir tarafdin epidemialogik qiyin holat, ikkinchi tomondan esa kelajagim haqida o'y-fikrlar xuddiki, tumandek noma'lum bo'lib qolgan bir vaqtda “El-yurt umidi” jamg'armasi oy bo'lib porlab chiqdi. Aniq esimda, 2021-yil 19-iyul sanasi doimgidek “Qachon... Qachon elchixonona fuqarolarning arizalarini qabul qilishni boshlaydi, qachon men vizamni tasdiqlataman-u, rasman talaba bo'laman” degan savollar bilan elchixonadan beri kelmasdim. Shu payt internetda “El-yurt umidi” jamg'armasi 2021-yildagi 3-ochiq stipendiya tanlovlari uchun 20-iyuldan 20-avgustga qadar arizalar qabulini boshlaydi, tanlovda g'olib bo'lgan stipendiantlarning xorijdagi ta'limi to'liq moliyalashtiriladi” degan xabarga ko'zim tushdi. To'g'risi, “El-yurt umidi” jamg'armasi haqida chuqurroq ma'lumotga ega emas edim, lekin aniq bildimki, bu imkoniyat aynan men uchun edi.

**Bunda bir
necha minglab
o'quvchilar
orasidan atigi
to'rt nafari
ikki bosqichda
saralanib
olindi**



Amallar niyatlarga bog'liq

Amallar niyatlarga bog'liqdir. Astoydil harakat qilib, bor potentsialimni ishga soldim va ikki bosqichda bo'lib o'tgan tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etdim. Shu bilan 2021-yil 2-oktabr sanasida rasman "El-yurt umidi" stipendianti maqomiga sazovor bo'ldim. 2022-yilning 6-yanvarida esa AQSHning Arizona universitetiga orzumdagil bilim va tajribalarni qo'lga kiritish, katta-katta yutuqlarga erishish uchun jo'nab ketdim.

Amerikaga kelgach, menda hech qanday o'zga madaniyatga ko'nikmaslik yoki biron narsadan ajablanish holatlari kuzatilmadi. Buning sababi esa men ushbu hayotga o'zimni bir necha yillar mobaynida tayyorlaganim deb bilaman. Ammo akademik tarafdin gapiradigan bo'lsak, men uchun hayratlanarli jarayonlar talaygina edi. Bu haqida quyida batafsilroq aytib o'tmoqchiman.

Amerika taassurotlari va ta'lim

AQSH universitetlarida mutaxassislik darajangizni olguningizga qadar bo'lgan davrda o'rganishingiz talab qilingan fanlar o'qishni boshlashingiz bilan oq shakllantiriladi. Odatda 1 o'quv semestri uchun 4 yoki 5 fan olishingizga to'g'ri keladi. Bu o'rganayotgan fanlarinigizning sanog'ini emas, sifatini oshirib, o'z yo'nalishingiz bo'yicha kuchli mutaxassis bo'lishingizni ta'minlashda yordam beradi.

Bu yerda talabanning o'qish jarayoni odilona baholanadi. Shundanmi, bahongiz harakatlaringizning aniq tasviri hisoblanadi. O'zingizga nisbatan qanchalik talabchan bo'lib, fanlarni chuqur o'zlashtirsangiz, shuncha yuqori ball olasiz. Ana shu faningizdan universitetda muvaffaqiyatga erishasiz. Baholash tizimiga professorlar juda ham jiddiy qaraydilar. Agar ma'lum fandan bahongiz keyingi bosqichga o'tish uchun yetarli bo'lmasa, uni yana qayta o'qib chiqishga to'g'ri keladi. Umuman olganda, fanni puxta o'rganmaguncha keyingi bosqichga o'tish yo'q!

Talaba o'zining nazariy bilimlarini amaliyotda ko'rsata olishi kerak. Amerika universitetlarining eng oldi talablaridan biri, ya'ni bilimlaringiz faqatgina nazariy teoriya bo'libgina qolmasdan, uni amaliyotda qo'llanishi hisoblanadi. Shuning uchun AQSHda universitet talabalariga uchun amaliyot jarayonlarida ko'plab imkoniyatlar bor, xususan, dunyoning eng nufuzli kompaniyalari joylashgan – Wall Street deymizmi yoki Jahon Banki ham ayni shu mamlakatda. Agar imkoniyatingiz yetsa, bu yerlarda yozgi ta'vil mobaynida ham ishlab, ham bilim olishingiz mumkin!

Erishgan yutuqlarim

Hozirda bakalavr yo'nalishida ikkinchi bosqichni tamomlash arafasida turibman. Talabalik davrim birinchi bosqichining ilk semestri yangi hayot va o'qish tizimiga moslashish, professorlarimga o'zimning yaxshi tomonlarimni tanitish bilan o'tgan bo'lsa, yutuqlarim ketma-ketligi birinchi bosqichning ikkinchi semestrndan boshlandi.

Universitetimizdagi men tahsil olayotgan Biznes maktabi AQSHdagi eng kuchli TOP darajada hisoblanadi. Talablar ham shunga yarasha. "Management Information Systems", ya'ni Axborot tizimlari boshqaruvi fanidan birinchi bosqichning dastlabki semestrini muvaffaqiyatli tamomlab, eng a'lochi o'quvchilar qatoridan joy olgan bo'lsam, ikkinch semestrndan esa aynan mana shu fandan

professor assistenti sifatida ishladim. AQSHning ko'zga ko'ringan professorlari bilan birga ishlab, ancha tajriba orttirdim. 4 oy davom etgan ushbu jarayonni ham muvaffaqiyatli tamomlab, o'zim assistent sifatida ishlab bergan professorlarning diqqati va e'tirofiga sazovor bo'ldim. Ular tomonidan – dunyoning birinchi raqamli brendi hisoblangan "Nike" kompaniyasida ish faoliyatini yaqindan o'rganish jarayoniga yo'llanmani qo'lga kiritdim.

Bunda bir necha minglab o'quvchilar orasidan atigi to'rt nafari ikki bosqichda saralanib olindi. Birinchi bosqichda applikatsiya va insho talab etilgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda esa "Nike" kompaniyasi vakillari bilan onlayn intervyu bo'ldi.

Saralab olingan 4 o'quvchi ichidan faqatgina men kompaniyaning Oregon shtatida joylashgan markaziy shtab-kvartirasiga borib amaliyot o'tashga muvaffaq bo'ldim.

Harvard universitetidagi ishtirokim keyingi bosqichga munosib deb topildi

PWC





etildim. Bundan tashqari, Jahon Savdo Tashkilotining ijrochi direktori Ngozi Okonjo-Iveala ishtirokida tashkil etilgan ochiq suhbatda faol ishtirok etdim va ekologiyaga zarar yetkazmagan holda qanday qilib davlatlararo savdo-sanoatni barqarorlashtirish mavzusida o'zimni qiziqtirgan savollarga javob oldim. Jahon miqyosida qatnashchilar kelgan ushbu tadbirga 600 dan ortiq yirik biznes egalari va oliy martabadagi iqtisodchilar, siyosatchilar, xususan, Birlashgan Qirollikning sobiq Bosh vaziri va hozirda BMTning Global ta'lim bo'yicha maxsus vakili Gordon Braun tashrif buyurgandi.

Qolaversa, Harvard universitetidagi ishtirokim keyingi bosqichga munosib deb topildi va 2024-yil fevral oyida islom moliyasi mavzusida Qatar davlatining poytaxti Doxa shahrida bo'lib o'tadigan navbatdagi konferensiyada ishtirok etish uchun yo'llanma oldim.

O'tgan bahor faslida universitetimdagi bir necha talabalar bilan birga Ispaniya Qirolligining Barse-lona shahrida 1-semestr uchun bo'lib o'tadigan talabalar almashinuv dasturini qo'lga kiritdim va hozirda ushbu davlatda tahsil olmoqdaman.

✦ (Ispaniyadan "O'zbekiston talabasi" uchun maxsus)

"Nike" kompaniyasidagi ish o'rganish jarayoni tugaganidan bir yarim oy o'tib esa Biznes maktabimizdagi professorlar hamda 11 nafar saralangan talabalar bilan birga bahorgi ta'til jarayonida Texas shtatining Dallas shahrida joylashgan har xil ixtisosliklarga asoslangan TOP kompaniyalarga borib, amaliyot o'tadim. Ushbu amaliyotning ham katta qismi (aviabiletdan tashqari) o'quv muassasamiz tomonidan moliyalashtirildi.


Navbatdagi yutug'im esa avvalroq e'tirof etgan yutuqlarimdan anchagina jiddiy mehnatni talab etdi. Islom moliyasi mavzusiga bag'ishlangan taqdimotim bilan shu yilning 25-27-iyul kunlari dunyoning eng nufuzli Harvard universitetida bo'lib o'tgan Xalqaro iqtisodiyot, biznes, boshqaruv va moliya konferensiyasida universitetim nomidan ishtirok etdim. Ushbu konferensiyadagi muvaffaqiyatli ishtirokim uchun universitetim tomonidan moliyalashtirilgan Shveysariyaning poytaxti Jeneva shahrida joylashgan Jahon Savdo Tashkilotining butundunyo shtab-kvartirasida bo'lib o'tadigan "WTO Public Forum – 2023" da qatnashishga tavsiya



TOG' BOSHIGA QOR TUSHIBDI, QOR...

ESSE





O'zbekistondagi eng baland cho'qqi – Hazrati Sulton Boysun tog'larida barqarordir. Shu tog'larda, shu ulug' tog'lar adog'ida yashab-yashnab yotgan el-u xalqning jamiki orzu-armonlariga timsol bo'lgudek bir ne'mat bor. Bu – mo'miyo! Mo'miyo tog'ning odam oyog'i, qush qanoti yetmas joylarida silqib, ko'zyoshdek tomchilab, yig'ilib qora mumdek sizib paydo bo'ladi. Unga kiyik bora oladi faqat. Yarador kiyik shu giyohdan yeb tuzalib ketadi. Burgutlar mo'miyodan cho'qib-cho'qib yeydi, taniga quvvat oladi. Mergan ovchilar mo'miyoni pastdan turib otib oladilar. Yuragi katta qo'rqmas alplar belga arqon bog'lab yuqoridan osilib-tushib mo'miyoga yetishadilar. Unga har kim ham yetolmaydi, hammaga ham bu nasib etmaydi. Netongki, ming dardga davo bo'lgan odamzodning bu taskinbaxsh rizqi SHOIR umrini yodga tushiradi. Asl shoir shu mo'miyo kabi poklikdan, umiddan, sabrdan, sog'inch va bitmagan yaralar dog'idan dunyoga keladi. Asl shoirning paydo bo'lishi ortida juda katta sabablar bor. Bular yergagina tegishli emas. Bu sabablarda samovotning qo'li bor, shubhasiz. Kingaki katta she'riy quvvat berilgan bo'lsa, bu katta asosga egadir. Yaratganning katta mehribonchiligi bor bu yaralishda.

Men bir kishini ko'rgandim. Butun a'zoyi badani oq-pes bo'lib buzilib qolgan. Uning farzandlarida ham bu nuqson bor. U kishi yigit vaqtida bir aziz zotning qarg'ishiga uchraganini aytishgan menga. Xudo aziz qilgan kishining dilini og'ritish Xudoning ko'nglini og'ritish ekan-da. Harholda, u odam qay

ma'noda eldan chiqib qolgan. El bu odamga haromni ko'p yegan, noma'qul ishlarni ko'p qilgan, va mast bo'lib kelayotganida oldidan chiqqan Turob degan suvchini urib, qo'lidagi oylik pulini suvga oqizib yuborgan deydi. Bu pul Turobning xotiniga juda zarur bo'lgan o'shanda. Uning xotini o'sha kuni tug'ruqxonada vafot etgan. Bu noxush voqeani eslashdan muddao – odamning ko'nglidagi kuch ko'p narsaga qodir, ekanini aytish edi. Qo'yingki, bir notovon odamning eldan chiqib qolishi shu qadar katta omillar asosiga qurilgan ekan, xalq dahosining mahsuli bo'lib, porillab maydonga keladigan shoirning ibtidosida yanada buyuk boislardir. Shoir elning tilovi, uni ochunga keltirguvchi otana tomirida oqayotgan qonning tozaligi, yig'ilari, pokligidan, ko'ngillardagi buyuk kuchning tilovlaridan so'ng sodir bo'ladi. Odam ko'nglida ham tabiatdagi kabi juda katta hodisalar qatorida vulqonlar ham bo'lib turadi. Shoir shu vulqonlar poyonidagi muhabbatdan paydo bo'ladi. Mashhur rus shoiri she'rning yaralishi haqida aytgan gap bejiz emas: “U aytib turdi, men yozdim!” Ha, shoir Xudoning amri bilan yaraladi, she'r ham. Shoir bilan hazil-lashib bo'lmaydi. Bu gaplardan kasbi-a'moli she'r yozish bo'lgan kishilarni mutaassiblarcha avliyo qilib ko'rsatmoq niyatidamasman, ammo asl shoirning ko'ngil torlari Yaratganning dargohiga

tutashligini aytmoqchiman. Asl shoirda juda ko'p narsalar yig'ilgan – mushtarak: nekbinlik, mardlik, adolatga, erkka betiyiq tashnalik, yelkasini mayishtirgan yuk bilan ketayotib ham g'aribga qo'l cho'zmoqlik... shu kabi nodir hislar shoirga xos. Yana g'urur ham. G'ururki, kibrdan xoli. Mardona g'urur! Ana shu narsalar bir ko'ngil egasida bo'lsa va unga she'r san'atining siri ham in'om etilgan bo'lsa bu oddiy yaratiqdan ancha baland turishi shubhasiz.

Men juda baxtiyor odamlardan biri sanayman o'zimni. Negaki, xayolimdagi shoirga, shoirlarga



duch kelganman.

Ularning birovi shubhasiz, qadrdon Usmon Azimdir.

Usmon akaning "Sevgi" degan hikoyasida Xoliyor baxshi degan obraz bor. Bu obraz hayotiy, chindan yashab o'tgan baxshining hayoti asosida paydo bo'lgan. Ana shu yurtdan badarg'a bo'lib, qatag'on dovullariga uchrab, dog'u firoqda o'lib ketgan Xoliyor to'qsoba Usmon akaning tog'a jamoasidan bo'ladi. U kishining Boysun bilan vidolashuv aytimlari hanuz el ichida mashhur. Iste'dodning suyak

suradigan yo'li borligi rost, ammo Usmon akani shoir qilgan narsa tog'lar mo'miyosidek aziz hasratdir – elning qarg'ishi emas, duosi, tilovi, yo'qlovi, ko'ngillarga dog' bo'lib cho'kkan hijronning teran xo'rsiniqlari, ya'ni – Xoliyor baxshining azim armonlari hamdir. El falakdan yomg'ir so'rab iltijo qiladi. Ammo "Xudoyim, bizga bir shoir yubor" deganini eshitmaganman. Biroq shunday – tilga ko'chmagan tilaklar ko'ngillarda qoim bo'ladiki, buni bir zabardast shoir maydonga kelganidagi quvonchdan anglash mumkin. Usmon Azimni adabiyotimizga ana shunday palak bergan.

Odanzodning fe'li har turlidir. Turli odamlar qatorida Usmon Azim ham xos fe'l-atvorga ega. Xossatan, u kishining hayotchan, hazil-mutoyibaga moyil so'zlashuv tarzini yoki uncha-muncha chinovniknamo kaslarni ham ko'rdim demay, aytarini aytib olishini, va doim iste'dodli kishilarni yoqlab yuraverishini ko'p ko'raman. Usmon akaning boshi xam, ma'yus bo'lib, domangir-u g'amga botganini ko'rmaganman – ko'rmaylik ham – u bunday oson yengilish, kechikish shoirga xos emas degan qonun asosida yashaydi. Shu qonunni ham salafaridan o'rgan-ganicha o'rgan-gan, qolganini o'zi yaratib olgan. U mardona va halol, g'am kelsa ham mard bo'lib ko'tara olish vazifa, deb o'ylasa kerak. Kelmishki har ishni taqdirdan, Olloh-dan bir xabar, uning yodida ekanligingdek quvonchli mujda deb keta olish; yana bir juda mushkul ish – doim imkon qadar balandroq bo'lib qolaverishni shu shoirda ko'raman va o'zimni boya aytganimdek baxtiyor sanayman. Shunday yashasa ham, o'ylasa ham bo'larkan. Voajab! Usmon aka birov-dan nolib o'tirmay, o'sha kimsani ko'rganida to'g'ri yuziga ayb-nuqsonini aytishni xush

ko'rdi doim. "O'ziga ham aytganman bu xatolarini. Ta'sir qilmadi. Qo'yinglar uni – foydasi yo'q" deb qo'ygan damlar hayron bo'lgan bo'lsak, uning haqligiga keyinroq ko'p bor amin bo'lamiz. U allaqachon anov kimsaning tuzalmasligini, amalparastligini yoki iste'dodning unga hayfligini yoki o'rtamiyonalik kasaliga, qarsakbozlikka chalinganini yoxud o'sha kimsaning mutlaqo yolg'onchili-



gini tahlil qilib bo'lgan bo'ladi. O'rtadagi suhbatda esa ig'vo va g'iybat kelib chiqmaydi.

Tag'in, Usmon akaning fe'lidagi shoirlilik sabablariga olib keluvchi bir yo'l ham bor. Bu – uning dunyoning naq egasiday adl, g'oz turishi. Butun tiriklik jarayonlariga o'zi daxldor, ehtimol bu charx quyunining qoq o'rtasida o'zi tik turgandek yashashi, shunday o'ylashi, shunday qiynalishi, shunday quvonishi. Turganda ham g'am-u quvonchni sokinlik, vazminlik bilan qabul etib, albatta o'z bahosini berib, odamlarga yelkadosh bo'lib, biroq buni imkon qadar sezdirmay yengil va tik qolishidir. Uning maqtanishlari ham o'ziga xo'p yarashib ketadi shu onlarda. Lekin ochig'ini aytish kerak, uning maqtanishlarida men fazilat ko'raman. Ko'p zavq tuyaman. Samimiyat yutib ketishini boz his etaman. Qani endi shunday qilib maqtanolsang, deyman. Va davom qilaman: maqtanadigan ishlaring bo'lsa... Ha, mayli, muhimi bu emas... uning ne hasrati bo'lsa she'r bilan birga bo'lgan pallada aytajagini keyin, keyinlar, rosti ancha kech tushunganman. Uning adabiyotimiz, san'atimiz, madaniy hayotimiz tarixida katta hodisa bo'lgan "So'ngso'zlar" asaridan unda-munda par-



chalar o'qigach ayrim narsalarni angladim. Shoirning vaqti kamligini, uning bisoti dunyoning o'zi emasligi, va ayni pallada bu dunyo ham bor bo'yicha, butun sarvati bilan shoirniki ekanini, jahonning g'am-u qayg'usi shoirga doirligini teran anglay turib, yonimda ana shunday ijod sohibi turganini sevinib esga olaman.

Va xayolimni jamlab, parishonlikni quvib Usmon Azimning – mayakovskiycha guldurosning, tog'dan yumalab kelayotgan katta tosh g'ayratining, shu toshning qismati timsoli bo'lgan Usmon Azimning she'r bilan yolg'iz, yuzma-yuz qolishini tasavvur etib ko'raman. (Aslida she'r bilan yolg'iz qolish, sher – arslon bilan tanho qolishday gap. Bu gapda bo'rttirish yo'q: har lahzasini oxirigisidek yashagan odam biladi buni.) Dovulli, bo'ronli bir kechada zanjir-u g'ullarini uzguday bo'layotgan bandi tulporning holi ko'z oldimga keladi. Ham o'rtanish, ham zavqli alam, ham dog'i yoqimli g'ussalar bir pallada o'rtaga olgan yurakni boshqa nimaga ham qiyoslash mumkin. Usmon Azim o'zi tasvirlaganidek lovullayotgan ish stoli tegrasida ana shunday bir ilhom aro kezinadi. O'zbekparvarligi, turkiyparvarligi, haqparvarligi bir-biri bilan mudom o'rin talashib yotuvchi, eng savodxon shoirlarimizdan bo'lgan bu ijodkorda she'rlar juda ko'p. U chinakamiga ko'p yozdi. She'rining o'zi sakkiz-o'n jildlar chiqar-ov. Qizig'i, shuncha she'r ichidan yomonini, shunchakisi, zamonabopini, urfdan qolganini topolmaysiz. Bu juda katta yutuq. Aytmoqqa oson. Qon va

ter hisobiga, yurakning beto'xtov azobli zavq bilan ishlashi hisobiga maydonga kelgan bu katta xirmon. Keyin, bu ijodkorda har xil she'r bor. Hamma she'riy shakllar, uslublar, tajriba namunalari unda uchrayveradi. Mana, o'qib ko'ring:


Necha ming olamni mehrda yuvib,
Zaminga nur tarab yetgan tovush der:
– Quyosh tegrasida davronlar surib,
Aylanishing qalay? Yaxshimisan, Yer?

– Shukur – deydi zamin, – O'zingga shukur!
Sening rejang ila inonim – haddim!
Samoda sayr etmoq naqadar surur!
Menga sha'n taqdirni etgansan taqdim!

– Odamizod qalay?
– Ne deyin?.. endi...
Ularga makonman ra'yingga ko'ra.
Bilasan, qadami Oyga ham yetdi –
Men-ku ko'nikkanman... oydan hol so'ra!"

G'aroyib suhbatdosh, har qanday yoshdagi, darajadagi odamga o'ziga yarasha gapini topib ayta oladigan, bu odam qarshisida turib uning cho'ng dardlarni olib yurgan ko'ksidan chiqqan satrlarni yodga olaman. Va insonning imkoniyati juda katta, odamning kuchi ko'p narsalarga yetadi deb o'ylayman.

Har bir Xudo bergan kuni – tuyg'ular bahsidan – hayrat-u hayajonning tarang tortilgan dori ustidan qo'rqmay yurib o'tmoqdan – umuminsoniy, abadiy munglarni, beadoq g'ussani his etib, undan odamni, olamni, Ollohni tanimoqday zahmatlardan – umid va qo'rquv aro, shukrona-yu isyon kesimlarida yurakni butun olib o'tmoqdan iborat bo'lgan Usmon Azim degan sho'irni tanimagan, bilmagan odam, uning



Bosib kelayotir dim havo,
Buncha huvilladi bu adir.
Tog'lar tanho, daralar tanho,
Ketgim kelayapti qaygadir.

Shamollar soylarda cho'zildi,
Mezonlar uchdilar betaqdir.
Sabrning so'nggi ipi uzildi,
Xat yozgim kelyapti kingadir.

Sezdimi kun ketar chog'ini –
Qarg'alar aylandi falakda betin.
Qanotli chiroqdek meni sog'inib
Birov kelarmikan?!

Shom tushar chog'ida g'am juda ravshan,
Oqibatni ayon ko'radi idrok.
Hech kimga ko'rsatmay bir yig'lab olsam –
Qorong'ulik tushsaydi tezroq!..

kabi she'rini pichirlab o'qisa, o'qib qolsa... beixtiyor undagi mungni a'zoyi badanida tuyadi. Va qarshisidagi mag'rur-u, quvnoq odamga shubha bilan boqsa ham ajabmas.

Uning Boysun manzaralari aks etgan yoki Elbek baxshi aytganidek, hayqirib o'qiladigan she'rlaridagi shasht ham o'quvchining diliga ko'chadi va selday shiddat qoshida shoshib qoladi. Bunday she'rlarni o'qigan o'quvchi,

Men bu kech ko'nglimni tinglab o'tirdim,
Dardiga chidolmay mungrab o'tirdim.
Qayga ketdi mening aziz do'stlarim,
Javobin bilsam ham, yig'lab o'tirdim.

degan satrlar ham shu ko'ngilning teran sadosi ekaniga lol bo'ladi, so'ng ishonadi.

Usmon Azim katta mahoratga ega, mozaik shoir. U yurak qirralarining har biriga borib ko'rgan, yurak cho'qqilarining har birini zabt etgan, tuyg'ular tovlanishlariga aldanib qolmagan, aksincha kechimlarning rangin olamini qo'l bilan ushlasa bo'ladigan yaqinlikda his etgan va buni qog'ozga muhr etolgan zo'r kashshof, katta iste'dod.

“Bahor keldimi?
Gulladimi daraxtlar?
Qushlar sayradimi?
...Sen ketsang ham shunday hol ro'y beradimi olamda?!!!”

deydi-qo'yadi u! Lol-u hayratdan karaxt qoladi, kishi. Uch-to'rt satrda odamning butun umrlik so'rog'ini, dod-u fig'onini, pinhon g'amlarini qanday qilib buncha oddiy qilib, zo'r aytish mumkin?!

Uning ruhida, oqargan sochlarining panasida bolaligi yashab kelayotganini tuyqus anglab qolaman. (Ha, bir zarur gap: bolaliksiz adabiyot yo'q. Va bolaligi tark etgan odamda ham adabiyot yo'q, uni olamning bor go'zalligi tashlab ketgan. U – achin-gulik odam.) Chinakam san'atkorgina yashab o'tadigan dardi silqib turuvchi umrga yondosh bo'lgan juda katta yashovchanlikning uyg'un tarziga uning she'rlarigina sharh ayta oladi.

Har kuni she'r yozishga tayyor bo'la oladigan, o'ziga kayfiyat topa olishga kuchi yetadigan, she'rni, adabiyotni xususiy mulkiday avaylab, ne bir alag'dalikda yashashni Xudoning amri deb bilguvchi va muhimi she'ri hayotiday, hayoti qalami bitganday – bir qirda, bir sirda umr kechirib kelayotgan bu shoir o'zining olamini qurdi. Uning Men uy emas, She'r qurdim, degan satrlarida juda toza iqrar bor. Ustoz munaqqid Ozod Sharafiddinov suhbat asnosida Usmon Azim haqida to'xtalib, “Abdullajon, Erkinjonlar ham zo'r shoirlar, lekin Usmon boshqacha-da” degan edi. Ana shu “boshqacha” bo'lish, nazarda turib qololish, o'zini boricha, ayni damda shu borichani ham yo'l adog'igacha yelkada olib borishday zahmatni Usmon Azim ijodiy yo'lida ko'rdik, ko'rib o'syapmiz.

Bir gal bir mashhurgina shoiramiz “shoirlikning yuki og'ir, uni ayol boshim bilan yelkalab turibman” degan mazmunda gap aytdi. Unga javoban Usmon akaning aytganlari esda qolarli bo'ldi: “Erkak boshimiz bilan o'zimizni she'rga berdik. Bu qurbonlikni qilish o'zi bir azob bo'lsa, uni endi murodga yetkazish o'zi bir azob. Erkalik emas, erkaklik qildik biz!” Zalda kulgi ham ko'tarildi. Ammo darrov, o'z-o'zidan bosildi. Bu gap ko'plarga asar qilgandi. Ha, erkak boshi bilan harbiy bo'lmay, chavandoz bo'lmay, polvon yoki yoyandoz botir bo'lmay, hech bo'lmasa futbolchi, hisobchi yoki traktorchi bo'lmay shoir bo'lish qismatini bir o'ylab ko'ring. Shoir! Kechalar o'zi bilan o'zi sirlashib, qog'oz qoralab, bu bitiklarini Xudodan boshqaga inonmay yurish va bir gazetadami she'ri chiqsa behad quvonish: “shu zayl chuvalgan taqdirning boshi...” deganlaridek, yo'l boshida qalam tutib turgan ko'zlari yongan bolalikni yo'l so'nggigacha xafa qilmay, dilini qaro qilmay opichlab kelish bu shunchaki ish emas. Bir gap aysam ishoning, bu ish farishtalar ishtirokida ro'y beradi! Yuqoridagi ishlarni esa oddiy odamlar o'zlari eplashaveradi.



“Ota-ona farzandining shoir bo'lish orzusida ekanini sezdimi, uni to bu xayoldan voz kechguncha yoki butunlay asl shoir bo'lib kamolga yetguncha har kuni kaltaklab turishi kerak”, deydi bir nemis faylasuf muallimi. Bu gapda chuqur ma'no bor. Iste'dod – intizomdir, degan gap bekorga emas. Usmon aka aytganidek, erkak boshi bilan she'r yozish deganda va qurbonlik deyilganda yuqoridagi fikr-mulohazalar ko'ngilga qalqib chiqadi va bexos titrab ketaman: bu qanchalar mushkul ish ekan va buni Usmon aka qanday uddalabdi! Shuning uchun ham bir xulosa qilishga oshiqaman: milliy adabiyotimizga Usmon Azim bergan eng katta narsa she'rning g'urur, nafsoniyat ekanini anglatganidir. So'zning taqdiridan olingan qarz ekanini tushuntirganidir (eh, birovgga yo'lni tushuntirish qanday qiyin bo'lgan dunyoda, bu odam, ko'p og'ir ish boshlagan deb qolaman goho).

To'qqizinchi sinfdaligimda Usmon Azimning “Saylanma”si nashrdan chiqdi. Garchi shoir bilan tanish bo'lmasak-da, bu ijodkorini ko'pdan beri “yaxshilar”, hattoki “eng yaxshilar” qatoriga qo'shib, o'zimizniki bilib yurganim uchun bu nashr meni ham quvontirgandi. Keyin u bilan chinakam tanishish boshlangan. Bu “Saylanma” nafaqat men uchun, bir puchmoqdagi o'quvchi uchun,



balki, butun o'zbek she'rxoni uchun juda katta voqea bo'lgan. Bu kitob millat shoirlarining keyingi avlodiga mayoqday xizmat qildi. Bu kitob Usmon Azim zabt etgan baland cho'qqilardan biri, shubhasiz. Maktabimizdagi she'rxonlar Usmon Azimning “Saylanma”sini o'qiganlar va o'qimaganlarga ajralib qolgan edi. Shoirga Xudo shunday bir mashhurlik keltirdi. Shunday bir sharaf berdi. Mayoqlarsiz, kumirlarsiz bizning holimiz qanchalar nigun! Qanchalar g'arib bo'lib qolamiz ularsiz? E, Yaratgan! Beraringni kam qilma! Bu nidolar minglab yuraklarning arzidir, asli!



Muallifning keyingi kitoblari ham o'ziga xos nashrlar. Masalan, "Fonus" to'plami ham, "Kollaj" to'plami ham, "Kuz" ham... bularning har birining o'рни, vaqtga yor bermay kelishlarida ijodiy kuchning va dil taqvosining og'ir mehnati borki, bejizga mavjud emas.

Bu olamda nomingni pok tutib turishning o'zi bir shtat ish. Ammo zo'r shoir hamda yaxshi odam degan nomning himoyasi esa yana va yana qiyin. Shu qiyinlik, shu iztirob "toshlari tuproqqa aylangan dunyo"ga boqqan shoir yuragining hayratangiz savolini beradi: "Nahotki, dunyoning eshigi yo'qdir, Derazasi yo'qdir bir zum qarashga?!"

Uning "uchib ketayotib o'ladi bu qush" degan bir azobli satri bor. Bu satrni tinglash, o'qish mushkul a'mol. Ovchi dunyo yaralagan bu qush bir burchakda emas, uchib ketayotib jon berayapti. Qushda! Uning qaysi qush ekanini ham bir muddat dard yutgach anglaysiz. Bu Usmon Azimning "Tangrim, yolvoraman, qush qilib yarat, Yerga qo'nmaydigan qushlar bormikan!?" deya hayqirgan yuragining qushga do'nishi. Va yarador holida qanot qoqishi. Bu haqda, bu mavzuda o'ylaganda Usmon Azim ijodida qush timsollari galasiga duch kelasan, odam. Uning "Kuzgi bog'", "Yozgi bog'"laridagi qushlar sayri ruhni parvozga shaylab yuboradi. Qafasning ochilgan tilla eshigidan boshini chiqarib ko'rayotgan qushning ma'sum tasviri, dunyodan daricha izlayotgan shoir yuragiga juda o'xshab ketadi.

Ushbu she'rni o'qing:

Qushga qanot dushmandan qochish uchun berilgan ekan;

Qushga qanot rizq topish uchun berilgan ekan...

Men esa, hur parvoz uchun berilgan deb yuribman.

Yoki meni asir aylagan mana bu satrga siz ham maftun bo'ling: "Tog'lar, viqorin-giz qalbmida mangu!" Bunday satrni o'ylab, fikrlab, ko'p mashqlar qilgani uchun yozish mumkin emas. Buni Xudoyjon yuborgan! To'rtta so'zdan iborat qanday baland fard! Qadalgan qilichday turadi! Bu satr bir o'zi ham yashab ketoladi. Chunki uni paydo qilgan so'zlar ulug'! (Tog', Viqor, Qalb, Mangu) Va bu so'zlar uyushib kelgan



yurakning shiddati, savti kuchli juda! Tag'in uning "Yurak bo'lishi yolg'onmi odamning ichida?!" degan odamni esankiratib qo'yuvchi savol-satrlari, "Men uyg'onsam, ovoz bo'laman" degan qanotli xabarlarini o'qirmanning o'lgan hislarini takror tiriltiradi. Bitta odamning o'limidan ko'ra bitta tuyg'uning o'limi katta fojia. Shu hisobga olinsa, bu satrlar o'quvchiga Xudoning marhamati ekanini tan olish kerak!

Ha, iste'dodli odam haqida gaplashish, fikrlashish zo'r mashg'ulot. Qiyin bo'lsa ham, zavqing halol kechadi. Shunday zavq ta'sirida anglab qolaverman: chin ma'nodagi professional ijodkorlar juda noyobdir bugun. Aslida doim shunday bo'lgan bo'lsa kerak. Bunday ijod kishilari tabiatning in'omi. Bular Omonxonadagi mo'jizaviy shifobaxsh buloqlar qanchalik noyob va boborakot bo'lsa, shunday tabiat hodisasidirlar. Ammo bizlar hamisha ham mo'jiza bilan shunchaki narsaning farqiga, qadriga yetavermaymiz.

Usmon aka ijodiy hayoti va hayotiy ijodida muntazam, sobit, hamisha mas'ul bo'lib, 70 yilki she'r bergan hayrat taftitib, she'r bilan birga kelayotir.

U biroz yozib, biroz sayohat qilib, biroz davlatmandlik yoki amaldorlikka berilib, yana ijodkorligi esiga tushib, esnagancha o'tmas qalamini qidirib qoluvchilardan bo'lmadi. Bo'lolmadi. Uning umri, yashaganiga qiyosan qopladi.

U 50-60 yil burun termizlik shoir Tesha Saydali nashr ettirgan ilk she'rlaridan bugun ijtimoiy tarmoqlarda taralayotgan satrlarigacha og'ir, chidash mushkul bo'lgan yo'lni ijodiy cho'kishlarsiz, talofatsiz bosib o'tdi. Yosh bilan bog'liq ko'tarilish va tushishlar uning she'riyatiga daxl qilolmadi, hisob. U bunga she'rni ko'ndirdi. Uning ko'ksida urib turgan otashin yurak ijodiy qismatga tik boqdi. Bunday muntazam tarzda, baland pafosda shoir bo'lib qola olishning siri nimada?



Taqdir o'zbekning bu azamat shoiriga juda katta quvvat, ruhiy bardamlik bergan ekan. Bu quvvat vujudga bo'y beray demaydi. Vujud ham shu ruhiy savt bilan tengma-teng yurishga intiladi. U doim yaxshi shoir bo'ldi, doim zo'r shoir bo'ldi. Mudom qalamidan adolat va mehr, jonfidolik, jo'mardlik qoni tomchilab turdi. Nega? Qanday qilib erishdi bunga u? (Bular juda muhim, jiddiy savollardir.) Xudo katta iste'dod va ruhiy kuch bergani, jahoniy adabiyotdan boxabar savodxon bo'lgani uchungina emas faqat. Bilamizki, hayotda iste'dodi va ijodiy qudrati betakror, ammo zo'r adib yo shoir bo'lolmay qolganlar bisyor.

Usmon Azimni bugun adabiyotda chinorday ulug' qilgan narsa avvalo, uning ko'ngil taqvosidir. Bu taqvo dunyoning kir kunjaklarida ajdaho bosib yotgan tillodiy nafsni o'ziga tortuvchi nimarsalardan o'zni tiymoqdir. Bu taqvo chin so'zni aytish lozim bo'lgan pallada ayolmay, tilni tishlab, uzoq vaqt o'zini kechirolmay yurishdek og'ir damlarda buzilgan bo'ladi. U halol yashadi,

yuzing-ko'zing demay haq gapini aytib o'taverdi hamisha. "Shoirlari yolg'on aytsa o'ladi el" degan satrlarni ko'ngliga solgan Tangrini yuz-xotir qildi mudom. Doim mard bo'lib, tanti, jo'mard bo'lib qolgani uchun ham taqdir uni SHOIR degan sharaf bilan siyladi. Usmon Azim doim halollikning tarafini oldi, yupun, g'arib, yo'qsil bo'lsa-da haqiqat tomonda turdi. Har lahza bezovtalik bilan qayg'ura oldi bu haqda. Qismat uning tanglayiga shoirlarning shunday cho'g'li tamg'asini bosganiga men ko'p bor amin bo'ldim.

Juda yaxshi ko'rgan uka-singillarining ham adabiyot masalasida ko'ngliga qaramadi. Zo'rini tan oldi, alqadi, qo'llab-quvvatladi. Yomon bo'lsa betiga aytdi-qo'ydi. Uni yoqtirmaganlar iste'dodsizlar, chin gapni tan ololmaydigan, chidolmaydiganlardir. Uni xushlamaydiganlar so'zbozlik bilan bodilik qilib yurguvchi oliftalardir. U iste'dodning kamolga yetishi uchun jon boricha kurashdi. Qatag'on qurboni bo'lib ketgan olis qarindoshi Xoliyor baxshining do'mbirasiday "g'ay-g'aylab" doim rost so'zini aytib keldi bu shoir. Xushlamagan odamidan yoki o'ziga yoqmagan majlisbozliklardan qochish uchun biror bahona topib bo'lsa-da tezroq uzoqlashadi, chiqib ketadi. Mabodo, bunday holatda me'yoridan ko'proq turib qolsa "portlab" ham ketishi mumkin.

Bu so'zlarni aytish, yozish, tavsiflab baholash oppa-oston. Biroq bu umrni yashab o'tish ko'p og'ir, birodarlar. Uning "Yaxshilab yashasang, umr bu - qiynoq" degan iqrorlari behikmat emas.

Uni Yaratgan Egam ana shu taqvoli uchun baland qildi. "Hasadgo'y ulug' bo'lolmaydi", deydi shayx Ahmad G'azzoliy. Usmon Azim hayoti bilan, ijodi bilan shu hikmatni isbot qildi. Yaxshini ko'rsa quvonib, alqab, asrab, ardoqlab, nomardni ko'rsa ming yillik dushmanini ko'rganday dili qattiq og'rib, og'rinish, unga munosabatini yashirmay aytib keldi u. U o'z olamini, oydin qalbini pok tutgani uchun ham Usmon Azim degan nomni bunyod qiloldi. U taqlid qilmadi sira. Falonchidan o'tishim kerak, degan yoki boshqa biror iddao bilan qalam surmadi, bahs boylamadi.

Uning ijodida "Mamarayim baxshining aytgani" degan she'r bor. Oyoqdagi poyabzalga qarab baho beruvchi dunyoda yalangoyoq yashagan baxshining, dunyo ustidan shu holidayam kulolgan baxshining bu holi Usmon Azimning dunyoga qaragan oynaqlar ortidagi nigohlarida nihondir.



Tag'in, ko'pkarida oti o'lib, egar-jabduq,
qamchisini qo'ltiqlab g'amgin qaytgan
odamga ayolining bergan taskini qariyb
qirq yilki yuraklarni o'rtab, ulg'aytirib,
mardlik baxsh etib turibdi:

Chavandoz uloqdan qaytdi piyoda,
– Ranglaringiz bir hol, ayting ne bo'ldi?
– Onasi, dardimni qilma ziyoda,
Onasi, otginam, otginam o'ldi.

Uchib borar edim misoli shamol,
Otginam qo'qildi o'tmasdan bir pas.
Jasadi ustida turib qoldim lol,
Onasi, otimdan ajraldim, xullas.

Chavandoz xo'rsindi, uh tortdi og'ir,
Bir chetga jimgina burdi yuzini.
Balki, u erkak-da, istamagandir
Xotini ko'rishin yoshli ko'zini.

Olamni tark etdi oftob-u kunduz,
Chavandoz xo'rsinar, o'ylar otini.
Eriga boqqancha mayin-u mayus,
Gapirmas, o'ltirar sassiz xotini.

Chavandoz xo'rsinar, ot qayda endi,
Endi qaydan bo'lsin u rohat, lazzat.
Xotini ham jim-jit o'ltirar edi,
Na tasalli berdi va na nasihat.

Chavandoz xo'rsinar, tong otar edi,
Eng so'nggi yulduzlar borardi botib.
Xotini shivirlar: "Hech xafa bo'lmang,
Sizga ot olamiz uy-joyini sotib!"

Shu she'rni yaqinida izlab, topdim, qayta o'qidim. Va dedim: shuni yozgandan keyin umuman yozmasa ham bo'lar edi. Mutlaqo boshqa ishning boshini tutib ketaversa ham bo'lar edi. Hasrat, o'y-kechimlar, muhabbat, dunyoning qiziqligi, hisobi buzuqligi, yashashning asl ma'nolari va hakoza hamma narsani topish mumkin bu she'r matnida. Beixtiyor, "Shunday shoirimiz bor-a!" deb yuborasan, odam. O'sha shoir hanuz yozayotir.

Qanday qilib? Savol qalqiydi yana. Bu shoir tiriklikning yuz burib ketish qiyin bo'lgan matohlariga parvo qilmadi. O'zining yorug' ijodiy olamiga, aziz oilasiga, pokiza do'st-u yorlari, shogirdlari qoshiga mard, halol, xotirjam holda yorqin tabassum bilan qayta oldi doim.

Shu sabablidir u juda o'ktam shoir. Shiddati, jur'ati she'rlaridan toshib turgan shoir. Uning ijodida aralash she'r yo'q: biroz xudbinlik, biroz tantilik, biroz sevgi, biroz xiyonat qorishiq mavhum satr yo'q. Chunki bu narsalar uning zuvalasida yo'q. Bir she'rida farang shoiri Rilke gado ayol qo'liga ta'zim bilan gul tutayotgan pallada, dunyoni kalxatday aylanayotgan Stalin-u Gitlerlarning topganlari shu birgina qizil gul qoshida hech ekanligini ifoda etadi. Bu she'r o'qirmanga juda katta kuch beradi. Odam bolasi bu dunyoda kimgadir o'xshashni orzu qilishi, kimdandir uyalishi, kimgadir ich-ichidan suyanishi, kimdandir hayiqib, kimdandir andisha qilishi kerak! Va albatta kimdandir qo'rqishi zarurat! Bo'lmasa, u tezda nobud bo'lib ketadi! Shoirning asl ishlaridan biri o'quvchiga ana shu gaplarni ham eslatib turishdir!



Uning she'ri biror joyda chop etilgan bo'lsa-yu ism-sharifi tushib qolgan bo'lsa ham qiynalмай tanib olish mumkin. Uning har bir she'ridan ovozi eshitilib turadi. Bu yaxlit taassurotni, ko'nikmani she'rxon qalbida uyg'otish uchun shoir o'z ijodiy qismatiga sodiq, she'r yo'lga – imon yo'lga sadoqatli bo'lishi kerak. Aksincha biri bog'dan, biri tog'dan kelgan ohanjama, pala-partish tizmalar paydo bo'ladi.

Usmon Azimning doim shashtli, tarang tortilgan yoyday she'riyati uning o'zigagina o'xshaydigan suvratidir. Boshqasiga alishib, adashtirib bo'lmaydi. U sira zo'riqib yozmaydi. Majburiy, o'gay satrlarga duch kelmaysiz uning she'rida. Hammasi shakli-yu mazmundan qat'i nazar dardi yetilib, vaqti kelgach dunyoga kelgan ijod mahsulalaridir. Yana bir narsani e'tirof etish zarurki, bu til masalasidagi ishlar. U so'zlar, so'z qo'shimchalari, qo'shma so'zlarni tahlil qildi, yangilarini ko'p topdi, o'zi ham ko'shish qo'shdi. Bu masala rosti, alohida bir tadqiqot. Buni tilchilarimiz aytsa soz bo'lardi.

Usmon aka yoshi yetmishni qoralab qolgan bo'lsa-da, sira alamzada bo'lib, kimni ko'rsa, poshshodan, jamiyatdan, xullas hammadan noliydigan bo'lib qolmadi. Andisha ham, nazokat ham uni tark etmadi. Hatto maqtanishi ham o'ziga xos – boladay quvonadi, tinglovchining ham qulfi-dilini ochib yuboradi.

Bunga, bularning barisiga qanday erishdi u? Javob oddiy va lo'nda: uning doim nazari to'q bo'ldi! Uxlaganda oyoq qoqmay uxlaydigan darajada xotirjamlikni bergan mardligi uning qalbini shunday asrab keldi.


Bu juda qiyin ish! Bunday halovatga yetish juda og'ir kechadi.

“Yomon odamning qalbi afsus-nadomatga to'la bo'ladi” deydi Arastu. Usmon Azimni o'ksinib, g'amgin bo'lib turganini ko'rmadim desam ham bo'ladi. Doim qarsillab turadi u. Soxtakorlikdan qancha uzoq bo'lsa, kulgusi ham shunchalar tabiiydir.

Usmon Azim she'riyati hamisha ot ustida turib, oriyatini himoya etayotgan yovqur suvoriyning shahd bilan kelishiga o'xshaydi.

O'sha to'qnazarlik, o'sha parhez shoir qalbini yalang'och bo'lib qolishdan asraydi. Biling: yalang'och qalbni she'r farish-talari tark etib ketadi. Tark etgach sira ortiga qaytmaydi. Jaloliddin Rumi: “Qalb ham vujud kabi yalang'och bo'lib qolishi mumkin. Uning libosi taqvodir”, deydi. Shoir esa buni boshqacha tarzda izhor etgan: “Ko'nglingga ayt, umringga loyiq ish topsin!” “Loyiq ish”ni topish zahmatidan qo'rqmaslik ham odamni ko'p azoblar, murakkabliklar keltiradi. Ko'ngilning ko'yida yashash ko'p mushkul. U yana bir o'rinda:





“Albatta, tog‘ning o‘zi aybdor,
Kim aytdi unga baland bo‘lsin deb”,

deya bitadi hasratli tabassum bilan. Bu satrlar ham bejiz emas, bu satrlar ham ko‘ngilning maktublaridirki, undan mudom xabar olish kerak.

...Uning istalgan she‘rini o‘qish mumkin. Barchasida nekinlik, jo‘mardlik, otashin shavq g‘olibdir. Uning biroz horg‘in, dardchil, o‘ychil, kuzgi bog‘dagi sayrday hazin satrlarida ham bir tamoyil ustuvor. Bu — mardona bo‘lib, yengilsa-da, halol bo‘lib, sinsa-da g‘ujur bilan, ayriliqqa uchrasa-da nomusiga ega holda, mustamlaka bo‘lsa-da toptalmay qolishdek shiddatni, jur‘atni topgani, o‘ziga, so‘ziga singdirganidir...

Usmon aka haqida, katta, betakror shoir haqida, zo‘r nosir haqida, yetuk dramaturg haqida, publitsist haqida bir gap ochilib, gurung boshlanganda hamma gapni aytib tashlashning iloji yo‘q. Uning esselari o‘zi bir ijodkorga yetadigan, bir necha tadqiqodlarga arziqlik ishlar. Boshqalari ham shunday.

Gap shundaki, men bir kuni, Usmon akaning rosa 25 yil avval o‘qiganim bir she‘rini eslab, qo‘msab, o‘sha she‘rdagi bir satrni sarlavhaga olib nimadir yozishni juda istayotganimni his qilib o‘tirdim. Dam olish kuni, choy ichib

o‘tiringandim. Ammo ish stoliga yetib borish juda qiyin narsa. Bu yo‘l og‘ir yo‘l. Biroq darding zo‘r kelgach stol qoshiga qanday yetganingni bilmay qolasan. Biroq bu dard bo‘g‘zingga yetgunicha vaqt kerak ekan. Vaqt o‘tdi ham. Bir payt yonimizda, bir shaharda yashab turgan bu shoirni juda ko‘rgim, bir narsalar haqida gaplashgim keldi. Telefonni qo‘limga oldim. Raqamini ham terdim. Ammo chaqiruv ketmasdan o‘chirdim. Soat kechki 12 ekan. Biron narsa qoralash istagi choshgohda kelgan bo‘lsa, men esa telefonni kechki soat 12 da qo‘limga oldim. Shu holda kun o‘tib ketibdi-da demak. Tavba. Labim tinmay pichirlab o‘sha satrni aytaverdi: Tog‘ boshiga qor tushibdi, qor...

Bu qor meni 25 yilki sehlragan. Sobir Yadikov ham peshonasi yarqiragan odam. Shu she‘rni shoir unga bag‘ishlagan.

Alqissa, men stoldan bosh ko‘tarib derazadan qaraganimda Parkent tog‘larida qorni ko‘rdim. Ochig‘i, tog‘lardan ko‘z uzolmay qoldim. Siz yuqorida o‘qigan, men hali nimaligini bilmay turgan bitiklarimning totli charchog‘ining nomi ham shu ko‘zim ko‘rayotgan tog‘lardagidek qorlarga qorishiq ediki, hayajon keldi. Xudoyim menga bu manzarani in‘om qilganiga inondim juda. Yengil bo‘lib qolgandim. Oradan bir tun o‘tib ketgan. Bu tunda men Usmon Azim degan tizmaning bir-ikki jilg‘asiga aylanib keldim. Falak esa sog‘inchli qorini tog‘larga tashlab o‘tibdi. Xudoga shukr! Bor bo‘lsin, sog‘inch! O‘lmasin shoirlar!

 Shodmonqul SALOM



ALFRAGANUS: OLIIY TA'LIMNING SAMARALI KO'RINISHI



O‘qishni tamom-
laganimga
ham 1 yildan
oshdi. Men

o‘qishga topshirganimda imtihonlar bir muncha murakkab bo‘lgan. Hammaning yuragida imtilhon oldi hadik va qo‘rquv mujassam edi. Agar o‘qishga kira olmasam nima qilaman? U davrlarni boshidan o‘tkazmagan inson bu haqida fikr bildirishi anchagina murakkab. Hozir vaziyat o‘zgar-gan, barcha hududlarda xususiy universitetlar mavjud. Yoshlar davlat oliy ta‘lim muassasalariga kira olishmasa, bemaolol xususiy ta‘lim dargohiga hujjatlarini topshirishi mumkin. Menda ham xususiy unversitetlar faoliyatiga qiziqish paydo bo‘ldi. Tanishlarimdan qaysi xususiy OTMga bor-sam bo‘ladi, deb so‘raganimda, og‘izdan-og‘izga ko‘chib yurgan Alfraganus universitetiga bor-ishni maslahat berishdi. Ko‘p kut-masdan Alfraganus universiteti matbuot xizmati rahbari Kamola Abduvaliyevaga qo‘ng‘iroq qildim. Kamola opa menga ertasi kuni unversitetga kelishim va talabalarga yaratilgan shart-shar-oitlar bilan tanishishim mumkin-ligini aytdi.

Nihoyat, universitetga qarab yo‘l oldim. Biroz barvaqt bor-ganim uchun universitetni aylanishga qaror qildim. Zamonaviy-lik va haytek uslubida qurilgan binolarni ko‘rib ustozimning doim aytadigan bir gapi xayolimga keldi, “Bugungi yoshlarga ham oson, ham qiyin”. Sababi bu kabi zamonaviy va hamma sharoitlarga ega bo‘lgan maskanda ta‘lim olish

oson, biroq butun dunyo “gadjetlashib” borayotgan paytda xayolni bir joyga to‘plagan holda bilim olish qiyin. Shu o‘yda universitetni aylanib yurar ekanman, Kamola opa qo‘ng‘iroq qilib qoldi. Qayerda ekanligimni so‘radilar? Biz universitet bilan tanishishni 1-binodan boshladik. Binoda iqtisodiyot fakulteti talabalari tahsil olisharkan. Birinchi qavatda axborot markazi zamonaviy, did bilan ta‘mirlangan hamda barcha turdagi adabiyotlarga ega ekan. Bundan tashqari, talabalarga xohlagan kitoblarini elektron shaklda o‘qish imkoniyati, zamonaviy darsxonalar va kompyuterlar mavjud.

Kamola opa muassasa haqida kerakli va qiziqarli ma‘lumotlarni ham aytib o‘tdilar:

– Universitetimiz 2022-yilda faoliyatini boshlagan, avvaliga bizda atigi bittagina o‘quv binosi bor edi. Hozirgi paytga kelib, binolarimiz sonini 6 taga yetkazdik va beshinchi binomiz “Alfraganus hospital” hisoblanadi. Bu yerda talabalar bemalol 2-kursdan amaliyot o‘tashlari mumkin. O‘tgan o‘quv yilida tibbiyot yo‘nalishi talabalarimiz shu yerda amaliyot o‘tashdi. Dastlab 14 ta yo‘nalishda ta‘lim bergan bo‘lsak, endilikda 38 ta yo‘nalishda kadrlar tayyorlab kelmoqdamiz. Universitetda talabalarga iqtisodiyot, filologiya, pedagogika, ijtimoiy fanlar, raqamli texnologiyalar, tibbiyot, jismoniy tarbiya va sport, turizm sohalari bo‘yicha tajribali ustozlar bilim berib kelishmoqda. Hozir OTMda 1, 2 va 3-kurs talabalari tahsil olishadi. Universitetda kunduzgi, kechki va sirtqi ta‘lim shakllari mavjud. Magistraturada talabalar 10 yo‘nalish bo‘yicha mutaxassis bo‘lib yetishadilar.



O‘qituvchilarni ishga olishda har bir soha bo‘yicha komissiya shakllantirilgan

Shu o‘rinda bir narsa qiziq, universitet juda zamonaviy qurilgan va jihozlangan. Talabalarga dars berishchi innovatsion uslubdami yoki an‘anaviy shakldami? Bu so‘rovimizga matbuot xizmati rahbari shunday javob qildi:

– Talabalarimiz rivojlangan mamlakatlar ta‘lim tizimiga moslab ishlab chiqilgan va talabalarga ko‘pi bilan 1 semestirda 5 ta fan o‘tiladi – ularning hammasi mutaxassislik fanlari. Bundan tashqari, o‘z sohasining eng yetuk kadrlarini o‘qituvchi sifatida jalb etishga harakat qilamiz. Bizda o‘zbekistonlik eng yaxshi pedagoglar bilan birgalikda xorijdan kelgan professor-o‘qituvchilar ham dars berib kelishmoqda. Birgina misol, Fransiyaning Lion moliya katolik universiteti dotsenti Eric Greiette 29-sentabrdan boshlab, iqtisod fakulteti talabalariga “Moliyaviy risklarni boshqarish zarurati” mavzusida dars mashg‘ulotlari o‘tishni boshladi.



Biz yana tanishuvda davom etdik, Alfraganusning eng yaxshi tomonlaridan biri – uning binolari yonma-yon joylashgani va oldidan soy o'tganligi. Bu insonga qulaylik yaratadi, yoqimli his ulashadi. Bino ham zamonaviy ta'mirlangan va shinam xonalarga ega ekanini ko'rdik. Kutubxona, qo'shimcha mashg'ulotlar uchun zal va oshxona mavjud ekan. 2-bino filologiya va ijtimoiy fanlar fakultetida o'qiydigan talabalarga mo'ljallangan. Taxminimcha, 200 talabaga birdaniga xizmat ko'rsatadigan shinam va juda qulay oshxona beixtiyor talabalik kezlarimni esga soldi. Oshxonaga kirganimda, soat endi 11 bo'lsa ham ovqatlaridan tanovul qilishga tutindim. Haqiqatan ham narxlar hamyonbop va taomlar mazali ekan. Dasturxon ustida Kamola opadan professor-o'qituvchilarni universitetga jalb qilish jarayoni qanday kechishi haqida so'radim:

– O'qituvchilarni ishga olishda har bir soha bo'yicha komissiya shakllantirilgan, nomzodlar o'tishi kerak bo'lgan bir nechta chig'iriqlar mavjud. Ular muvaffaqiyatli natija ko'rsatishsagina, bizda dars berish imkoniyatini qo'lga kiritishadi. Bundan tashqari, biz dars jarayonlarini bevosita kamera orqali kuzatamiz va talabalarga qanday dars o'tilayotganini nazorat qilib boramiz.

Alfraganus universitetining tibbiyot yo'nalishi talabalari uchun o'z shifoxonasi borligini eshitib juda ham hayron bo'lgan edim



3-bino sport va turizm fakulteti talabalariga mo'ljallangan. Men kiraverishdayoq bino qaysi yo'nalishga mo'ljallanganini taxmin qildim. Binoning yerto'la qismida sport yo'nalishi talabalari uchun mashg'ulot zallari tashkil qilingan. Bundan tashqari, defektologiya yo'nalishidagilar uchun o'quv laboratoriyasi ham bor. Talabalar o'quv amaliyotini bajarishlari uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Shu o'rinda menda bir savol tug'ildi, universitet mahalliy va xorijiy OTMLar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yganmi?

– Dunyoning yetakchi universitetlari – Turkiyaning Najmiddin Erbakan universiteti, Istanbul tijorat universiteti, Ondokuz Mayıs universiteti, Mersin universiteti, Karamanoğlu Mehmetbey universiteti, Sakarya universiteti, Balikesir universiteti, Xitoyning Pekin chet tillar universiteti, Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'istonning Qarag'anda uni-



versiteti, Taraz mintaqaviy universiteti, Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti, Qirg'izistonning O'sh davlat universiteti, bundan tashqari, Yevropaning eng mashhur universitetlari bilan ham yaqindan hamkorlik qilinadi. Buyuk Britaniyaning Education Quality Assessment Services, Germaniyaning Konstanz texnologiya, iqtisodiyot va dizayn universiteti, Rossiyaning Boshqirdiston davlat universiteti, Shvetsiyaning Lund universiteti, Chexiyaning Praga menejment va texnologiyalar instituti, Latviyaning Latviya tabiiy fanlar va texnologiyalar universiteti va Amerika Qo'shma Shtatlarining Florida markaziy universiteti, Hofstra universiteti, yaqinda esa dunyoga mashhur Kembrij universiteti bilan ham hamkorlik aloqalarini o'rnatdik. Birgalikda olib borayotgan ishlarimiz o'z natijasini ko'rsatib kelmoqda. Mamlakat ichida Webster universiteti, Perfect universiteti kabi OTMLar bilan ham yaqindan hamkorlik qilamiz. Universitet oliy ta'lim muassasalari bilan bir qatorda, xalqaro nufuzga ega bo'lgan tashkilotlar bilan ham hamkorlik qiladi. Hindistondagi Kvant texnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yaponiya Reigi-Sahou assotsiatsiyasi va Turk Davlatlari Tashkiloti, shular jumlasidandir.

Mana, 4-binoga ham yetib keldik. Binoda tibbiyot fakulteti talabalari tahsil olishadi. 5-binoda esa Alfraganus shifoxonasi joylashgan. To'g'risi, Alfraganus universitetining tibbiyot yo'nalishi talabalari uchun o'z shifoxonasi borligini eshitib juda ham hayron bo'lgan edim va ko'zim bilan ko'rishni xohlagandim. Shifoxonaga kirishingiz bilan dunyoning rivojlangan mamlakatlari shifoxonasiga kirgandek his etasiz o'zingizni. Shifoxona Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy davlatlaridan olib kelingan zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangani hamda yiliga 2 mingta jarrohlik amaliyotini amalga oshirishi haqida eshitib, o'zimning ham Alfraganusda tahsil olgim keldi. Eng yaxshi tomoni, universitet talabalari 2-kursdan shu yerda amaliyot o'tashlari mumkin ekan. Lekin shu yerda bir savol paydo bo'ladi. Talabalar chet elda to'g'ridan-to'g'ri amaliyot o'tab kelishlari uchun qanday imkoniyatlar mavjud?

– Universitet tomonida talabalarga hamma imkoniyatlarni yaratishga harakat qilamiz, – dedi Kamola Abduvaliyeva. – Shu sababli o'tgan o'quv yilida tibbiyot, raqamli texnologiyalar, turizm va iqtisod yo'nalishida o'quvchi ayrim talabalar Turkiya hamda Hindistonda bir oy amaliyot o'tab qaytishdi.



**Ba'zi talabalar
hozir oyiga 700
dollar atrofida pul
topmoqda**



Quvonarlisi, universitetda zamonaviy kasblar qo'shimcha mashg'ulot sifatida o'qitilayotgani bo'ldi. Masalan, logistika sohasi. Bu sohada 30 nafar talaba ustoz-shogird an'anasi bo'yicha o'qitilgan. Ular ikki yo'nalishda – ingliz tilini biladiganlar AQSH logistikasi, o'zbek-rus tilida gapiradiganlar Markaziy Osiyo logistikasi bo'yicha tayyorlangan. Natijalar yomon emas. Ba'zi talabalar hozir oyiga 700 dollar atrofida pul topmoqda. Bizningcha bu zamon talabi...

Universitetdan chiqishimga soat 4 dan o'tib qo'yg'an ekan. Bir olam taassurot bilan qaytdim va ularni sizlar bilan bo'lishdim.

Xulosa o'rnida aytishim mumkinki, bizda odamlar o'zi bilmagan narsalardan qo'rqishadi. Chunki hamon xususiy universitetlarda o'qiganlarning ish topishi qiyin, olgan diplomi hech qayerga o'tmasdan, sarson-sargardonlikka mahkum bo'ladi, degan tushuncha ustunlik qilmoqda. Aslida-chi? Qachonki, diplomni emas, ilmni baholashni o'rgansak, bu foydamizga ishlay boshlaydi, aniqrog'i, rivojlantirishimizga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Dushmanlaringiz bormi?
Yaxshi. Bu degani, siz hayotingizda biror marta nimanidir qattiq himoya qilgansiz.

Aqlli odam hamma xatoni o'zi qilmaydi, boshqalarga ham imkoniyat beradi.

O'z fikrini hech qachon o'zgartirmaydigan odam – ahmoq odam.

Yaqinlaringizga sog'lik va boylikdan ko'ra ko'proq omad tilang. Zero, "Titanik" dagilarning hammasi badavlat va sog'lom edi. Omad esa sanoqlilarga nasib qildi.

Hayotning eng ulug' saboqlaridan biri shuki, ba'zan ahmoqlar ham haq bo'lib chiqishadi.

WINSTON
Cherchill:

Biz katta voqealar va mayda odamlar davrida yashamoqdamiz.

Mamlakat uchun og'ir kunlar boshlanganda, afsonalar jonga oro kiradi.

**YOLG'ON
DUNYONING
YARMINI
AYLANIB
CHIQQANDA...**

Hayotim davomida men tez-tez so'zlarimni yeyishga majbur bo'ldim va tan olishim kerakki, buni har doim foydali parhez deb topdim.

Birovni o'ldirishdan ko'ra uni sotib olgan afzal, chunki o'limdan ko'ra sotilish ma'qulroq.

“

Har bir akillagan itga tosh otaversangiz, manzilga hech qachon yetolmaysiz.

Siyosat urushga o'xshaydi, farqi shundaki, urushda bir marta o'lasan, siyosatda esa ko'p marta o'lasan.

Burgutlar jim qolganda, to'tiqushlar tilga kiradi.

Yaxshilash – o'zgarish; mukammal bo'lish – tez-tez o'zgarish.

Demokratiyaga qarshi eng yaxshi dalil oddiy saylovchi bilan besh daqiqalik suhbatdir.

Tarix menga mehribon bo'ladi, chunki uni o'zim yozish niyatidaman.

Kuch yoki aql emas, doimiy harakat – bu bizning potentsialimizni ochishning kalitidir.

Menga yosh konservatorni ko'rsating, men sizga yuragi yo'q odamni ko'rsataman. Menga keksa liberalni ko'rsating, men sizga aqli yo'q odamni ko'rsataman.

Biz xalq farovonligi uchun soliq solish – chelakda turib, o'zini tutqich bilan ko'tarishga urinish, deb ta'kidlaymiz.

Astor xonim: "Uinston, agar men sizning xotiningiz bo'lsam, qahvangizga zahar solgan bo'lardim."

Uinston Cherrill: "Nensi, agar men sizning eringiz bo'lsam, uni ichardim."

Biz aytilmagan so'zlarimizning xo'jayinimiz, lekin tilimizdan sirg'alib ketganlarining qulimiz.

Ikki kishi urishsa, uchinchi yutib chiqadi.

Siyosatchi ertaga, keyingi hafta, keyingi oy va keyingi yil nima bo'lishini bashorat qilish qobiliyatiga muhtoj. Va keyin nima uchun bu sodir bo'lmaganini tushuntirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Tinchlantiruvchi – bu sizni timsoh oxirgi marta yeyayotganini aytib taskin beradigan odam.

O'sha kunlarda u hozirgidan ko'ra dono edi – tez-tez mening maslahatlarimga quloq solardi.

Yolg'on dunyoning yarmini aylanib chiqqanda, haqiqat shimini kiyayotgan bo'ladi.

Urushda yaxshi g'alaba qozona oladiganlar kamdan-kam hollarda yaxshi tinchlik o'rnata oladilar va yaxshi tinchlik o'rnata oladiganlar hech qachon urushda g'alaba qozonolmaydilar.

Hunarmandlik ham mahoratga, ham yolg'onga xosdir.

Jasorat – ishtiyoqni yo'qotmasdan muvaffaqiyatsizlikdan muvaffaqiyatsizlikka o'tishdir.

Men xalaqit berayotganimda menga xalaqit bermang.

Hech qachon... bunchalik ko'pchilikning juda ozchilikka qarzi bo'lmagan.

Ustozlarning yaxshilari

Afsonaviy sarkarda Aleksandr Makedonskiydan “Nechun Arastuni otangizdan ortiq izzat qilasiz?”, deb so'rashganida, u: “Otam meni osmondan yerga tushirdi, ustozim esa yerdan osmonga ko'tardi. Ya'ni otam mening dunyoga kelmo'imga sabab bo'ldi. Ustozim orqali esa ilm va odob o'rgandim, martaba hamda izzatim ortdi”, deya javob bergan ekan. Bundan ko'rinadiki, barcha davrlarda ustozlarning mavqeyi birdek baland bo'lgan. Albatta, bugun ham yosh avlodning yetuk hamda barkamol bo'lib shakllanishida ustozlarning o'rni beqiyos.

O'qituvchi va murabbiylarning mehnatlarini munosib rag'batlantirish ularga ilm ulashishdek mashaqqatli yo'lda kuch bag'ishlaydi desak, adashmagan bo'lamiz. Mamlakatimizda bunga alohida e'tibor qaratilishi hech kimga sir emas.

“O'qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan bir qancha ustozlar “Oliy ta'lim a'lochisi” hamda “O'rta-maxsus va professional ta'lim a'lochisi” ko'krak nishonlari bilan taqdirlandi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tashkil etilgan ushbu tadbirning bayramona ruhda boshlangani ishtirokchilarga a'lo kayfiyat ulashdi. Marosimda o'z sohasida fidokorona mehnat qilib kelayotgan professor o'qituvchilar va shu sohada faoliyat olib borayotgan mutasaddi rahbarlar ham ishtirok etdi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalari vaziri Ibrohim Abdurahmonov taqdirlash marosimini ochar ekan, prezidentimiz tomonidan so'nggi yillarda o'qituvchi va murabbiylar, ilm-fan sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlar uchun munosib sharoit yaratilayotgani, bugungi tadbir ham shu islohotlar natijasi ekanini ta'kidladi:





**“Otam meni
osmondan
yerga tushirdi,
ustozim esa
yerdan osmonga
ko’tardi**



– Barchamizga bilim bergan, hayot yo’limizni topishga katta hissa qo’shgan, umrini yoshlar tarbiyasidek sharafligina kasbga bag’ishlagan, shu bilan birga ta’lim tizimida fidoyilarcha mehnat qilgan siz jonkuyar o’qituvchi, murabbiy va ilm-fan zahmatkashlarini kasb bayramingiz bilan chin dildan qutlayman. Ilk bor ushbu ko’krak nishonlarini o’z egaloriga topshirishdan mamnunman, – dedi vazir.

Shundan so’ng oliy, o’rta-maxsus va professional ta’lim sohasidagi faoliyati bilan hamkasblariga namuna bo’layotgan va soha rivoji uchun o’zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan bir guruh fidoyilarga ko’krak nishonlari tantanali ravishda topshirildi.

Biz esa e’tirofqa loyiq deb topilgan faxriy ustoz, O’zbekiston milliy musiqa san’ati institutining ta’lim sifatini nazorat qilish bo’limi boshlig’i Nasiba Yo’ldoshevaning taassurotlari bilan qiziqdik:

– Avvalo, kamtarona mehnatlarimizni yuksak baholagan insonlarga minnatdorchiligimni bildiraman. O’ylaymanki, har qanday mukofotning ostida juda katta mehnat yotadi. Mehnatlaring samarasini ko’rish insonga o’zgacha bir kuch beradi. Samarali mehnat qilish uchun kishi o’z kasbini sevishi lozim.

Tadbir davomida O’zbekiston sa’nat va madaniyat instituti talabalari tomonidan tayyorlab kelingan kuy-qo’shiqlar marosimga o’zgacha kayfiyat bag’ishladi.

O’qituvchilar kuni munosabati bilan vazirlik markaziy apparati, hududiy bo’linmalari hamda ushbu tizimda faoliyat olib borayotgan bir guruh xodimlarning mehnatlari ham e’tirof etilib, ularga minnatdorchilik sifatida esdalik sovg’alari topshirildi.

✍ **Madina HAMROQULOVA**
📷 **Ildambek VALIJONOV** suratlari



QULMAN OCHIL

GERI GEDAN

(HIKOYA)





stoz! Ushbu xatimni o'qib chiqqach kompyuteringizdan o'chirib tashlang. Unga begonalarining ko'zi tushib, faqat o'zingizga ishonib aytayotgan sirimdan voqif bo'lishlarini va ustimdan kulishlarini istamayman.

Juda xunuk, juda yomon ish qilib qo'ydim. Bugun ikkinchi kuni, lekin hali-hamon eslasam, yuragim orqaga tortib ketayotir. Yo'q, pushaymondan ham, qo'rqqanimdan ham emas, andishadan! Balki, uchallasidan hamdir.

Bu sitam, bu ko'rgulik, bu isnod menga qayerdan, qanday yopishdi? Ko'zga yaqin ayol bo'lganim uchunmi? Erim – Nodirbek akam Yaponiyaga ketgach, yolg'izlanib qolganim uchunmi? Bilmayman.

Garchi o'sha kuni peshindan keyin ishxonadan chiqib ketayotib pollarni artib yurgan farrosh ayoldan, yo'lakdagi qon qayerdan paydo bo'lganini so'raganimda, u oqizmay-tomizmay aytgan gaplardan ko'nglim biroz taskin topgan bo'lsa-da, haligacha ichimni it tirnab yotibdiki, oxiri yo'q. Farrosh opa to'lib turgan ekan, yozg'irib ketdi: "anavu noskash yigit" zinapoyadan ikkinchi qavatga chiqqan joyida yiqilib tushibdi. Ertalabdan aroqqa to'yib olib, ustidan tinimsiz nos chekkan odamning holi yana nima kechishi mumkin? Sip-silliq marmarning ustida ham eplab yurolmaydi bu yoshlar. Boshi aylanib, yiqilgan emish. Men sizga aytsam, faqat shu bola emas, galastuk taqib, o'zicha po'rim bo'lib yuradigan duppa-durust boshqa erkaklar ham xonasida o'tirib nos chekadi-da, chiqit solinadigan chelakka tuflaydi. Qarabsizki, kechgacha ham xona sasib ketadi, ham chelakka qarab bo'lmay qoladi – tupukka to'ladi. Bunisi ham mayli, nosini to'g'ri kelgan joyga – koridorga, gultuvakka, eshiklarning orqasi-yu zinapoyalarga tuflab ketishini aytmaysizmi... Tozalaguncha ko'ngillarim aynib ketadi... Nima? Ha, do'xtir ko'ribdi. O'zimizning do'xtir. Og'zi-burniga paxta tiqib qo'yibdi. Tishlari singan emish. Yuzlari do'mbira bo'lib ketibdi. O'zim ko'rdim. "Damas"ga solib, apiltapil uyiga jo'natib yuborishdi. Ortiqcha gap-so'zdan qochishdi, chamasi. Ichib olgan ekan-ku!..



Men yetakchi mutaxassis bo'lib ishlaydigan bankda, ayniqsa, bizning kredit bo'limimizda o'ying oxiri yaqinlashganida "it egasini, mushuk xo'jasini tanimay qoladi". Odamlarga kredit berish oson, undirish azob. Ana shu azobni deb o'ying oxirida hammani "to'lg'oq tutadi". Ba'zan shanba, yakshanba kunlari ham ishlaymiz. Qarzdorlarga birma-bir sim qoqib, kreditini so'ndirishini iltimos qilamiz. Bu gal ham shunday bo'ldi – mart oyining oxirgi shanbasi filialimizda ish kuni, deb e'lon qilindi. Men sahar mardonda ishga keldim. Mo'ljalim jumada chala qolgan ishlarimni ertaroq tugatib, "yorug' yuz bilan" uyimga qaytish, yo'l-yo'lakay bozor-o'char qilish edi. Uch oydan oshdi, erim Tokio universitetiga stajirovkaga ketganlaridan buyon, uy-ro'zg'or tashvishlari to'la o'zimga qolgan.

Soat o'n ikkidan o'tganda xonamga Mansur kirib keldi. Xushbichim, lekin yuz-ko'zidan surbetligi va xudbinligi shundoq ko'rinib turgan o'ttiz besh yoshlardagi dimog'i bo'yidan baland yigit. Marketing bo'limiga ishga kelganiga hali ko'p bo'lgani yo'q.

Uni birinchi marta ko'rganimda "devorga suv purkab, somonini oladiganlar xilidan ekan", deb o'ylagan edim. Yanglishmagan ekanman.

Kalta olingan qora sochlari moy surtilganday yaltirab turgan bu po'rimboyvachchani ko'rib, ensam qotganini yashirmadim: "sen yetmay turuvding!"

– Bir iltimos bilan keluvdim, – dedi u.

Hayron bo'lib o'rnimdan turdim. Erkak kishi, buning ustiga yoshi katta odam, tik tursa-yu ayol qarshisida yalpayib o'tirsa, g'alati bo'lar ekan.

– Iltimos?

– Ha. Iltimosim: endi iloji boricha, har kuni shu libosingizda yursangiz. Qizil koftangiz, bellari ingi-ichka, korsoni ke-eng, to'pig'ingizga bosh urib turgan lippalari to-orgina qora sharavoringiz, chiro-oyli boshingizning ortiga tortilib, chiro-oyli turmaklangan kashtan rangli sochlaringiz sizga shunaqayam yarashibdiki, ishxonamizdagi ayrim yigitlar tuni bilan uxlayolmay chiqayotir! – U "ayrim" so'ziga alohida urg'u berib aytdi va birdan ashula ohangiga o'tdi. – "Dehqon o'g'li Barotning uyqusida "oq-oltin"!

Mansur o'zining bu gaplaridan o'zi huzur qilib, sharaqlab kuldi.

Maqtov kimga yoqmaydi? Uning bu chiroyli gaplari, o'xshatishlari menga ham yoqdi. Lekin, ichimdagi quvonchni sirtimga chiqarmadim. Sababi, bu kichkina daromadning zamirida kattagina ta'ma yashiringanini ko'nglim sezib turardi.

– Shoir bo'p keting-ey! – Shunday dedim-u darhol pastki labimni tishladim: sirtingga chiqarmaganing shumiy?

– Siz hali mening shoirligimni, besh yil nashriyotda ishlaganim-u, hatto kitobim ham chiqqanini bilmaysiz-da?

– Yo'q, – men ham moliya institutini tugatgunimcha, to'rt yil, haftalik gazetada musahhihlik qilganimni, bir qancha maqolalarim chop etilganini aytmoqchi bo'ldim-u, fikrimdan qaytdim. Gapni cho'zib, chuvalantirib nima qilaman.

– Nega kitobimning nomini so'ramayapsiz?

– O'zingiz aytarsiz...

– "Qiyname, yor", – dedi u ma'noli qilib. – Bir nechta she'rimni ashula ham qilishgan, radiodan ham berib turishadi.

Indamadim. U stolim qarshisidagi bo'sh kursilarga qaradi. Maqsadini sezib, sezmaslikka oldim. Shu bilan tomoshaning muqaddimasi tugab, asosiy qismi boshlandi.

– Kechagi taklifim nima bo'ldi? – dedi u qarzini so'rab kelgan odamday dab-durustdan. – Boramizmi?

– Qayerga? – dedim va joyimga o'tirib, kompyuterimning o'chib qolgan qop-qora monitoriga tikildim. Yomon bir hodisa yuz berishini sezganday qovoqlarim uchib, ichimdan titroq ko'tarilib kela boshladi. – Tavba! Meni kim deb o'ylayapsiz, o'zi?..

Mansur bepisand kuldi. Kulgusining zamirida go'yo, kim bo'larding, hamma ayol qatori bir ojizasan-da. Farqing shu – beliga birinchi marta egar urilgan toyday pishqirayapsan. Mingi bo'lsang, boshlagan tomonimga jimgina yo'rtib ketaverasan. Senga o'xshagan tegma noziklarning ko'pini mingi qilganman. Sen ham qochib qutula olmasan, degan ma'no bor edi.

– "Qayerga, qayerga?" deyaverarkansiz-da? Qayerga bo'lardi? Kafe-ega-a! Birga tushlik qilamiz, dedim-ku!

U chekkadagi kursiga o'tirdi. Qora kostyumining tugmasini yechib, bo'ynidagi havorang galstugini bo'shatdi.

– Kechirasiz-u, men ilgari ham siz bilan kafe-mafelarga borib yurarmidim?

– Bormagan bo'lsangiz, endi borasiz!.. Xonangiz yorug' va juda shinam ekan. Havo bulut bo'lsayam, yashnab turibdi. Tuvaklardagi gullarning zo'rli-





gini qarang. O'zingizdek go'zal va xushbo'y!..

– Tushunmadim! Bu qanaqa aljirash?

– Aljirash?.. Menga qarang, nega haqorat qilasiz? – U o'zini go'yo tutoqib ketgan odamning qiyofasiga solmoqchi bo'ldi, biroq o'xshatilmadi. – Men sizga nima yomonlik qildimki, tilingizdan buncha zahar tomadi? Yo arpan-gizni xom o'rdimmi?

“Rostdan ham, sal oshirib yubormadimmi?” degan o'y xayolimdan o'tdi. Balki, behuda qizishayotgandirman? Sal odamshavandaroq muomala qilsam bo'larmidi? Ammo, ikki kundan beri xonamga kirib, asabimga tegayotgan bu so'takka qo'yib bersam, kal ko'ngli nimalarni tusa-maydi. Shu yerda, xonamda tashlanib qolishdan ham toymaydi.

– Bor-yo'q aybim, sizni hamkasb sifatida bir piyola choyga taklif qilayapman. Chiroylisiz, go'zalsiz deyapman. Sizni gullarga o'xshatayapman. I vsyo!

– O'zingizni go'llikka solmang. Hamma gap ana shunday beozor takliflardan boshlanadi. Choyingiz uchun ham, gulingiz uchun ham rahmat. Maqtovingizga zor emasman. Xudoga shukr, erim, bola-chaqam bor. Meni tinch qo'ying! Chiroyli gaplaringizni uyingizga borib, xotiningizga ayting!

– Siz juda chiroyli bo'lsangiz, go'zal bo'lsangiz, mening aybim nima? Anavu Murshidadek qoqsuyak bir tasqara bo'lganingizda, yalinsangiz ham burilib qaramasdim.

– Marhamatingiz, lutfingiz uchun rahmat! Lekin siz bilan laqillashib o'tirishga vaqtim ham, toqatim ham yo'q. – Ovozimga imkoni boricha rasmiyroq va sovuqroq tus berdim. – Iltimos, Mansur aka, xonamdan chiqib keting!

– Chiqmasam-chi? Chiqmasam, nima qilasiz? Shallaqilik qilib, bo-shingizga odam yig'asizmi?

– Undan ham battar qilaman!

– Buni qarang, a! Juda qo'rqitib yubordingiz-ku! – U uzun oyoqlarini chalkashtirib oldi. Uchi nayzadek ingichka qora tuflisining uzunligi bir quloch kelarkan. – Chiqmayman! Bilganingni qil!


– Nima-a? – g'azabim qo'zib, o'rnimdan turib ketdim. Dimog'imga aroq hidi urildi. – Nega sensiraysiz?

Mansur pinagini ham buzmadi. Bilaks, xirs bilan tikildi. “Qult” etib yutindi va mazxaraomuz tirjaydi:

– Ering ham Tokioda so'pilik qilib yurmagandir. Yapon geyschalari bilan “bahoriy suhbatlar” qurayotgan bo'lsa, ne ajab!

Qo'lim bilan yana eshikka ishora qildim:

– Ko'p valdirayvermasdan, chiqing xonamdan!..



– “Chiqing-chiqing!” emish. Chiqmay-ma-an!.. O'zing chaqirib, o'zing haydaysanmi?

– Nima-a?

– Eshitganing!.. Boya xonangning oldidan o'tayotganimda o'zing “birrovgina buyoqqa qarang, Mansurjon aka, iltimo-os”, deb chaqirib olding-ku!..

Bu gaplarni eshitib, tilim kalimaga kelmay qoldi. Alamdan ko'zlarim qonga to'lib, yuzlarim qizarib-bo'zarib, lovullab ketganini sezdim. Mansur yana, bu gal tahqir-u tazyiqini yashirishga ham urinmasdan kuldi: shunaqa, meni qo'rqita olmaysan! Dod solib, rahbarlarga arz qilsang, hamma aybni o'zingga ag'daraman. O'zi yopishdi, deyman. “G'unajin ko'zini suzmasa, buqacha ipini uzmaydi”. Men erkakman, sen esa ojiza. Shilqimlik erkakning fazilati bo'lsa, ayolning kulfati. Dog'ini bir umr yuvib ketkazolmaysan! Bir umr! Bu gaplardan ering xabar topsa, xabar topishi esa tayin, ko'ngliga shubha-gumon oralaydi. Shubha-gumon oralasa, bahringdan kechadi. Shunday ekan, imijimida “xo'p” de. Afsus qilmaysan.

– Kecha ham o'zing chaqirgan eding, – deb davom etdi u. – Guvohim bor. Telefon qilganingda, xonadoshim Mutal yonimda edi. “Meni Salimaxon chaqiryaptilar, boray-chi, qanday dardi bor ekan”, dedim. Mutal sirli kuldi: “qanday dardi bo'lardi, eri chet elga ketganidan beri o'zini qo'yarga joy topolmay yuribdi”.

O'sha paytda Mansurning bu gaplarini yo'l-yo'lakay to'qib chiqarilgan shunchaki tirraqi gap, deb o'ylagan edim. Keyinchalik yuz bergan voqeani idrokimdan o'tkazar ekanman, Mutal rostdan ham aytgan, mana bu ovsar Mansurga pishang berish uchun qitmirlik qilgan bo'lishi ham mumkin-ku, degan taxmin xayolimga keldi. Sadqai hamkasb ket, Mutal! Sadqai hamshaharlik ket, Mutal! (“Toshkanda tavallud topgan bo'lsangiz ham, siz – buxoroliksiz, Salimaxon! Negaki, padaringiz Buxoroi sharifdan...”)

– Yolg'on! – dedim tutoqib. – Men sizga hech qachon telefon qilmaganman. Qilmayman ham! Yolg'on gapirishdan, tuhmat qilishdan uyalmaysizmi, Mansur aka? Xudodan qo'rqmaysizmi? Axir, sizning ham onangiz, xotiningiz, bola-chaqangiz bordir! Qizingiz bordir!..

– Bo'lsa-chi? – gapimni bo'ldi Mansur. Surbetlarcha bergan savolida qahraton qishning sovug'i, qorli cho'qqilarning metinligi bor edi. –




Men seni jarga itarayotganim yo'q-ku! Bir piyola choyga taklif qilayapman, xolos!..

– Men esa nomahram erkak bilan kafelarda yetaklashib yurib, el-yurtga gap-so'z bo'lganimdan ko'ra, jarga qulab o'lganim yaxshi, deyapman! Tushunmadingizmi?

– Tushundim, – dedi u va boshini beparvo irg'adi. – Bunaqa kitobiy gaplarni juda ko'p eshitganmiz.

– Bir narsaga tushunmayapman. Nega menga buncha yopishib oldingiz? Ko'cha to'la qiz, juvon... Boring, o'shalardan birortasining boshini aylantiring...

– Har gulning o'z tarovati bor. Bildingmi?.. – U joyidan turdi. – Bo'ldi! Shuncha noz-firoq qilganing yetar. Men ushlagan joyini kesadigan odamman. Maqsadimga yetmagunimcha qo'ymayman. Xomtama bo'lma!



– Hali shunaqami?

– Shunaqa!

– Gaplaringizga qaraganda, ancha-muncha kitob o'qigan ko'rinasiz?

– Nima, tupoy deb o'ylaganmiding?

– O'sha o'qigan kitoblaringizda, mabodo, “chuchvarani xom sanama” degan maqolga ko'zingiz tushmaganmidi?

– Yo'q! Aksincha, “husni borning – nozi bor”, “yurmaydigan” ayollar emas, noshud erkaklar bo'ladi” degan gaplar bot-bot uchragan! Bo'ldimi? Arazing tugadimi? Ketdikmi? Yo ering Nodirlangdan shunchalik qo'rqasanmi?..

Ustoz, yodingizda bo'lsa kerak, universitetda adabiyotdan saboq berib o'tgan rahmatlik dadam, Sizing huzuringizga boshlab borganida men to'qqiz yoshli xasta bir go'dak edim. Zotiljam, degan balo vujudimga zulukdek yopishib, kun bermay qo'yan kezlar edi. Maktabda, bolalar o'rtasida, “Salimjon – nimjon” degan nom olgandim. Ismim Salima bo'lgani uchun emas, o'ta nimjonligim uchun shunday deyishardi. Maktab papkasini ham ko'tara olmaydigan ayanchli ahvolga tushib qolgan edim-da. Bolalarning har qadamda masxaralashi, betobligim, uzluksiz dori-dormon iste'moli, oylab shifoxonada yotish, holsizlik va chorasizlikdan dunyo ko'zimga tor ko'rinib ketardi. Yig'lardim. Ayanchli ahvolimni ko'rib, onam ham qo'shilib yig'lardilar. “Salimjon-nimjon” deb kalaka qilgan bir bolaning bilagini tishlab olganim ham yodimda.

Ana shunday kunlarning birida kimdir dadam rahmatlikka, qizingizni yaxshi murabbiyga shogirdlikka bering, sport bilan shug'ullansin, debdi. Yaxshi murabbiy, buning ustiga ayol murabbiy topish o'sha paytlarda oson ishmid! Dadam bechora jamiki tanish-bilishlarini ishga solib, bir oy deganda topgan edi Sizni. O'n yil, to Nodirbek akam uyimizga to'y jo'natib, fotihamiz bo'lmagunicha, Sizing ta'lim-tarbiyangizni oldim. Hozir ham Siz chizgan chiziqdan chiqmayman: “ojizlarning, nogironlarning ustidan kulish, ularga ozor berish sportchi uchun kechirib bo'lmas – gunoh!” Lekin ojizni, nogironni haqorat qilayotgan, kamsitayotgan kimsani ko'rib, jim turish ham savob ishlardan emas-ku, ustoz!..

Mansur erimni ataylab kamsitdi: “lang – cho'loq”, dedi. Erimning oqsoqlanishini bu kaltafahmga Mutal aytgan! Onang ko'kingni kiygur, kaltabaqay Mutal sotgan! Nodirbek akam bilan Eski jo'vada yurganimizda ko'rgan edi. Mutalning o'zi ham yangi yil oqshomida kayfi taroq bo'lib suykalganida (“suhbati du, anda maza-ku!”), gap bilan og'ziga urgan edim: yo'lingizdan qolmang!.. Ha, Mutal aytgan. Yo'qsa, shuncha gapni kecha ishga kelgan Mansur qayer-



dan, kimdan biladi?.. Yana bir ishtibohim borki, Mansurning menga kanadek yopishib olishi garov o'ynagan odamning qiliqlarini ham eslatadi. “Shu xonimchanning boshini aylantira olaman!” “Aylantirib bo'psan!..” “Beshni tashla!..”

Alam qildi! O'zining umr yo'ldoshi, yostiqdoshi haqida bunday haqoratni eshitgan qay bir ayol jim tura olardi? To'g'ri, Nodirbek akam chap oyog'ini avaylabroq bosadilar. Lekin, erim onasidan shunday – nogiron tug'ilmaganlar yoki bu dardni ayrimlardek, mast-alast rulga o'tirib, avariya uchrab, “pulga sotib olmaganlar”. Bo'zsvuga cho'kib ketayotgan mashinadagi odamlarni qutqaraman, deb shu ko'ygga tush-

ganlar. Oyog'ining payi uzilib, etlari ezilib ketgan. Olti oy kasalxonada, uyda oyog'ini bosolmay yotganlarini avvalgi xatlarimda yozgan edim. Bilasiz.

Ustoz, Siz – ofitserning rafiqasisiz. Iste'foga chiqquncha, eringizni qaysi viloyatga ishga yuborishsa, izidan bir umr soyadek ergashib yurgansiz va turmushning barcha achchiq-chuchuklarini birga baham ko'rgansiz. Bu haqda bizga doim faxr bilan gapirar edingiz. Bunday gaplaringizni eshitib, Sizga qanchalar havasimiz kelganini bilmaysiz. Endi tasavvur qiling: umr yo'ldoshingizni og'ziga kuchi yetmagan bir kimsa oldingizda haqorat qilsa, chidab turarmidingiz? Yo'q, yaxshilab adabini berardingiz!..



“Ering Nodirlangdan shunchalar qo'rqasanmi?”

Meni hech kim, hech qachon bunchalar qattiq haqorat qilmagan, kamsitmagan edi. O'mganimdan o'tib ketdi. Quloqlarim chippa bitib, etlarim muzlab qoldi. Qo'limda pichoq bo'lmaganiga juda afsuslandim. Pichoq bo'lganida sog' qo'ymasdim. Umrим qamoqda o'tsa ham, shu gapi uchun Mansurni tilka pora qilib tashlardim. Endi o'ylasam, Xudo bir saqlagan ekan... Tanglayim qurib-qaqshab ketganini sezdim. O'tirib qoldim. Oldimda turgan choynakka qo'l uzatdim, lekin undan piyolaga bir tomchi ham tushmadi. Ertalabdan beri choy damlashga ulgurmagan ekanman... Choynakka qo'l cho'zganimni ko'rib, Mansur menga yalt etib qaradi. Aftidan, choynak bilan boshiga solib qolishimdan cho'chidi. Jurnalda ishlaydigan bir dugonamga muharriri tixirlik qilganida, kallasiga choynakni “kiydirib qo'ygan” ekan. Ustoz, Siz, Jahl otidan uzoqroq yurib, Sabot otini qo'ldan qo'ymanlar, deb ko'p aytar edingiz. Sababi – Jahl otining boshida yugani bo'lmaydi, ayili bo'sh, jabdug'i juldur, yollari kalta, o'zi sarmast, borar joyi past bo'ladi. Sabr va sabot otining jilovini tutganlarning – aql bilan ish qiladiganlarning borar manzili ham, yuz-ko'zi ham doim yorug' bo'ladi. O'sha alamli va ayanchli, g'ussaga botib, xo'riligim kelib turgan lahzalarda Sizning ushbu o'gitingizni esladim. Esladim-u Sabot otining jilovidan tutdim – o'zimni bosdim. Qiziqqon shogirdingizning o'zini bosishi qanchalar qiyin bo'lganini yozib o'tirmayman. Ammo men – qo'li baland kelib, g'alabani cho'ntagidagi pulday naqd qilib qo'ygan raqiblarini ham eng so'nggi daqiqalarda dog'da qoldirib o'rgangan shogirdingiz emasmanmi!..

Mansur bilan pachakilashib o'tirish foydasiz ekanini tushundim. Kuldim:

– Bo'ldi! – dedim va o'rnimdan turdim. – Bema'ni hazillaringizni qo'ying. “Yo ostidan, yo ustidan” degan ekan bir tavakkalchi. Ketdik!

– Ana bu boshqa gap!.. – Mansur menga ishonqiramay qaradi va chalkashtirib o'tirgan oyoqlarini tushirdi. Men uning ko'ziga tik qaradim. Har biri kosadek keladigan kattakon ko'zlarida ham hadik, ham hayrat, ham shubha zuhur edi. Yana esimda qolgani – uning ko'zlari peshonasiga yopishtirib qo'yilgandek, siyrak qoshli manglayidan bo'rtib chiqib turardi.



– Xo‘o‘sh, qani, qaysi kafega boramiz? – dedim uni chalg‘itish, o‘y o‘ylashi uchun fursat-u imkon qoldirmaslik uchun.

– “Bek” degan kafega. Alohida xonalari ko‘p.

– Innankeyin-chi? – dedim o‘zimni o‘ynoqi ayol qiyofasiga solib.

– Innankeyin, qorong‘u ham tushib qoladi... – Uning ko‘zlari sirli yil-tiradi. – Chilonzorda ikki xonali kvartiram bor. Hilvatgina joy...

– O‘zlarinikimi yo?..

– O‘zimniki desam ham bo‘laveradi. Lekin aslida tog‘am o‘g‘illari uchun olib qo‘yganlar.

– O‘-o‘! Tog‘angiz ham o‘zingizdek, boyvachchamilar, deyman.

– Prokurorlar...

“Ha-a, dimog‘ining balandligi-yu hech narsadan taptortmasligining sababi bu yoqda ekan-da!” – degan fikr xayolimdan o‘tdi. Yana o‘ylandim, balki aldayotgandir? O‘zicha po‘pisa qilayotgandir: ortimda qanday odamlar turganini bilib qo‘y! Aslida, prokurorning jiyani bo‘ladimi, somsapazning – nima farqi bor?

– Buni qarang, soat birdan oshibdi-ku, – dedim go‘yo o‘rtada ach-chiq-chuchuk gaplar bo‘lmagandek. – Bo‘pti. Siz tashqarida kutib turing. Men hozir...



– O‘ key!

Mansur bir lahza o‘ylanib turdi-da, eshik tomon yurdi. Chiqish oldidan ortiga burilib, menga sinovchan qaradi. Gapim jiddiy ekaniga ko‘ngli to‘ldi, shekilli, ortidan eshikni yopdi.

Bir pastdan keyin qizil gulli adras sharfimni bo‘yninga tashlab, yo‘lakka chiqdim. Sokinlik. Mansur zinapoyaga yaqin joyda betoqat kutib turardi. Meni ko‘rib, qo‘li bilan “pastga tushaveraymi?” deb ishora qildi. Chamasi, ishxonadan birga chiqib ketishimizni istamayotir.

“Yo‘q!”

Mansur tomonga yurdim. Butun vujudim varaja bosgandek titrardi. Qiziq, ne bir musobaqa-yu chemionatlarda qatnashib, yengib, yengilib, qo‘l-oyoqlarim lat yeb, bunchalar qattiq iztirob-u alam, hadik va haya-jon tuymagan edim. Buning sababini keyin angladim: musobaqalarda raqiblarim doim ayol kishi bo‘lgan, qolaversa, ular o‘z nomi bilan “musobaqa” edi! Qarshimda esa imonini yegan bir erkak turardi!

To‘qqiz-o‘n metrlik masofa uzoq, behad uzoq tuyuldi.

– Eshigingni qulflamading-ku?

– A? – Boshimni ilkis ko‘tardim va Mansurga yuzlandim. Lablarimda qaynoq va sho‘r ta‘m tuydim. Ko‘z yoshlarim sel bo‘lib oqmoqda edi. – Mansur!

– Ha?.. E-e, senga nima bo‘ldi?..

– Mana bu erimni kamsitganing uchun!

Uning ikki soni o‘rtasiga tepdim. Yo‘q, qattiq tepmadim. Mayib bo‘lib qolishidan cho‘chidim. Mansur “hiq!” etdi-yu, qo‘llarini da‘fatan qovug‘i ustiga qo‘yib, oldinga, tizzamgacha egildi. Ixradi.

– Bunisi meni haqorat qilganing uchun!.. – O‘ng kaftimning qirrasini bilan uning bo‘yniga urdim. Urish asnosida, devday gavdaga no‘xatday kalla, qilday bo‘yin bergan ekan, degan o‘y xayolimdan o‘tdi. Mansur yuz tuban quladi.

Ikki hatlab xonamga kirdim. Quloqlarim ostida Sizning so‘zlaringiz jaranglaganday bo‘ldi, ustoz: “Bu usul karateda “Geri gedan” deyiladi. Uni mohirlik bilan qo‘llagan sportchiga musobaqalarda eng yuqori ball beriladi!..”



MUHAMMADALI G'AFFOR:

“YOG'DUGA BURKANIB KO'Z YORAR OLAM...”



*Dardlar kattalashib borar, birodar,
Ulg'ayganing sari, o'sganing sari.
Ketmoqqa kichiklik qiladi shahar,
Qishloq ham ko'zingga ko'rinar g'arib.*

*Onangning oqargan sochi – iztirob,
Qabriston otangga berganda qo'nim.
Kun sayin ko'zingni aldaydi sarob,
Kun sayin aldo'vga borasan ko'nib.*

*Kecha kuragini yerga bermagan
Akaning tashvishdan egildi qaddi.
Qadardan qutula olmaydi odam,
Baribir, o'limdan qo'rqasan qattiq.*

*Uyquni qizg'onar qaro kechalar,
Ko'ksingni hijronlar chiqqanda chaqib.
Yerga bag'ring berib yosti'q quchasan,
Ko'zingni yumasan bomdodga yaqin.*

*Tushlar shamolida tebranadi ruh,
Otangning yodini uchirar xayol.
Bolalik. Shudgorda piyoz terasan,
So'ng kulcha keltirar bir baxtli ayol.*

*Tonggi shabadalar to'lg'onar asta,
Yog'duga burkanib ko'z yorar olam.
Baribir, ajoyib tong otar, do'stim,
Garchi tush ekanin bilib yotsang ham.*

Muhammadali G'AFFOR – 1997-yilda Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanida tug'ilgan. O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi. She'rlari adabiy nashrlarda, yosh ijodkorlarning jamoaviy to'plamlarida chop etilgan.



Shamollar shashtimni shoshirdi,
Entikib-entikib chopaman.
Sen kecha lab bosgan g'unchani,
lymanib labimga bosaman.

Na huzur-halovat bor bunda,
Labingning ta'mi ham qochganday.
Mendan erta uyg'onib tongda,
Kapalak dudog'in bosganday.



O'zimni aldashdan charchadim,
Charchadim hammani aldashdan.
Men seni hech qachon sevmadim,
Men sarob ho'plagan sarxushman.

Yo'ldaman, manzilsiz yo'lovchi,
Sahroman, bir karvon o'tmagan,
Podshoman, mehrga tilanchi,
Shoirman biror she'r bitmagan.

Tuproqman yuzimga sochilgan,
Yelkanman dengizda kemasiz.
Kuz kelmay to'kilgan yaproqman,
Ochilgan qabrman egasiz.

Na'raman yo'lbarsning bo'g'zida,
Azroil qoshida ohman men.
Bordekman dunyoning ko'ksida,
Yo'qman men, aslida yo'qman men.



Hali yomg'ir yog'ar,
bi-i-r yomg'ir yog'ar,
Toshkanni suv bosar,
ko'nglimni g'ulu.
Unda ham bahona so'ylar ko'zlaring:
"– Yomg'irda ko'chaga chiqolmayman-ku!
– Soyabonim ham yo'q,
Biroz betobman,
Quyoshli kun yo'qmi sizga shoirim?"

O'shanda, so'zlayman senga bexosdan,
Ko'nglimning tubida yotgan bir sirni.
Men seni...

Yomg'irda bir go'zal ko'rinar shahar,
Gapni ters buraman boshqa tomonga.
Dunyoni unutib qo'yasan agar,
Yomg'irda termulib tursang osmonga.

Kuzgi xazonlarning sachragan aksi
Ko'lmakdan ko'lmakka turar ko'rinib.
Shunday baxt qoshida bo'lsangchi taslim,
Bilmaysan,
ko'rmaysan,
Hech yo'q urinib.

Unda ham men so'zsiz qaytaman ortga,
Qayg'uga eltaman, baxtdor kursini.
Va bexos pichirlab, qayta va qayta,
Men seni...
Men seni...
O'sha xo'rsiniq.

Nilufar ERGASHEVA –

2005-yilda Farg'ona viloyati
Qo'shtepa tumanida tug'ilgan.
O'zbekiston Milliy universiteti
o'zbek filologiyasi fakulteti
1-bosqich talabasi. Zulfiya
nomidagi Davlat mukofoti
sovrindori.

NILUFAR ERGASHEVA:

“Turnalar tortqilar kipriklarimdan...”



*Bu gulgun bog'larim dardni aritar –
Tomirlarim uzra yashar qutlug' qon.
Kaftim – Xudo chizgan buyuk xarita,
Yurmoqqa boshlaydi –
ichimda Turon.*

*Boshimda aylanan o'tmish qushlari
Qay biri jismimni egallamishdir!
Ko'zimda chaqnagan uyg'oq tushlardan
Rango-rang tuslanib o'ngim qamashdi.*

*Tomirlar junjika – jo'shadi qonlar,
Ajdodlar xavotir – avlodin tanib.
Baland minbar qurib neni nishonlar,
Ko'zlari qizargan, mudroq Vatanim!*

*Sen ham yashasayding, maqtovdan xoli –
Tug'ni baland tutmoq botirga xosdir.
Qaysi o'rinlarni ko'zlagan olim
Mashrabning doriga g'ururin osdi?*

*Bog'lar chalpak solar elimga atab,
Shotutlar hosilin mahkam ushlarmi?
Ich-ichimda Turon yig'lab kuzatar
Shuursiz vaysagan to'tiqushlarni...*

Teatrda

Mana sahna. Mana zal.
O'yinchilar ko'rindi.
Parda ortin bilmoqqa
Imkon bermas o'rindiq.

Men o'ylagan sahnani,
O'ylaydimi boshqalar.
Katta bir teatrni
Qo'g'irchoqlar boshqarar...

Nechun egilgan boshi,
Zerikkanmi kutmoqdan?!
Nahot yetmas bardoshi
Boshini tik tutmoqqa.

Ertaklar boshlanadi –
Yaltirar taqinchoqlar.
Hamma narsa mo'l-ko'l deb,
So'ylaydi qo'g'irchoqlar.

Ich-ichimdan to'kilib,
Muzlab ketdi yuragim.
Avji bahorga kelib,
Kuzlab ketdi yuragim.

Hamma mamnun, hamma shod
Qarsak. Qiy-chuv. Olomon.
Tezroq tugasa, chiqsam,
Chuqu-ur nafas olaman...

Tamom. Endi angladim,
Osmondan yulduz termam.
Hech qachon farzandimga
Qo'g'irchoq olib bermam.

Mana sahna. Mana zal.
O'yinchilar ko'rindi.
Parda ortin bilmoqqa
Imkon bermas o'rindiq.

Kutdim

Kutdim...
Oqqushlar uyiga yetib olguncha
Bir bahor ko'ksimda qishlab ulgurdi.
So'lib borayotir kulgum – ol g'uncha,
Ko'zimdagi yoshday savdom ulgurji.
Turnalar tortqilar kipriklarimdan,
Tushimda turtkilar yalmog'iz xotun.
Osmonning fusunkor ko'priklarida
Oq gullar tutadi menga oydin tun.

Kutdim...
Chug'urday boshladi qaldirg'och ko'nglim,
Uchib ketmoq istar ruhim sargashta.
Haqqa talpinadi ishqqa och ko'nglim,
Yo'llarim o'sadir, umrim – kurashda.
Yig'ilarim rangsiz – qattiqqo'l turma,
Og'riqlar og'irki, tugamas tushdir.
Hansirab – hansirab qayga yeturman
Bitta qanotidan ayrilgan qushdek.

Kutdim...
Kulguchimda tunar daydigan nasim,
Tabassumim maddoh, so'zim yallachi.
Qachon uyg'onarkin, oladi qasdin,
Bog'larim bardoshsiz – kambag'alchilik.
Musicha tuyg'ular yasholmay o'lsa –
Lochin yuragimda masihnafas ishq.
Nahotki, taqdirim, nasibam bo'lsa –
Og'ir qanotlarni ko'tarib uchish.

Choy ichasizmi?

Yodimda, sentabr oyining oxirlari edi. Men ham boshqa talabalar kabi ijaraga uy topa olmay sarson yurgan paytlarim. Vaqtincha kunlik yotoqxonalarda yashab yurdim. Ijara bo'lsa ham, uying bo'lsin ekan. Yo'qsa, o'zi tartibsiz bo'lgan talabaning hayoti yana ham tartibsiz bo'lib ketishi hech gap emas. O'quv mavsumining boshi bo'lgani uchun Toshkent talabalar bilan to'lgan, "kvartira" kamyob. Qancha urinmay, joy topolmadim. Topganlarimning narxi osmonda, cho'ntakboplari esa allaqachon egasini topib ketgan. Uni ustiga makler degan bir balo paydo bo'lgan. Xullas, u bo'ldi, bu bo'ldi, yana har doimgidek shahar chetidan kunlik mehmonaxona topib joylashdim. Bu yer shu kungacha turgan joylarimga qaraganda ancha ko'rimsiz va bexosiyatdek edi. Balki, menga shunday tuyulgandir. Surishtirsam, bu yer avval yarim tungacha ishlaydigan oshxona bo'lgan ekan. Lekin to'satdan yuz bergan yong'in sababli butkul yonib ketgan va shundan so'ng egasi binoni qayta ta'mirlab, kunlik yotoqxona qilib qo'ygan. Qo'shni do'kon sotuvchisining aytishicha, avvallari ancha gavgum joy bo'lgan va keyinchalik ishratxonaga aylanib ketgan. Yana janjal ham bo'lgan emish. Katta janjal, pichoqvozlik. Oqibatda ikki kishi o'lgan ham ekan. Mayli, 3-4 kun turaman-da, keyin boshqa joy topib, chiqib ketaman, degan xayol bilan to'lov qildim. Ammo bu qarorimdan afsuslanishim o'ylarimning bir chetida ham yo'q edi.

Xullas, o'sha yerdagi birinchi tunimning o'zidayoq g'alati hodisalar sodir bo'la boshladi. Xonamda uxlab yotarkanman, hovli tomondan kelgan shovqin ovozi uyqumni buzdi. O'rnimdan turib, oynadan qarasam, bir kishi "Men bu yerda qolmayman", deb jahl bilan narsalarini olib chiqib ketayotgan ekan. Soatga qarasam, tungi ikkiga yaqinlashib qolibdi. Nima bo'lganini to'liq anglolmay, yana uyquga ketdim. Hech qancha vaqt o'tmay nimadandir cho'chib, yana uyg'onib ketdim. Shu payt koridor tomondan qadam tovushlari eshitildi. Go'yo kimdir ataydan oyog'ini sudrab bosib, aylanib yurgandek edi. Nimanidir sezgandek ko'nglimga qo'rquv oraladi. Vahimalisi, u qadam borgan sari mening xonamga yaqinlashar, ammo hech yetib kelmasdi. Hammayoq jimjit, faqat qadam tovushlari. U endi yana ham yaqin eshitalardi, lekin yetib kelmasdi. Sarosimaga tushdim. Quloqlarim goh bitib, goh shang'illardi. Xuddi yuragim urishi tezlashib, bo'g'zimga tiqilayotgandek. Qadam ovozi esa hali ham to'xtamasdi. Turib eshikni ochib ko'rishga, barcha vahimalarimni yo'qqa chiqarishga esa allaqanday qo'rquv yo'l qo'ymasdi. Kalima qaytarishni boshladim.

Qachon uxlab qolganimni bilmayman. Bo'lgan voqeani birovga aytmadim, aniqrog'i aytishga uyaldim. Bakli, tushimda bo'lgandir, deb ham o'ylab qoldim. Kun odatdagidek o'tdi. O'qishga bordim, darsdan keyin yana ijaraga uy izladim. Bir-ikki tanishlarim bilan ko'rishib, kechga yaqin yotoqxonaga yetib keldim.

Kechasi o'n ikkilar, chamas, uyg'onib ketibman. Tomog'im qaqrab suv ichay, deb hovliga chiqdim va oshxona tomonga yurdim. Oshxonaga kirsam, bir qiz turibdi. Hayron bo'lib u bilan salomlashdim. U mendan "Siz bu yerga qachon keldingiz", deb so'radi. "Kecha", deb javob berdim. U bo'lsa anchadan buyon shu yerda ishlashini aytdi. "Choy qo'ygandim, siz ham ichasizmi?", so'radi qiz. Gaz plitaga qarasam, yoqilmagan, ammo choynak turibdi. Bu holat g'alati tuyuldi menga. "Yo'q, rahmat, ichmayman", deb aytdim. Keyin suv ichdim-da, xonamga qarab yurdim. Eshikka yaqin kelib, nima uchundir ortimga qaradim. Oshxona chiroqlari o'chiq. Qiziq, hozirgina yoniq edi-ku! Qiz qachon chiqib ketdi, nahotki sezmay qoldim?! Xonamga kirgach yuragim ozgina bezovta bo'ldi. Xayolimga turli xil o'ylar kelgani uchun xonam eshigini ichkaridan qulflab olib, uyquga yotdim. Ko'zlarim endi ilingan edi hamki, xonam eshigi taqilladi. Xo'jayin ekan, u mendan oshxonaga kirdimmi-yo'qmi so'radi. Kirganimni aytсам, "Gazni siz yoniq qoldirdingizmi" deb savol berdi. Men esa shosha-pisha: "Yo'q anavi qiz bor-ku, shu yerda ishlar ekan. Suv ichishga kirsam, choy damlamoqchi bo'lib turgan ekan. Balki, shu yoniq qoldirgandir", deb javob berdim. Birdan xo'jayinning ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi va "Ha, mayli, uzr. Sizni ham yarim tunda bezovta qildim" dedi-yu, ketib qoldi. Xonamga qay-

tib, eshikni yana ichkaridan qulflab oldim. Shundan keyin ko'zimga uyqu kelmadi. Balkonga chiqib ancha vaqt sigaret chekib o'tirdim. Oradan yarim-bir soatlar o'tdi, chamas, xonam eshigi yana taqilladi. Yana nima gap ekan, bular odamni buncha bezovta qilaverishadi degan xayolda eshikni ochdim. Qarasam, boyagi qiz. Menga g'alati ohangda kulimsirab, "Choy ichasizmi?", dedi. Men "Yarim kechasi qanaqa choy, hazillashyapsizmi", dedim jahl chiqib. Shu payt anavi qiz menga qarab jilmaydi-da, allaqandaydir muloyim ohangda, "Chindan ham ichmaysizmi", deya takrorladi. Ovoz go'yo qizning o'ziniki emas, xuddi mening ichimdan kelayotgandek yaqin eshitalardi qulog'imga. Uning jilmayishi, g'amgin va ma'yus ko'zlari odamni o'z domiga tortib ketardi. Tanamni notanish bir titroq qamrab olganini sedim. Xuddi yuragim ko'ksimdan uzilgan-u, kekirdagimning uchiga tiqilib, hiqildog'imni to'sib qo'ygandek. Nafasim o'pkamga yetib bormas, tilimga birorta ham kalima kelmasdi. U asta qo'limdan tutib "Ketdik, birga choy ichamiz" dedi, hech qanday qarshiliksiz unga ergashdim... Qolganini eslolmayman.

Bir payt ko'zimni ochsam, boshimda xo'jayin turibdi. O'zimga kelganimdan xursand bo'lib ketdi boyaqish. Biroz jim yotdim, suv ichdim. Bo'lgan voqealarni ma'lum bir joyigacha eslay olsam-da, "Menga nima bo'ldi?" deb so'radim. Aytishlaricha, mehmonxona orqasidagi daraxtlar ostidan hushsiz holda topishibdi...

✍️ Ahrorbek IBROHIM o'g'li

O'LMAS TEMUR:

“SOHANING
KASALIMAN,
DARMONIM –
TEATR”



O'zim haqimda

Kaminaga O'lmas Temur taxallusi hamroh. Asli ismim O'lmasbek, familiyam Abdurahmonov. 2002-yilda Farg'ona viloyati Beshariq tumanida tug'ulganman. Oltinchi sinfgacha o'zim yashaydigan qishloqda o'qiganman, undan keyin ta'limni Qo'qon shahridagi 33-sonli harbiy maktabda davom ettirganman. O'qishimni bu maktabda davom ettirishimning asosiy sababi oilamdagilar harbiy bo'lishimni xohlashganidir. Biroq, jussam kichik bo'lganligi sababli va o'zimda ham xohish yo'qligi uchun yo'lim harbiylikdan ayro tushdi. San'at sohasiga o'quvchilik kezarim musiqa va teatr maktabiga borib, u yerdagi muhitni ko'rib, qiziqib



O'zim anglab yetmagan, e'tibor bermagan jihatlarni sinchkov tamoshabinlar turli usulda menga yetkazishadi

qolganman. Tomoshadan so'ng jamoa rahbari Rustamjon Husanov qizuquvchi yoshlarni to'garakka taklif e'tamiz deb e'lon berganlar. San'at sohasiga qiziqishimni bilgan sinf rahbarim meni shu to'garakka olib bordilar. Onamning qo'llovi ostida ham harbiy maktabga, ham musiqa to'garagiga qatnadim. Shunday jarayonlarda teatr spektakllarida rol o'ynab, o'zim she'r mashq qilib turganman, hatto uchta she'riy kitobim chiqqan. Maktabni bitirib universitetga hujjat topshirish karantin paytiga to'g'ri keldi, shunday bo'lishiga qaramasdan O'zbekiston davlat san'at va ma'daniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali musiqali teatr aktyorligi yo'nalishiga hujjatlarimni topshirdim va to'lov-shartnoma asosida o'qishga qabul qilindim.

Talabalik debochasidayoq ishlashni boshlaganman. Tadbirlarda boshlovchilik qilganman, ijodiy mehnat bilan ozmi-ko'pmi pul topishni boshlaganman va shahar kutubxonasiga ishga kirganman. Shuningdek, turli xil videoroliklar ishlab, ijtimoiy tarmoqlarga ham joylab boraman. Kuzatuvchilarim kam emas, ularning iliq fikrlari menga kuch bag'ishlaydi.

Ko'pchilik taxallusimdan kelib chiqib, sizning familiyangiz Temurovmi deb so'rashadi, aslida unday emasligini yuqorida aytdim. Kichkinaligimda O'lmasbek ismim o'zimga yoqmagani. Bolalar meni O'lmas kashshey deb chaqirar edi. Bu xunobimni oshirgan. Birinchi she'riy to'plamim chiqayotgan paytda taxallus qo'yish uchun Shavkat Rahmonga havas qilib O'lmas Rahmon deb qo'ymoqchi edim. Chunki familiyam Abdurahmonov bo'lgani uchun bu mos tushadi deb o'ylaganman, lekin bu niyatimdan qaytganman. So'ng O'lmas Temur deb qo'yganimiz. Qarabsizki, shaharda, insitutda, viloyatda O'lmas Temur bo'lib ko'zga ko'rinishni boshlaganman.

Adashuv

Men musiqali teatr aktyorligi yo'nalishida o'qiyman, ammo kuylashim juda yomon. Qiziq narsa aytib beraman. 2020-yilda OTMga hujjat topshirishimiz kerak edi. Shu paytlar jarayon elektronlashdi, ungacha arizalar faqat qo'lda yozilgan. Men dramatik teatr va kino aktyorligi yo'nalishiga topshirishim kerak edi. Afsuski, onlayn topshirganim uchun adashib, musiqali teatr aktyorligi yo'nalishiga topshirib qo'rganman. Buni keyinchalik arizamni ko'rganimda bilganman. Imtihonda biroz qiynaldim. Sababi birinchi bo'lib sizdan aria kuylashni so'rasharkan. Men uni topolmaganman, topgan taqdirimdayam ijro qilolmasdim. Keyin "Maftuningman" filmidan G'ani A'zamov ijro etgan "Sartarosh" qo'shig'ini bir kun tayyorlanib, shuni ijro qilganman. Shu sababli balim pastlab ketgan. Birinchi yildan o'qishga kirishni maqsad qilgandim. Afsuski, 1 ball yetmay qoldi. Keyin esa tabaqalashtirilgan to'lov asosida o'qishga kirganman.



Ijtimoiy tarmoqlar orqali tanigan inson, hayotda yuzma-yuz kelib qolsa, sal kulib gapiring, videolarda boshqachasizku, deyishadi

Erkin Bozorov va men

Ijodiy yo'limni taniqli aktyor Erkin Bozorov ijodiga o'xshatadiganlar bor. Ilk bor Erkin akaning videosini ijtimoiy tarmoqlarda ko'rib qolib unga taqlid, parodiya qilib videorolik chiqarganman. Bu Erkin Bozorovga yoqqan, qo'llab-quvvatlaganlar. U kishi taqdim etgan videolarga she'riy izohlar yozib, o'tkazadigan tanlovlarida faol ishtirok etganman va o'zimda ham shunday videoroliklar qilish istagi paydo bo'lgan. Ammo, u kishining yo'lga o'xshash videolar tayyorlashni shunchaki boshlab yuborolmasdim. Avval o'zlaridan ruxsat olish uchun Toshkentga kelganman. Ularning vaqtlarini topib, syomka paytida gaplashib roziligini olganman. Eng birinchi videoni ham o'zlari ko'rib, ssenariydagi kamchiliklarni to'g'rilab berganlar. Erkin Bozorov ustozingizmi, deb so'ragan tamoshabinlarga, ha, ustozim deb aytaman.

Haligacha hazm qila olmaydiganlar bor, lekin ko'pchilik yaxshi qabul qilishadi. Bu she'riy yo'ldagi bir aktyor teatriga o'xshash narsa. Bu yo'nalishda hozircha faqat Erkin Bozorov va unga izdosh bo'lib men ijod qilayapmiz. Lekin, har ikkalamizni kuzatib kelayotgan muxlislar bilishadi, anchayin farq seziladi. Erkin akada uzoq yillik tajriba, aktyorlik mahorati balandligi bor, rejissura, so'z tomonlama ham kuchli. Mening ham ajralib turadigan jihatlarim, ranglarim bor. Erkin Bozorov bilan bir xil deyish, menimcha, noto'g'ri bo'ladi.

Asosli, o'rinli tanqidlar bo'ladi va bu meni xursand qiladi. O'zim anglab yetmagan, e'tibor bermagan jihatlarini sinchkov tamoshabinlar juda yaxshi bilib menga yetkazishadi. Bu kamchiliklarni to'g'rilashga harakat qilaman. Chegaradan o'tib so'kinilgan, haqoratimiz izohlarni va izoh mualliflarini bloklayman. Sinchkov va saviyali tamoshabinlarning tanqidlaridan juda ham xursand bo'laman.



Bizni kam ko'rishadi

Birinchi o'rinda hamma narsa moddiyatga borib taqaladi. Sifatli kontent qilish uchun yaxshigina sarmoya kerak. Bugungi kunga kelib menda bu muammo hal bo'ldi. "Blogger union" nomli kompaniya bilan hamkorlik qilayapman. Hozir shaxsiy prodysserim, menejerim, moliyalashtirib turadigan va reklama topib beradigan insonlar bor. Buncha meni qiynagan asosiy muammo mablag' bo'lgan. Biz har bitta kontentni professional tarzda suratga olamiz. Har bitta so'zdan tortib, kiyimgacha professional yondashiladi. Sababi – ishimiz o'sha makon va zamonga mutanosib bo'lmog'i lozim.

Alfred Hitchkokning bir gapı bor: "Yaxshi film tayyor bo'lishi uchun 3 ta narsa kerak: yaxshi ssenariy, yaxshi ssenariy, yaxshi ssenariy"... Men asosan ssenariyga ko'p e'tibor qarataman. Bitta kontent tayyor bo'lishiga eng ko'p vaqt sarflanadigan jarayon ham ssenariy yozishdir. Ssenariyni ko'ngildagidek qilib olganimizdan so'nggina boshqa ishlarga o'tamiz. Bir jihat bor. Bizning asosiy ijod maydonimiz Instagram sahifasidir. Tayyorlagan ijod namunalimiz yuz-ikki yuz ming tomoshabinni qamrab oladi. Tarmoqdagi yengil-yelpi, ma'naviy ozuqasi yo'q behayo videolar esa millionlab ko'rishlar soniga ega bo'ladi. Mana shu biroz alamlidir.

Biz har bir kuzatuvchining vaqtini qadrlaymiz va javobgarmiz. Videolarimni tomosha qilgan kuzatuvchi undan nimadir ma'naviy ozuqa olsa, bu mening yutug'imdir. Shu sababli faqatgina maqsadli auditoriyani qamrab olganimizdan va foydali narsa berganimizdangina xursand bo'lamiz.

Personajlarim haqida

Xo'sh, menda qanday obrazlar bor?! Har doim qizil va jigarrang nimchada yuradigan O'lmas obrazi bor. Qaysidir ma'noda, qisman o'zimni ifodalaydi deb ayta olaman. Qolgan har bir obrazimda shaxsinga tegishli biror jihat topilsa kerak. Misol uchun personajlarim ichida Professor Oldiyev bor. Bu personajni kuzatuvchilarim Ergash Karimovga o'xshatishadi. Men bundan juda ham xursand bo'laman. Buning o'ziga yarasha ulkan mas'uliyati bor.

Professor Oldiyevning xarakteri qanday? Ko'nglida kiri yo'q odam, bir-ikki yomon illatlardan ham xoli emas. Pora olib qo'yadigan, o'ylamasdan ish qilib qo'yadigan, shoshib gapirib qo'yadigan odatlari bor. Lekin, samimiy, g'alati-roq bo'lgani uchun muxlislar bu personajni iliq kutib oldi, deb o'ylayman.

Professor Oldiyevning o'g'li bor. Boltavoy, ko'zaynak va "babichka" taqib yuradigan. Yoshi 19-20 yoshlar atrofida, juda ham samimiy va sodaroq botanik bola. Unda ham bir qancha jihatlarimni ko'rgandek bo'laman.

Akaxon qiyofasida jamiyatimizdagi olifta boylar obrazini aks ettirishga uringanmiz. O'zining tadbirkorlik ishlari bor va u haqiqiy salbiy qahramon. U ba'zida talaba, rahbar va obro'li odam ham bo'lib chiqadi.

Eshmonqul – qassob, professor Oldiyevning ukasi. Ular egizak. Uka qishloqning haqiqiy chapani yigiti. Jahli tez, lov etib yonadigan cho'rtkesar inson.

Uning obrazi Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asaridagi Dehqonquldan olingan. "Shum bola" filmidagi Sulton kissavurdan va Abdulla Qodiriyning "Toshpo'lat tajang" obrazlaridan chatishtirilgan holda yaratilgan. Eshmonquldagi hech qaysi xarakter menda yo'q deb o'ylayman.

Yana bir qahramonimiz kirakash. Unda ham o'zimni ko'rmayman.

Yana bir personaj bu – Ustoz. Sochlariga va qoshlariga oq tushgan katta ustozimiz bor. O'zimga yoqadigan personajlardan biri, yaxshi inson. Ustozning ham qaysidir jihatlarini o'zimdagi ko'raman.

Meni ijtimoiy tarmoqlar orqali tanigan inson, hayotda yuzma-yuz kelib qolsa, sal kulib gapirib, videolarda boshqachasiz-ku, deyishadi. Aslida hayotdagi O'lmas bilan kadrda O'lmasning katta farqi bor.

Istagan imkon topar

Tanlagan uslubimning yengil tomoni shundaki, rol ijro etishi kerak bo'lgan boshqa aktyorlarni kutib o'tirmayman. Barcha rollarni o'zim, o'zimga yoqadigan qilib tasvirga olaman. Qiyinchilik tomoniga keladigan bo'lsak, hamma aktyorlarni o'zim o'ynaganim uchun rollar bir-birini takrorlamasligi kerak. Bir kunning o'zida bitta videoni tasvirga olsak, aksariyatini ikki-uch kunlab yozishga to'g'ri keladi. Ba'zida obunachilarim qanday uddalashimga qiziqishadi. Rost, oson emas. Ssenariyni ham o'zim tayyorlashim bunga yana yuk qo'shadi. Dublyajda ham o'zim ovoz beraman, lekin bularning barchasi mening foydamga ishlaydi aslida.

Talabaligim hech qachon ijod qilishga xalal bermagan. Aytishadi-ku, xohish bo'lsa, imkon topiladi. Hozirda 4-bosqich talabasiman, lekin meni 3 marta institutdan haydashmoqchi bo'lishgan va har safar dekanimizning oldilariga kirib to'g'ri tushuntirganman. Ular ham tushunganlar, kengfe'llik qilganlar. Shu-shu bo'lib, talabalik bilan xayr-xo'sh qilishimga bir qadam qoldi.



Biz o'qishga kirgan paytimiz yuqori kurs talabalari institut senga hech narsa bermaydi, de-yishgan va qaysidir ma'noda bu to'g'ri fikr. Institut sizga hech narsa bermaydi. Siz ustozlardan olasiz, ko'nikma o'g'irlaysiz. Yaxshi ma'noda, albatta.

Mana shu jamiyatda yashayotgan ekanmiz, yon-atrofimizdagi muommolarga befarq bo'la olmaymiz va bunga haqqimiz ham yo'q. Ayniqsa, biz ijodkor bo'lsak. Men tanlagan yo'nalish azal-azaldan xalqni qiynaydigan og'ir, achchiq, muammolarni kulgu ostida olib chiqadigan usul bo'lgan. Shu Satira yo'nalishi hech qachon o'lmaydi. Barcha videolarimda qaysidir muammolarni poydevor qilib olishga intilaman. Shu orqali jamiyatga salbiy ta'sir qilayotgan illatlarga qarshi jim turmaslik yo'lini tanlaganman.

**Sevimli kasbingiz
yaxshi daromad
keltirsa, sizda
yaxshi hayot tarzi
bo'ladi**

O'zingizga yoqmagan ishni qilmang

Rosti birinchi kurs payti orzu-umidlar, katta maqsadlar bilan o'qishga kirasiz. Turli sabablar bois aksariyat hollarda hafsalangiz pir bo'ladi. So'ng o'qishni tugataman va qayerda ishlayman, degan savol qiynaydi, ish topish payiga tushib qolib, tajriba to'plash uchun intilasiz. 18 yoshdan 25 yoshgacha o'zingizni anglab yetib, mutaxassisga aylanishingiz va maqsadlaringizni aniqlab olishingiz lozim.

Tengdoshlarimga, ukalarim va singillarimga qiynalayotgan paytda hech qachon o'zingizga yoqmagan narsani qilmang, degan bo'lardim. Men shunday ishlarni qilishga majbur bo'lganman va hafsalam o'lgan, afsuski. Agarda o'zim xohlagan ishni o'zim xohlagan paytda qila olganimda edi, balkim kattaroq yutuqlarga erishgan bo'lar edim. Qachon inson zavqlanadi? Qachonki, qolganlarni zavqlantira olsa, qilayotgan ishidan o'zi zavqlansa. O'ylaymanki, sevimli kasbingiz yaxshi daromad keltirsa, sizda yaxshi hayot tarzi bo'ladi. Chunki o'zingizga yoqqan ishdan rohat olib boshqalarga ham rohat bag'ishlash, ham daromad topish – chinakam baxt.

Albatta qiynchiliklar bo'ladi. Bizdagi yomon odatlardan biri bu – taqqoslash. "Qo'shninging o'g'lini qara, sinfdoshingni qara", degan gaplar. Bunday iddaolarga parvo qilmaslik kerak. Hozir motivatorlik qilyapti deb o'ylashingiz mumkin, lekin bunday emas. Hamma ishlaringiz yaxshi ketyaptimi, demak, siz hech narsa qilganingiz yo'q. Qandaydir to'siqlar bormi, siz nimadir qilyapsiz va ana shu jarayonda to'xtab qolmaslik kerak. Qiynchiliklar bir kuni tugaydi. O'zingiz xohlagan sohani mahkam ushlang...



Muvaffaqqiyatga erishish uchun 4 ta kitob o'qish yetarli



O'zim ko'p badiiy kitob o'qiyman, shu vaqtgacha qancha kitob o'qiganimni bilmayman. Shaxsiy kutubxonamda 500 dan ortiq kitoblarni bor. Meni kitobga do'st qilgan ota-onamga rahmat aytmoqchiman. Barcha tengdoshlarimga kitob o'qishni tavsiya beraman. Obrazlarimda foydalanadigan so'zlarimda kitoblarning o'rnini beqiyos. Muvaffaqqiyatga erishish uchun 4 dona kitob o'qish yetarli. Ammo shu 4 dona kitobni topish uchun 4 minglab kitoblarni o'qib chiqish kerak bo'ladi. Agar bizga kitob kerak bo'lmaganda, Allohning kalomi kitob ko'rinishida nozil bo'lmasdi. Bizga ilm olish kerak bo'lmaganda, birinchi bo'lib qalam yaratilmagan bo'lar edi.

Bu yil universitetni tamomlayman, oliy ma'lumotli aktyor bo'laman. Kelajakdagi rejalar mana shu ijodni davom ettirish, teatrdan ishlash. Teatr men uchun hayot. Shu sohaning kasaliman, darmonim bu teatrdan, tomoshabindir.

 E'zozbek HAMIDOV yozib oldi



IBTIDO INTIHODAN

BOSHLANGANDA...

Hayotning o'ta tirband ko'chalaridan maqsadimiz sari muvaffaqiyat narvonidan yuqorilar ekanmiz, faoliyat, jarayon tuzog'iga ilinishimiz, yo'limizdagi labirint ko'chalarda adashishimiz tabiiy hisoblanadi. Aytarli muvaffaqiyatga, samaradorlikka erishmasdan turib juda-juda ko'p vaqt yo'qotish ehtimolimiz ham mavjud. Insonlar ayrim hol-larda qiymatsiz g'alabalarga erishganini, ko'p narsalarni qurbon qilish evaziga yetishgan muvaffaqiyatlari aslida o'zi kutganiga nisbatan anchagina qadrsizroq bo'lib chiqqanini kech anglashadi. Olimlar, shi-

fokorlar, tadbirkorlar, siyosatchilar yoki sportchilar, ya'ni turli qatlam vakillarining aksariyati shon-shuhrat, unvon yoki boylikka erishish uchun kurashadi. So'nggiga borganida esa ularning orzusi ko'zini ko'r qilganligi sababli o'z hayotidagi ustuvor qadriyatlaridan kechishganliklarini va unutib qo'yganliklarini tushunib yetishadi. Ammo ming afsuski, ushbu qadriyatlar bir marotaba yo'qotilganidan so'ng qayta tiklanmaydi. Xatomizni anglab yetgan kunimizdan, biz uchun nima muhimligini bilgan onimizdan boshlab, hayotimizda o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi. Endi esa biz qanday bo'lishimiz, nima vazifalarni bajarishimiz kerakligidan voqif bo'lamiz. Faoliyatimiz samarali bo'lishi mumkin, ammo biz qilayotgan ishlarimizning yakunini yodda tutib yashasakkina ko'proq narsalarga erisha olar ekanmiz.

Amerikalik faylasuf maslahatchi Stevin Kovining "Yakunini yodda tutib ish boshlash" tamoyili mavjud bo'lib, ushbu tamoyil bizni yuqorida aytib o'tganimizdek, erishib kelayotgan muvaffaqiyatlarimiz oxirida aslida qadsiz bo'lib chiqishidan voqif qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu tamoyilda o'z manzili-mizni aniq tushunib, so'ng harakat boshlashimiz nazarda tutiladi. Bu – qayerda ekanimizni



bilishimiz, aniqrog'i, yo'nalishni to'g'ri olganimizni chamalashimiz lozimligidir. Yashab turgan kunimizni hayotimizning so'nggi damlari to'g'risidagi tasavvurlar va qarashlar bilan boshlashimiz zarurdir. Hayotimizning oxirini doimo yodda saqlashimiz orqali kundalik faoliyatimizda o'zimiz uchun eng muhim va oliy o'rinda turuvchi qadriyatlar hamda mezonlarimizga putur yetkazmaymiz. Shu bilan bir qatorda, har kuni hayotimiz to'g'risidagi tasavvurlarimiz chindan ham biz xohlaganimizdek amalga oshishiga hissa qo'shib borayotgan bo'lamiz.



**Ushbu
qadriyatlar
bir marotaba
yo'qotilganidan
so'ng qayta
tiklanmaydi**



Durodgorlarda “Yetti o'lchab, bir kes” oltin qoidasi bor. Ana shu qoida asosida harakat qil-sak, ishimizdagi ibtido o'zimiz xohlaganimizdek ekaniga, barcha narsalar va tafsilotlarni yoddan chiqarmay inobatga olganimizga ishonch hosil qilamiz. Shundan so'nggina jismoniy ishni amalga oshiramiz. Har kuni qurilish maydoniga borib, g'oyalarimizni ro'yobga chiqarishimiz uchun kerakli ko'rsatmalarni beramiz. Xuddi mana shu “yakunini yodda tutib ish boshlash”imiz bo'ladi.

Insonlar bu tamoyilni hayotiy faoliyatining turli qismlarida har xil

**Hozir
intilayotganimiz
mashhurlik,
daromad,
yutuqlar, obro'-
e'tibor va boshqa
narsalar, aslida
biz ko'zlagan
cho'qqilar
emasdir**

darajalarda qo'llaydi. Dam olishga borishimizdan avval, manzilimizni aniqlaymiz hamda eng yaxshi va munosib yo'lni belgilaymiz. Biror uy qurmoqchi bo'lsak, avvalo uni miyamizda shakllantiramiz, lozim bo'lsa, ko'rinishini qog'ozga ham chizamiz. Avval dizaynini yaratib, so'ngra libos tikamiz. Biror auditoriyada nutq so'zlashimizdan avval, tayyorgarlik ko'ramiz, ovozimiz ustida ishlaymiz, eslatmalar yozamiz. Chunki nutqimiz va imijimiz bilan auditoriyani o'zimizga jalb qila olishimiz ishimiz muvaffaqiyatli yakun topishiga asos bo'lishini yaxshi anglaymiz.

Ma'lum vaqt o'tib, biz ushbu dunyoni tark etganimizdan so'ng, qolganlar biz haqimizda qanday so'zlar aytishini istashimizni aniqlab olsak, bizning tirikligimizda erishgan asl muvaffaqiyatlarimiz, samarali hayotimiz nimada ekanligini tushunib yetamiz. Bular avvallari bizlar to'g'ri deb hisoblaydiganlardan ancha farq qilishi ehtimoli ham yo'q emas. Balki, hozir intilayotganimiz mashhurlik, daromad, yutuqlar, obro'-e'tibor va boshqa narsalar, aslida biz ko'zlagan cho'qqilar emasdir.

O'y-xayollarimizni yakun bilan boshlaganimizda, bizning dunyoqarashimizda, fe'l-atvorimizda o'zgarish sodir bo'ladi. Bir kishining janozasida shunday suhbat bo'lgan ekan:

- U o'zidan nima qoldirdi?
- Hamma narsa!

✍ Muslimaxon NE'MATULLAYEVA
O'zDJTU 2-bosqich talabasi



SEVGISIZLIK
FOJIASI

Andrey Zvyagintsev haqida Emir Kustritsaning mahorat darsida eshitdim. Bir rejissoriyigit bilan kirgandik va o'zimizcha Kustritsa bizga kino olishni o'rgatadi degan ishonch bor edi. Mahorat darsi shunchaki ob-havo haqidagiga o'xshash fikrlar bilan o'tdi: hozir titkilasam, ularning birontasini eslolmayman. Ko'p o'tmay, biz zalni tark etdik va mashinada keta-ketguncha qilmoqchi bo'lgan filmimiz haqida gaplashdik. Aslida biz ishlamoqchi bo'lgan filmning boshlang'ich shakli yo'qolgan va u endi birgina odamga tegishli edi: unga. Men biron nima qo'sholmas va bundan tashqari, butunlay boshqa narsa yozish kayfiyatida edim: munosabatlar haqida edi u. Unga nimani yozmoqchi ekanimni aytganimda, Zvyagintsevning "Nelyubov"ni ko'rishni tavsiya qildi.

Film 10-12 yashar bolaning maktabdan chiqishi va uyga yo'l olishi bilan boshlanadi. Orada u yelim tasmaga cho'p bog'lab osmonga irg'itadi: cho'p daraxtga osilib qoladi va shamolda hilpirab muallaq qotadi. Shu bilan bolakayning sotuvga qo'yilgan uyi, onasi, otasi hikoyalari boshlanadi.

O'zbekda, umuman musulmon xalqlarda "valadi zino" degan tushuncha bor. Ya'ni zinodan bo'lgan bola, u doim jamiyatdan ajratiladi, doim turtkilanadi, eziladi va hech qachon quchilmaydi. Alyosha ham xuddi shunday, u istalmagan homila, buni onasi 48 yashar o'ynashining quchog'ida aytib beradi: u xuddi o'ziga o'xshagan zaharli onasining soyasidan chiqib ketish uchun Alyoshaning otasi bilan topishib, chaqaloqni tug'adi. Tug'ruq mahali qattiq qo'rquv bo'lgani, chaqaloqni qo'lga olib kelib berishgandagi nafratni aytarkan, ayolning yuzida samimiyat ko'rasan: u o'z onasidan ko'rmagan muhabbatini hech kimga berolmaydi, ammo shu bilan birga onasining fe'li va hayotidan shundayligicha nusxa oladi, chunki u bundan boshqa narsani ko'rmagan. Alyoshaning otasi esa allaqachon alohida norasmiy oila qilgan, yangi xotini yaqinda ko'zi yoriydigan, o'zi allaqanday dindor xristianning firmasida ishlaydi, unga ko'ra xodim oilali bo'lishi talab qilinadi. U qulog'igacha kreditga botgan va ishdan ketishi mumkin emas. Shu sabab imi-jimida zahar ayol bilan munosabatlarini yakunlashni va yangi hayot boshlashni istaydi. Shunday qilib, bu ikki odamning hayotida ortiqcha odam paydo bo'lgan, bu ularning o'g'li. Ayol ham, er ham, ayolning onasi ham uni boqishni, hayotini qurbon qilishni istamaydi. Filmning elliginchi daqiqalrigacha ular o'z muammolari, sevgilari va baxtsizliklari bilan bolani uyda yolg'iz unutadilar, nihoyat eslariga tushganda esa, uning yo'qolganini bilib qoladilar.



Ular avvaliga onalari qo'lida tarbiyalanadilar, keyin xotinlari qo'lida

Avvaliga chaqirilgan politsiya tezkor xodimi davlat muassasalaridan ko'ra, nodavlat tashkilotlarga murojaat qilishni maslahat beradi: ularda hech qanday qog'ozbozlik yo'q, uyushgan va foydali ishlaydilar. Shunday qilib, buyog'iga kinoning oxirigacha istalmagan bolani izlash davom etadi. Oxiri morgdagi bola murdasi ham rad etiladi: onasi uning ko'kragida xoli bor edi deydi va lol qolgan otani buni aytishga majbur qiladi, yuziga yopishib urib tashlaydi. Boshqa tarafdin esa tirik farzandi ortiqchalik qilgan ota va ona uning murdasini ham tan olmaydi.

U ko‘rinmas doira yasadi, bunda hammasi takror aylanaveradi

1.

Filmda hamma baxtsiz. Bu baxtsizlik ularni asabiy qilgan, toliqtirgan, o‘zi uchun kurashishi kerakligi odamlarni izdan chiqarib yuborgan.

2.

Sovet va postsovet mamlakatlari o‘rtahol oilalaridagi ayollari qiyofasi ochilgan: badjahl, oiladagi hamma narsani manipulyatsiya qilishga, o‘ziga moslashga tirishadigan, imkon qadar bir narsaning alamini bolasidan olishga urinadigan, bolani o‘z qo‘lida o‘ynatish uchun majruh qiladigan, agar oilaviy munosabatlar uni qoniqtirmasa, chetdan birovni izlaydigan: umuman munosabatlarda barcha komfortni erkak yaratib berishga majbur deb hisoblaydigan. Va shu sabab bu oilalarda erkakning o‘rni umuman yo‘q. Deylik, erkak yangi oilasida ayol va uning onasi bilan yashaydi. Ayolning onasi esa qiziga erkak deganiga go‘dakdek munosabatda bo‘lishni maslahat beradi, erkaklarga boshqacha munosabatda bo‘lish mumkin emas. Ular avvaliga onalari qo‘lida tarbiyalanadilar, keyin xotinlari qo‘lida. Bu tipdagi oilalarda oilaning puli, albatta, ayol tomonidan taqsimlanishi zarur, shuning uchun ruslarda erkakning xotindan yashirilgan “zanachka”si haqida latifalar ko‘p.

3.

Nazarimda, filmda bola emas, ikki odamning o‘rtasidagi munosabatdan izlangan muhabbat bor. Ular bunchalik o‘zlarini kuydirib izlagan bolalari o‘ligi tepasida oxiri tan oladilar: bu muhabbat emas, sevgi yo‘q bunda, uning ko‘kragida xoli bor edi, bu boshqa. Va ikkisi ham o‘z hayotida yashashni boshlaydi: erkakning bolasi tug‘iladi, u divanda o‘tirib yangiliklarni tomosha qilarkan, ikki yashar bola o‘yinchoqlarini otasining oldiga qo‘yib o‘ynayveradi. Ayol esa haqiqiy sevgi deb hisoblagani erkak bilan, ammo uning ham, erkakning ham ichini it tirnaydi, katta ayblov bor, o‘z-o‘zini ayblash.

4.

Zvyagintsev XIX asr rus rassomlarining davomchisiga o‘xshaydi: ayni davrdagi postsovet mamlakatlardagi muammodan tashqari, u tabiatning o‘ta mahobatli tasvirlarini beradi, ularga qo‘shilgan musiqa esa odamning hislari bilan o‘ynashadi, xuddi shamol osmondan yog‘a boshlagan birinchi qorni o‘ynagani kabi.

5.

Rejissor orqadagi ovozlardan o‘rinli foydalanadi. Erkak mashinasi radiosidan yangiliklar eshitiladi, bunda Rossiyaning Ukrainaga munosabati, yaqinlashayotgan urush va ukrainlarga nisbatan ulkan nafrat tashviqoti seziladi.

Film oxirida tag‘in boshlangan joyiga qaytiladi: Alyosha — oilasi istamagan, ota-onasiga og‘irlik qilgan bechora bola bir mahallar maktabdan so‘ng aylangan daryo bo‘ylarida bahorning sasi sezila boshlaydi. Kino qahramonlari bolani butun qish bo‘yi izlagandek tasavvur uyg‘onadi. Ammo hayot davom etaveradi: Zvyagintsev boshlagan joyiga qayta keltirgani sababi shunda, u ko‘rinmas doira yasadi, bunda hammasi takror aylanaveradi, xuddi fasllar almashinuviga o‘xshash. Alyosha yo‘q, uning hayotni tark etganini bildirib, kuzda o‘zi daraxt shoxiga ilgan yelim tasma bir maromda hilpiraydi.



TALABALARNI ISHGA QABUL QILISHDAGI IMTIYOZ VA CHEKLOVLAR



Ko'pchilik talabalarning ishlashga ehtiyoji borligi sir emas. Ular ba'zi hollarda o'qishdan tashqari paytlarda kunlik ishlarga chiqish orqali pul topishadi. Aksariyat talabalar qonuniy ishlash huquqi borligidan ham bexabar. Shu sababli, biz talabalarning mehnat huquqlari va majburiyatlari mavzusiga to'xtaldik.

Talabalar ishlashi mumkinmi, mumkin bo'lsa qanday shartlar asosida ishlaydi?

Albatta, Mehnat kodeksining 77-moddasiga ko'ra, 16 yoshga to'lgan har bir shaxs mehnat qilish huquqiga ega. 15 yoshdan esa sog'lig'iga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtida bajarishi uchun ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga ruxsat etilgan.

Kunduzgi ta'limda tahsil olayotgan talabalar, mehnat shartnomasi bo'yicha ham ishlashi mumkinmi?

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining "Oliy ta'lim to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqidagi 9-sonli buyrug'i 50-bandiga muvofiq kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar o'qishdan bo'sh vaqtlarida o'zi tahsil olayotgan oliy o'quv yurti va boshqa tashkilotlarda mehnat shartnomasi tuzgan holda ishlashlari mumkinligi belgilangan.

Bundan kelib chiqadiki, talabalar bemalol ishlashlari mumkin. Lekin mehnat qonunchiligiga ko'ra, talaba, faqat ta'limdan bo'sh vaqtida ishlash huquqiga ega.

Mehnat kodeksiga ko'ra, haftasiga qancha vaqtdan oshmagan holda ishlashga ruxsat etiladi? To'liq stavkada ham ishlasa bo'ladimi?

Talaba faqat o'qishdan bo'sh vaqtida ishlashi mumkin. Mehnat kodeksining 115-moddasiga muvofiq, xodimning ish vaqti haftasiga 40 soatdan oshmasligi kerak. Ya'ni 6 kunlik ish haftasi joriy etilgan tashkilotlarda kunlik 7 soat, 5 kunlik ish haftasi joriy etilganlarda esa ish vaqti kunlik 8 soatdan ortiq bo'lmasligi shart. Shuningdek, ishning tugashi bilan keyingi kuni ish bosh-

Ayrim ish beruvchilar talabalarni faqat o'rindoshlik asosida ishga olish kerak deb hisoblashadi



lanishi o'rtasidagi kundalik dam olish vaqtining muddati 12 soatdan kam bo'lishi mumkin emas (Mehnat kodeksi 128-moddasi). Agaryuqoridagi qonun talablariga rioya etilsa, talabani to'liq stavka ishlashiga hech qanday taqiq mavjud emas.

Agar talaba 15-16 yosh bo'lsa, haftasiga 24 soat, 18 yoshga to'lmagan bo'lsa yoki I va II guruh nogironi bo'lsa, mehnatga haq to'lash kamaytirilmagan holda ish vaqtining haftasiga 36 soatdan oshmaydigan qisqartirilgan ish haftasi belgilanadi.

3 yoshga to'lmagan bolalari bor, byudjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan talaba qizlarga ish vaqtining haftasiga 35 soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilanadi, ularning mehnat haqi kamaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Talabalar faqat o'rindoshlik asosida ishga olinadimi?

Ayrim ish beruvchilar talabalarni faqat o'rindoshlik asosida ishga olish kerak, chunki talabani o'qish joyi uning asosiy ish joyi, deb hisoblashadi. Bu mutlaqo xato:

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 18-oktabrdagi 297-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi" to'g'risidagi nizomga ko'ra, o'rindoshlik asosida ishlash – xodimning o'z asosiy ishini bajarishidan tashqari asosiy ishidan bo'sh vaqtida mehnat shartnomasi asosida boshqa haq to'lanadigan ishni bajarishidir, talabani ta'lim olish jarayoni esa mehnat faoliyati hisoblanmaydi.

Demak, talaba mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan va mehnat daftarchasi yuritilayotgan joy – uning asosiy ish joyi hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan mehnat qonunchiligidagi talablarga rioya qilgan holda talaba o'qishdan bo'sh vaqti asosiy ish joyidan tashqari, boshqa tashkilotda o'rindoshlik asosida ham ishlashi mumkin. Buning uchun esa o'rindoshlik asosida ishga kirayotgan joyga asosiy ish joyidan ma'lumotnoma taqdim qilinadi.

Agar talaba 18 yoshga to'lmagan bo'lsa, o'rindoshlik asosida ishlashi taqiqlanadi.

Talabalik davri mehnat stajiga kiradimi?

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi qonunining 37-moddasida ish stajiga qo’shib hisoblanadigan mehnat faoliyati turlari sanab o’tilgan. Mazkur moddaning “e” bandiga ko’ra, oliy ta’lim muassasalarida, aspiranturada, stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar institutida, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutida, tayanch doktoranturada, doktoranturada va klinik ordinaturada kunduzgi o’qish, shu jumladan chet elda o’qish umumiy ish staji kamida 7 yil bo’lgan taqdirda ish stajiga qo’shib hisoblanadi.

Ya’ni, yoshga doir pensiya olish huquqiga (erkaklar uchun – 60, ayollar uchun – 55 yosh) qadar kamida 7 yil ish stajiga ega bo’lsangiz, shundagina oliy ta’lim muassasalarida o’qigan davringiz ish stajiga qo’shib hisoblanadi va 4 yillik o’qish davri 7 yillik ish stajiga qo’shib, 11 yillik ish staji mavjud deb hisoblanadi.

Nogiron bo’lib qolgan shaxslar stajiga esa ko’rsatib o’tilgan staj muddatidan qat’i nazar qo’shiladi. Ya’ni, bunda ta’lim davridan tashqari, kamida 7 yillik ish stajiga ega bo’lish talab etilmaydi.

Talabani sinov bilan ishga olish to’g’rimi?

Mehnat kodeksining 84-moddasiga ko’ra, homilador ayollar, uch yoshga to’lmagan bolasi bor ayollar, korxonalar uchun belgilangan minimal ish joylari hisobidan ishga yuborilgan shaxslar, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining hamda oliy o’quv yurtlarining tegishli ta’lim muassasasini tamomlagan kundan e’tiboran uch yil ichida birinchi bor ishga kirayotgan bitiruvchilari ishga qabul qilinganda, shuningdek xodimlar bilan olti oygacha muddatga mehnat shartnomasi tuzilib, ishga qabul qilinganda dastlabki sinov belgilanmaydi. Agar yuqoridagi talablarga tushmasangiz, sizga dastlabki sinov qo’llanilishi mumkin.

Huquqiy darsxona

Diqqat! Aksariyat ishga kirmoqchi bo’lgan talabalar (bakalavr, magistrlar) o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining hamda oliy o’quv yurtlarining tegishli ta’lim muassasasini tamomlagan kundan e’tiboran uch yil ichida birinchi bor ishga kirayotgan bitiruvchilar hisoblanishadi hamda ularga dastlabki sinov qo’llanilmaydi.

Talabalar uchun mehnat qonunchiligida imtiyozlar nazarda tutilganmi?

Ta’lim muassasalarida o’qiyotgan xodimlarga ishni ta’lim bilan birga qo’shib olib borishlari uchun ish beruvchi zarur sharoitlar yaratib berishi shart. Talabalar ish joyidan haq to’lanadigan qo’shimcha ta’tilga chiqish, qisqartirilgan ish haftasi sharoitida ishlash va boshqa ko’plab imtiyozlar olish huquqiga egadirlar. Bundan tashqari, abituriyentlar uchun ham alohida imtiyozlar (Mehnat kodeksi 254-moddasi) nazarda tutilgan.



4 yillik o’qish davri 7 yillik ish stajiga qo’shib, 11 yillik ish staji mavjud deb hisoblanadi



“O‘zbekiston talabasi” jurnali iqtidoringiz, intellektual va ijodiy salohiyatingizni namoyon etish uchun Sizga ajoyib imkoniyat taqdim etadi.

Buning uchun Siz quyidagi UCH yo‘nalishdan birini tanlab, ma‘lumotlar to‘plashingiz va shular asosida maqola yozib, suratlar ham ilova qilgan holda o‘zingiz haqingizdagi batafsil ma‘lumotlar (pasport nusxasi, o‘qish joyi, fakultet, guruh – talabalik guvohnoma nusxasi, telefon raqami) bilan elektron pochta orqali tahririyatning ushbu elektron manzillariga yo‘llashingiz kerak:

✉ uzbtalaba@gmail.com 📧 [@uzb_talabasi](https://www.instagram.com/uzb_talabasi)

TANLOV YO‘NALISHLARI:

1. INNOVATSIYA YO‘NALISHI

Olib borayotgan ilmiy izlanishlari muvaffaqiyatli kechib, biror ixtiro qilgan yoki ratsionalizatorlik taklifini bildirgan talaba hamda uning yutuqlari haqida qiziqarli maqola.

2. MOZIYGA SAYOHAT YO‘NALISHI

Ko‘hna va boy tariximizning yoritilmagan sahifalari xususida original material.

3. XORIJIY TILLAR BILIMDONI YO‘NALISHI

Rus va ingliz tillarida erkin mavzuda qiziqarli ijod namunasi

**HURMATLI
TALABALAR!**

TANLOVGA YUBORILGAN
MATERIALLAR SARALANIB,
JURNAL SAHIFALARIDA CHOP
ETIB BORILADI.
YIL YAKUNIDA ESA HAR BIR
YO‘NALISH BO‘YICHA 1 NAFAR
G‘OLIB
ANIQLANADI VA **3 000 000**
SO‘MDAN PUL YUTUG‘I
BILAN TAQDIRLANADI.
AZIZ TALABALAR! IJOD
QILISH FURSATI KELDI.
SIZDAN MAZMUNLI
MAQOLALAR KUTIB
QOLAMIZ!

“O‘ZBEKISTON TALABASI”
TAHRIRIYATI

**MOZIYNING QUSHLARI AYLANAR GIRYON,
QO'NMOQQA BEXATAR MASKANNI KUTIB.
MEN ESA TURARMAN BOSH EGIB HAYRON,
QO'LIMNI TIG'LARDAN BALANDROQ TUTIB.**

Xurshid DAVRON

“Haqqush”
Rassom – Boboniyoz QURBON

